

**N.Sh. Abdullayev, Q.X. Majidov
A. A. Sultonov, Z.N. Abdullayeva**

**O'SIMLIK MOYLARI ISHLAB CHIQARISH
VA ULARNI QAYTA ISHLASH SANOATINING
JIHOZLARI VA USKUNALARI**



N.Sh. Abdullayev, Q.X. Majidov
A. A. Sultonov, Z.N. Abdullayeva

O'SIMLIK MOYLARI ISHLAB CHIQARISH VA ULARNI QAYTA ISHLASH SANOATINING JIHOZLARI VA USKUNALARI

(kasb-hunar kolleji o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma)

Toshkent – 2012

BUXORO YUQORI
TEXNOLOGIYALAR MUHANDISLIK
TEXNIKA INSTITUTI

ARM

-y- 32 21 20 -y

UDK: 581.4 (075)

KBK: 35.782-5

A15

O'simlik moylari ishlab chiqarish va ularni qayta ishlash sanoatining jihozlari va uskunalar: kasb-bunar kolleji o'quvchilari uchun o'quv qo'llanma/N.SH. Abdullayev [va boshq.]. – Toshkent: DIZAYN-PRESS, 2012. 249 b.

I. Abdullayev, N.SH.

II. Majidov, Q.X.

III. Sultonov, A.A.

IV. Abdullayeva, Z.N.

UDK: 581.4 (075)

KBK: 35.782-5

O'quv qo'llanmada o'simlik moylari ishlab chiqarish va moylarni qayta ishlash sanoatining xalq xo'jaligidagi ahamiyati, moyli urug'lardan press va ekstraksiya usulida moy olish va moylarni qayta ishlab turli-tuman mahsulotlar olishda ishlataladigan texnologik qurilmalarning turlari, tuzilishi, ishlashi, texnik tasifi va ularda mahsulot ishlab chiqarish jarayonlari bayon qilingan.

Qo'llanmadan oliv o'quv yurtlarini talabalari va shu sohada ishlaydigan mutaxassislar foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchilar:

N.Sh. Abdullayev

Q.X. Majidov

A. A. Sultonov

Z.N. Abdullayeva

Taqrizchilar:

X.F. Jo'rayev

Z.Z. Sharipov

ISBN: 978-9943-20-052-4

© "DIZAYN-PRESS" MCHJ nashriyoti, 2012.

KIRISH

Bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu 2008-yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat.

O'zbekiston bugun xalqaro hamjamiyatning va global moliyaviy-iqtisodiy bozorning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi.

Buning tasdig'ini tashqi dunyo bilan aloqalarimiz tobora kengayib borayotganida, taraqqiy topgan yetakchi davlatlar ko'magida iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish, modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash bo'yicha dasturlarning amalg'a oshirilayotganida, O'zbekistonning xalqaro savdo tizimiga integratsiyalashuvida, mahsulot va tovarlar importi va eksportining o'sib borishida va boshqa misollarda yaqqol ko'rishimiz mumkin.

O'zbekistonda qadimdan o'simlik moyi kunjut, zig'ir, indov, masxar urug'i, paxta chigit, poliz ekinlari urug'laridan moy juvozlarda olingan.

O'zbekistonda sanoat miyosida paxta chigitidan moy oluvchi dastlabki zavod 1884-yili Qo'qonda qurildi. 1893-yilda Kattaqo'r-g'onda, 1910-yilda Kogon shahrida moy zavodi qurildi. Bu zavodlarda moy gidravlik presslar yordamida olinar edi. Tez orada paxta tozalash zavodlari yonida 1–2 ta pressi bo'lgan kichik moy zavodlari qurila boshladи va 1918-yilga kelib Markaziy Osiyoda 150 ta pressga ega bo'lgan 40 dan ortiq moy zavodlari bo'lib ulardan 19 tasi (105 press) Farg'ona vodiysida joylashgan edi.

O'zbekistonda asosiy yog'-moy sanoati revolutsiyadan keyin rivojlandi. 1922-yilda Yangiyo'l shahrida, 1930-yilda Farg'ona shahrida yangi mashina va uskunalar bilan jihozlangan moy zavodlari qurilib ishga tushirildi. 1935-yilda Kattaqo'rg'ondag'i moy zavodida ekstraksiya usulida moy olish joriy etildi. 1942-45-yillarda Rossiyaning urush bo'layotgan shaharlardan 8 ta moy zavodi asbob-uskunalar bilan O'zbekistonga ko'chirilib keltirildi. 1948-yilga kelib moy zavodlaridagi gidravlik presslar uzlusiz ishlaydigan shnekli presslar bilan almashtirildi. Buning natijasida moy zavodlaridagi og'ir qo'l mehnati kamayib ishchilar endi qurilmalarni ishini nazorat qiladigan va boshqaradigan bo'ldilar. 1954-yilda Buxoro shahrida press usulida moy oladigan zavod ishga tushirildi.

1960-yilga kelib moy zavodlarida ishlab chiqarilgan moyning 46 %ni ekstraksiya usulida, 54 %ni presslash usulida olingan moy tashkil etdi.

Hozirgi kunda Respublikada yillik quvvati 3,6 mln. tonna moyli o'simlik urug'larini qayta ishlaydigan 28 ta korxona ishlab turibdi, bu korxonalarda paxta chigit, soya, masxar, meva danaklari va sabzavot urug'idan moy olinib, bu moylarda oziq-ovqat sanoati tarmoqlarida ishlatiladigan moylar, margarin mahsulotlari, mayonez, xo'jaliksovuni, atirsovun, distilatsiyalangan yog' kislotalari va boshqa mahsulotlari ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi vaqtida har yili o'rtacha 225–235 ming tonna o'simlik moylari ishlab chiqarilmoqda. Yog'-moy sanoatida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlardan o'simlik moyi, glitserin, xo'jaliksovun va shrot eksport qilinmoqda.

Respublikada yog'-moy sanoati, oziq-ovqat sanoati umumiy mahsuloti hajmining 40 %ga yaqinini beradi.

Qo'qon yog'-moy kombinati tarkibida meva danaklari va sabzavot urug'laridan moy ishlab chiqaradigan maxsus zavod, Toshkent yog'-moy kombinatida margarin mahsulotlari (yillik quvvati 52,4 ming tonna) va mayonez (yillik quvvati 2 ming tonna), tarmoqdagi 10 ta korxonada xo'jaliksovuni, Farg'ona yog'-moy kombinatida atirsovun va glitserin, Kattaqo'rg'on yog'-moy kombinatida olif ishlab chiqarilmoqda.

Hozirgi vaqtida tarmoq korxonalarini Germani (Krupp, Sket), Shvetsiya (Alfa-Loval), AQSH (Jon Braun, Kraun, Kraver), Italiya (Matstsona, Bollstra), Polsha, Xitoy, Eron, Ukraina va Rossiya mamlakatlarining firmalarida ishlab chiqarilgan zamонави асбобускуналар билан жиҳозланган. Hozir yog'-moy sanoatida moyli xomashyodan kompleks foydalanish vazifalari qo'yilgan bo'lib, bu ayniqsa chigitni qayta ishslashda katta ahamiyatga ega. Agar hozirgacha chigitdan olinadigan mahsulotlar tozalangan moy, salat moyi, glitserin, yog' kislotalari, margarin, mayonez,sovun, kunjara, shrot, sheluxa, olif buyoqlardan iborat bo'lgan bo'lsa, kelgusida chigitni kompleks ravishda qayta ishslash hisobiga olinadigan mahsulotlarning turi 3–4 marta ortadi.

Respublikamizdagi yog'-moy sanoati korxonalarini «O'zbekiston Respublikasi oziq-ovqatsanoati korxonalarini» uyushmasiga birlashtiril-

gan bo'lib, bu korxonalarining xalq xo'jaligidagi o'mi muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillik tufayli yurtimiz jahorga yuz tutdi. Xorijiy mamlakatlar bilan ishtimoiy-iqtisodiy va boshqa sohalardagi hamkorlik kundan kunga rivojlanib berilmegda. Bu sohalarda yog'-moy sanoati korxonalari ham che'ellik tadbirkor ishbilarmonlar ishtirokida o'zaro foydali sherikchilik asosida turli mahsulotlar ishlab chiqaradigan qo'shina korxonalar tashkil etmoqdalar.

Bugungi kunda Respublika aholisni, xalq xo'jaligini ekologik toza, raqobatbardosh, sifatlari, chiroyli qadoqlangan yog'-moy mahsuloti bilan ta'minlash uchun sanoat korxonalari tomonidan keng miqyosida yangi texnologiyalar joriy qilinmoqda.

Hozirgi vaqtida moyli o'simlik xomashyolaridan moy ikki xil usulda:

1. Mexanik kuch ta'sir ettirib – presslash usuli;

2. Yengil bug'lanuvchi organik eri uvchilarga eritib – ekstraksiya usulida olinmoqda.

Moy olishning bu ikki usuli yog'-moy sanoatida alohida holda yoki birin-ketinlik bilan amalga oshirilib kelmoqda.

Bu usullarni qo'llash xomashyoning turiga va olinadigan moyning sifatiga qarab tanlanadi.

O'simlik moylari olishning ikki usuli sanoatda qo'llanilayotgani uchun moyli xomashyolardan moy olishda uchta asosiy texnologik sxemalar guruhi;

– presslash usulida moy olish texnologiyasi;

– ekstraksiya usulida moy olish texnologiyasi;

– press-ekstraksiya usulida moy olish texnologiyalari qo'llanilmoqda.

O'simlik moylari ishlab chiqarishning hozirgi zamon texnologiyalari, moyli xomashyolarga turli xarakterdagи jarayonlarining ta'siri asosida amalga oshiriladi. Bu jarayonlar ichida mexanik jarayonlar muhim o'rinni egallaydi. Moy ishlab chiqarishdagi mexanik jarayonlarga; urug'larni begona aralashmalardan tozalash; urug'ini maydalash va mag'izini qobig'idan ajratish; mag'iz va oraliq mahsulotlarni yanchish va boshqalar kiradi. Moy ishlab chiqarish texnologiyasida diffuziya va issiqlik difiuziyasi jarayonlari hain muhim o'rinni egallaydi, bularga urug'ni namlik bo'yicha kondensatsiyalash; yanchilgan mag'izni namlik va issiqlik bilan

ishlash; organik crituvchilarda ekstraksiyalash; crituvchini mitsella va shirotdan bug'iatish; va boshqa jarayonlarni ko'rsatish mumkin.

Mezgani shnckli pressiarda pressiab moy olish; moyni tindirish va filtrlash jarayonlari gidromexanik jarayonlarni tashkil etadi.

Tayanch iboralari

Yog'-moy sanoati, texnologik sxema, texnologik liniya, texnologik jarayon, texnologik rejim, presslash usuli, ekstraksiya usuli, rivojlanish bosqichlari, xalq xo'jaligidagi o'rni.

NAZORAT SAVOLLARI

1. O'zbekistonda yog'-moy sanoatining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari.
2. Yog'-moy sanoatining xalq xo'jaligidagi o'mi.
3. O'simlik moylari ishlab chiqarish.
4. Moyli xomashyolardan moy olish usullari.
5. Moy ishlab chiqarishda qo'llaniladigan mexanik jarayonlar.
6. Moy ishlab chiqarishda qo'llaniladigan diffuziya va issiqlik jarayonlari.
7. Moy ishlab chiqarishda qo'llaniladigan gidromexanik jarayonlar.
8. Moy ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan hozirgi zamon texnika va texnologiyalari.

Yog'-moy sanoati texnologik uskunalarini to'g'risida umumiy tushuncha

Yog'-moy sanoati, oziq-ovqat sanoatining eng muhim va murakkab sohalaridan biri bo'lib, unda boradigan jarayonlar uzlusiz va juda ko'plab qurilma va uskunalarida amalga oshiriladi. Shu sababdan ham "Yog'-moy sanoati korxonalarining texnologik jihozlari fanini" talabalarga o'qitish ularni shu soha bo'yicha mutaxassis bo'lib yetishishlarida muhim ahaniyatga ega.

Yog'-moy sanoati strukturasi tarkibiga presslash usulida, press-ekstraksiya usulida, to'g'ridan-to'g'ri ekstraksiya usulida moyli xomashyolardan moy oladigan korxonalar, margarin, mayonez, xo'jalik sovuni, atir sovun, glitserin, distillatsiyalangan yog'-kislotalari ishlab chiqaradigan korxonalar kiradi. Bulardan ko'rinish turibdiki, bu korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar turlituman bo'lib, ularni ishlab chiqarishda ishlatiladigan uskunalar ham turli tumandir.

Yog'-moy sanoati korxonalari zamonaviy texnologik uskunalar bilan jihozlangan bo'lib, ularda ishlab chiqarish jarayonlari patok liniyalarida amalga oshiriladi. Sohada ishlab chiqarishni mexanizatsiyalashtirilganlik darajasi 85–98 %ni tashkil etadi.

Hozirgi vaqtida yog'-moy sanatida ilmiy-texnikaning rivojlaniishi quyidagi yo'naliishlarda bormoqqa:

- moyli xomashyolarni yig'ishtirishni, tashishni va sifatli saqlashni texnika va texnologiyasini takomillashtirish;
- yangi texnologiya va zamonaviy boshqarishiga asoslangan yangi uskunalarni yaratish;
- xomashyonchi qitsiz kompleks ishlaydigan liniyalarni yaratish;
- uskunalarni, jihozlarni chidamliligi va ishlash muddatini oshirish;
- tayyor mahsulotlarni qadoqlashda yangi tejamli, yengil, chidamlili polimer idishlardan keng foyda anish;
- ekstraksiya, distillatsiya jarayonlarida kam energiya sarf bo'ladijan, erituvchi kam yo'qoladigan uskunalarni ishlab chiqarishga joriy etish.

Yog'-moy sanoatida ishlatiladigan qurilmalar asosan ikki turli texnologik va transport qurilmalaridan tashkil topgan.

chiqarish, gidrogenizatsiyalash, yog' kislotalarini distillatsiyalash va shrotdan oqsil olish bo'limlari);

- yuqori (8 MPa) va past (0,133 MPa) bosimni qo'llanilishi;
- fizik-kimyoviy jarayonlar vaqtida yuqori haroratni (350° C) qo'llanilishi;
- yuqori yemirilish muhitlarida texnologik jarayonlarning amalga oshirilishi (tabiiy va sun'iy yog' kislotalari, sulfat va xlorid kislotasi, osh tuzi, ishqor eritmasi va boshq.) sababli ligerlangan kislotaga chidamli po'lat va boshqa chidamli materiallardan uskunalarini yasashni talab etadi;
- tezda qotuvchi suyuqliklarni bo'lishi (salomas, margarin, yog' kislotalari, sovun, soapstok va boshq.), maxsus qizdirish uskunalarini qo'llashni talab etadi.

Tayanch iboralar

Maqsadi, vazifalari, o'rganish manbalari, patok liniyalar, ilmiy texnikaning rivojlanishi, texnologik qurilma, transport qurilmasi, texnologik liniya, mashina, apparat, guruhlanishi, talablar, materiallar, o'ziga xosligi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Fanning maqsadi va vazifalari.
2. Yog'-moy sanoatining texnologik uskunalar bilan jihozlanganligi.
3. Texnologik uskunalar to'g'risida umumiy tushuncha.
4. Yog'-inox sanoatida ishlataladigan texnologik uskunalarining guruhlanishi va ularga qo'yiladiga talablar.
5. Patok liniya deb nimaga aytildi.
6. Texnologik jarayon nima.
7. Texnologik qurilma nima.
8. Mashina nima va unga misollar keltiring.
9. Apparat nima va unga misollar keltiring.
10. Yog'-moy sanoatida ishlataladigan qurilmalamning o'ziga xosliklarini tushuntiring.

BIRINCHI QISM

MOYLI XOMASHYOLARNI MOY OLISHGA TAYYORLASH QURILMALARI

I-bob. MOYLI URUG'LARNING VA ULARNI QAYTA ISHLASH MAHSULOTLARINI FIZIK-TEXNIK XUSUSIYATLARI

Moyli xomashyolar (kungaboqar, soyal, kunjut, paxta chigiti va boshq.) va ularning qayta ishlash mahsulotlari (moy, kunjara, shrot, sheluxa va boshq.)ni ishlab chiqarishda foydalanish vaqtida turlituman texnologik uskunalardan foydala tiladi, bu uskunalarini loyihalashda mahsulotlarning fizik-texnik xususiyatlarini bilish uskunalarini loyihalashda va ishlatishda muhim ahamiyatga ega.

Moyli urug'larni fizik-texnik xususiyatlari ularni qayta ishlashda muhim ahamiyatga ega. Urug'ning fizik-texnik xususiyatlariga:

- o'lchami va shakli;
- namligi;
- qarshilik koefitsiyenti;
- hajmiy massasi va zichligi;
- g'ovakligi;
- aerodinamik xususiyatlari singari ko'rsatkichlarni ko'rsatish mumkin.

1.1. Moyli urug'larni shakli va o'lchamlari

Har bir moyli urug'ning shakli turlicha bo'lib, misol uchun soya urug'i shar shaklida, kungaboqar, paxta chigiti kabi urug'lar uzunchoq bo'lib, ularning bir tomoni ingichkalashib o'tkir uch hosil qilgan, ikkinchi tomoni ker gayib borib o'tmas uch hosil qilgan. Har bir urug' shakliga qarab uzunligi, kengligi va qalinligini o'lchami bilan xarakterlanadi. Quyidagi jadvalda asosiy moyli urug'larning geometrik o'lchamlari keltirilgan.

chiqarish, gidrogenizatsiyalash, yog‘ kislotalarini distillatsiyalash va shrotdan oqsil olish bo‘limlari);

- yuqori (8 MPa) va past (0,133 MPa) bosimni qo‘llanilishi;
- fizik-kimyoviy jarayonlar vaqtida yuqori haroratni (350° C) qo‘llanilishi;
- yuqori yemirilish muhitlarida texnologik jarayonlarning amalga oshirilishi (tabiiy va sun‘iy yog‘ kislotalari, sulfat va xlorid kislota, osh tuzi, ishqor eritmasi va boshq.) sababli ligerlangan kislotaga chidamli po‘lat va boshqa chidamli materiallardan uskunalarini yasashni talab etadi;
- tezda qotuvchi suyuqliklarni bo‘lishi (salomas, margarin, yog‘ kislotalari, sovun, soapstok va boshq.), maxsus qizdirish uskunalarini qo‘llashni talab etadi.

Tayanch iboralar

Maqsadi, vazifalari, o‘rganish manbalari, patok liniyalar, ilmiy texnikaning rivojlanishi, texnologik qurilma, transport qurilmasi, texnologik liniya, mashina, apparat, guruhlanishi, talablar, materiallar, o‘ziga xosligi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Fanning maqsadi va vazifalari.
2. Yog‘-moy sanoatining texnologik uskunalar bilan jihozlanganligi.
3. Texnologik uskunalar to‘g‘risida umumiy tushuncha.
4. Yog‘-moy sanoatida ishlatiladigan texnologik uskunalarning guruhlanishi va ularga qo‘yiladiga talablar.
5. Patok liniya deb nimaga aytildi.
6. Texnologik jarayon nima.
7. Texnologik qurilma nima.
8. Mashina nima va unga misollar keltiring.
9. Apparat nima va unga misollar keltiring.
10. Yog‘-moy sanoatida ishlatiladigan qurilmalarning o‘ziga xosliklarini tushuntiring.

BIRINCHI QISM

MOYLI XOMASHYOLARNI MOY OLISHGA TAYYORLASH QURILMALARI

I-bob. MOYLI URUG'LARNING VA ULARNI QAYTA ISHLASH MAHSULOTLARINI FIZIK-TEXNIK XUSUSIYATI ARI

Moyli xomashyolar (kungaboqar, soya, kunjut, paxta chigiti va boshq.) va ularning qayta ishlash mahsulotlari (moy, kunjara, shrot, sheluxa va boshq.)ni ishlab chiqarishda foydalanish vaqtida turlituman texnologik uskunalardan foydalaniildi, bu uskunalarini loyihalashda mahsulotlarning fizik-texnik xususiyatlarini bilish uskunalarini loyihalashda va ishlatishda muhim ahamiyatga ega.

Moyli urug'larni fizik-texnik xususiyatlari ularni qayta ishlashda muhim ahamiyatga ega. Urug'ning fizik-texnik xususiyatlariga:

- o'lchami va shakli;
- namligi;
- qarshilik ko'effitsiyenti;
- hajmiy massasi va zichligi;
- g'ovakligi;
- aerodinamik xususiyatlari singari ko'rsatkichlarni ko'rsatish mumkin.

1.1. Moyli urug'larni shakli va o'lchamlari

Har bir moyli urug'ning shakli turlicha bo'lib, misol uchun soya urug'i shar shaklida, kungaboqar, paxta chigiti kabi urug'lar uzunchoq bo'lib, ularning bir tomoni ingichkalashib o'tkir uch hosil qilgan, ikkinchi tomoni ker.gayib borib o'tmas uch hosil qilgan. Har bir urug' shakliga qarab uzunligi, kengligi va qalinligini o'lchami bilan xarakterlanadi. Quyidagi jadvalda asosiy moyli urug'larning geometrik o'lchamlari keltirilgan.

Agar urug'ning va aralash moddaning variatsiya egri chizig'lari bir xil bo'lsa, bu aralashmani g'alvir yordamida bir-biridan ajratib bo'lmaydi (2 b-rasm).

Agar urug'ning va aralash moddaning variatsiya egri chizig'lari bir-biriga yaqin bo'lsa, bunday holda (2 v-rasm) urug' aralash moddadan bir qism ajraladi.

1.2. Fizik-texnik xususiyatlari

Moyli urug'ni ishqalanish koefitsiyenti muhim ahamiyatga ega. Ikki xil ishqalanish bo'lib bular: siqilganda va tebrangandagi ishqalanish. Shu narsa ma'lumki ishqalanish kuchi bosimga to'g'ri proporsional, ya'ni

$$F = fN$$

bu yerda, f – siqilish yoki tebranish ishqanish koefitsiyenti.

Ishqalanish koefitsiyent o'zgaruvchan kattalik bo'lib, u moyli urug'ning turiga, namligiga va ishqalanayotgan sirtning turiga bog'liq. Ishqalanish koefitsiyenti moyli urug'lar uchun po'lat sirtlarda 1,0 dan 0,25 gacha, yog'och sirtlarda 1,43 dan 0,3 gacha o'zgaradi.

Sochiluvchan mahsulotlarning zichligi va hajmiy massasi bir-biridan farq qiladi. Ma'lum bir hajmda moyli urug'lar bir xil joylashmaydi. Ularning joylashishi urug'larning o'zaro bir-biriga nisbatan joylashishiga bog'liq. Shu sababdan ham moyli urug'larning hajmiy massasi bir xil emas; u urug'ning qanday sig'imga joylashishiga, uyumning balandligiga va urug'ning o'lchamiga bog'liq.

Mahsulotni bo'sh joylashgandagi hajmiy massasini, zich joylashgandagi hajmiy massasiga nisbati ko'pirish koefitsiyenti deb aytildi. Dumaloq shakldagi urug'lar uchun ko'pirish koefitsiyenti:

$$\eta = \frac{0,524}{0,785} - 0,67$$

Oquida ba'zi bir moyli urug'larning hajmiy massasini qiymati (kg/m^3) keltirlган:

| | |
|-----------------------------------------|---------|
| Kungaboqar | 400–440 |
| Paxta chigit (qoldiq momiq miqdori 3 %) | 515 |
| Soya | 720–760 |
| Yeryong'oq | 240 |

Qurilmalarni hisoblash asosan xomashyolarning hajmiy massasi ga asoslaniladi va ba'zi hollarda zichligi ham qo'llaniladi.

Tarkibida moyi ko'p bo'lgan kungabcoqar urug'ining zichligi $680\text{--}700 \text{ kg/m}^3$ bo'lib, bu ko'rsatkich urug'ning namligi o'zgarganda ham o'zarmaydi.

Paxta chigitining zichligi uning naviga bog'liq, past navli chigitning zichligi yuqori navli chigitning zichligidan kichik. Bundan tashqari, namligi oshishi bilan paxta chig tining zichligi kamayadi. Chigitning qoldiq momiq miqdori zichlikka unchilik ta'sir etmaydi. Paxta chigitining o'rtacha zichligi $1071\text{--}908 \text{ kg/m}^3$, soyaniki 1166 kg/m^3 .

Moyli urug'larning g'ovakligi ularning saqlash davrida kechadigan barcha fiziologik hamda fizikaviy jarayonlarni o'tishida ta'sir etadi. Moyli urug'larning g'ovakligi deganda, urug'lar orasidagi havo bo'shlig'iniring hajmi tushunilaди. Urug'ning g'ovakdorligi oralig'idagi hajmning urug' massasini egallagan umumiy hajmga nisbati bilan belgilanadi va quyidagi sonnula bilan aniqlanadi:

$$S = \frac{W - V}{W} \cdot 100,$$

bunda, W – urug' massasi egallagan uniumiy hajm, sm^3 , V – haqiqiy urug'ning egallagan hajmi, sm^3 . Moyli urug'larning g'ovakligi o'rtacha $0,4$ ni tashkil etib turli urug'larc a turliche.

Moyli urug'ning namligi uning saqlashda va qayta ishlashda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, urug'ning namligi uning fizik-texnik xususiyatlariga ham ta'sir etadi. Laboratoriya da aniqlanadigan namlik har bir urug'ning namligini ko'rsata olmaydi. U namunadagi o'rtacha namlikni ifodalayci. Urug' massasini tarkibidagi urug'larning namligini turlicha bo'lishi ularning saqlashda va qayta ishlashda ba'zi bir qiyinchiliklarni tug'dadi.

1.3. Aerodinamik xususiyatlari

Moyli urug'larni aralashmalardan tozalash, maydalangan urug'ni tarkibiy qismlarga ajratish, xomashyoni va oraliq mahsulotlarni tashishda ko'pgina qurilmalarda havo oqimidan foydaliladi. Ularning havo oqimida harakatlanishi aerodinamik xususiyatlarga bog'liq.

Zarrachaga tasir etadigan havo oqimining bosimi Nyuton tenglamasi orqali aniqlanadi:

$$P = k \cdot \rho \cdot F \cdot V^2 \quad (1)$$

bu yerda, ρ – muhitning zichligi, kg/m^3 , V – muhitga nisbatan zarrachaning harakatlanish tezligi, m/sek , F – zarrachaning sirti, m^2 , k – qarshilik koeffitsiyenti.

Qarshilik koeffitsiyentining son qiymati, zarracha sirtining holatiga, shakliga va havo oqimidagi zarrachaga bog'liq.

Zarrachaning havo oqimida harakatlanishi quyidagi tenglama orqali ifodalanadi:

$$m \frac{du}{dr} = mg - P$$

bu yerda, g – erkin tushish tezligi, m/sek^2 , u – zarrachaning absalut harakat tezligi, m/sek , m – zarrachaning massasi, kg .

Havo oqimining ma'lum bir tezligida, zarrachaning harakat tezligi nolga teng bo'ladi, bu holat quyidagi sharoitda ro'y beradi:

$$mg = P$$

Bundan (1) tenglamaga asosan, tezlikni quyidagicha yozish mumkin:

$$V = \sqrt{\frac{mg}{k\rho F}} = V_{tr}$$

Havo oqimining tezligi kritik tezlik yoki uchish tezligi deyiladi va bu tezlik zarrachaning aerodinamik xususiyatlarini xarakterlaydi.

Tayanch iboralar

Fizik-texnik, shakli, o'lchami, namligi, ishqalanish koeffitsiyenti, zichligi, hajmiy massasi, g'ovakligi, aerodinamik xususiyatlari, variatsion statistika, variatsiya egri chizig'i, ko'pirish koeffitsiyenti, kritik tezlik.


NAZORAT SAVOLLARI

1. Moyli urug'larning shakli va o'lchami.
2. Urug'ning namligi, ishqalanish koeffitsiyenti.
3. Urug'ning zichligi, hajmiy massasi va g'ovakligi.
4. Aerodinamik xususiyatlari.
5. Variatsion statistika usulini izohlang.
6. Variatsiya egri chizig'inи xarakterlovchi o'rtacha arifmetik va o'rtacha kvadratik cheklanishlaming formulalarini tushuntiring.
7. Gistogrammani chizib tushuntiring.
8. Variatsiya egri chizig'inинг holatlarini tushuntiring.
9. Kritik tezlik nima va qanday aniqlanadi.

2-bob. MOYLI XOMASHYOLARNI TASHISH, TUSHIRISH VA KO'CHIRISH QURILMALARI

2.1. Moyli xomashyolarni tashish va tushirish qurilmalari

Dalalarda yetishtirilgan moyli xomashyolar va paxta tozalash korxonalarida toladan ajratilgan chigit, yog'-moy zavodlariga avtomobil, temiryo'l va daryo tranzporti orqali olib kelinadi. Olib kelingan xomashyono tezda tushirish muhi'n ahamiyatga ega bo'lib buning uchun turli mexanizmlardar foydalaniлади. Avtomobil transportida olib kelingan moyli xomashyo, maxsus gidravlik ag'dargich orqali maxsus bunkerga eg'deriladi 3-rasm.



3-rasm. Universal gidravlik avtomobil ag'dargich:

1-tutkich; 2-katta platforma; 3-gidravlik dorakrat; 4-tirkagich; 5-sharnir; 6-kichik ko'targich; 7-kichik platforma; 8-yon tornon tirkagich; 9-boshqarish pulti.

Temir yo'l vagonlaridan xomashyoni tushirish va mehnat talab qiladigan ish bo'lib, hozirgi


Bu ifodada Π – transpartyorning ish unumdarligi, kg/sek, b – lentani kengligi, m, v – lentani tezligi, m/c, p – mahsulotni uyumlizchligi, kg/m³.

Lentali transpartyorni harakatga keltiradigan uzatmani quvvati quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$P = 0,03 \Pi L \mu$$

Bu ifodada Π – transpartyorning ish unumdarligi, kg/sek, L – transpartyorni uzunligi, m, μ – uzatmani F.I.K.

Shnekli transpartyor. Bu transpartyor 6-rasm sochiluvchan va mayda donali mahsulotlarni uzatishda ishlatalidi. U yuritma 1, qopqoq 2, o'ramlar 3, nova 4, podshipnik qopqog'i 5, oraliq osma tayanch 6, mahsulot kiradigan va chiqadigan tuyunik 7 dan tashkil topgan.



6-rasm. Shnekli transpartyor:

1-yuritma; 2-qopqoq; 3-shnek; 4-nova; 5-podshipnik qopqog'i; 6-oraliq osma tayanch; 7- mahsulot kiradigan va chiqadigan tuyunik.

Shnekli transpartyorni ish unumdarligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$G = 47,1 D S n \rho \phi,$$


Bu yerda, D – shnekni diametri, m, S – shnekni qadami, m, n – shnekni aylanish soni, min, ρ – uzatilayotgan mahsulotni uyumlizchligi, kg/m³, ϕ – novani mahsulot bilan to'lish koefitsiyenti – 0,4.

Shnekli transpartyorni harakatga keltiradigan uzatmani quvvati quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$P = 0,025 (L + H) \Pi K$$

Bu yerda, I-transpartyorming izunligi, m , H-mahsulotni ko'tarish balandligi, gorizontal yo'nalishda uzatishda $H=0$, II-transpartyorming ish unumdarligi, kg/sec, K-qarshilik koefitsiyenti, $K=1,2 \dots 2$.

Kojavaли noriya. Xomashyo, oralıq va tayyor mahsulotlarni vertikal yo'nalishda uzatishda ish atiledigan transpartyor qurilmaliga noriya yoki elevator deyiladi. Kojavaли noriya 7-rasm donador va sochiluvchan mahsulotlarni yuqoriga ko'tarish uchun ishlataladi.



7-rasm. Kojavaли noriya:

1-korpus; 2-qabul qilish novasi; 3-truba; 4-lēta; 5-kajava; 6-ustki qopqoq; 7-harakatlantiruvchi baraban; 8-bo'shatish novasi; 9-baraban.

Bu qurilma metall korpus 1 va unza biriktirilgan qabul qilish 2 va bo'shatish 8 novalardan, truba 3, ustki qopqoq 6 dan tashkil topgan bo'lib, truba ichiga lenta 3, harakatlantiruvchi 7 va tortuvchi 9 barabonlar joylashtirilgan.


2.3. Xomashyolarni uzatishning pnevmatik qurilmalari

Pnevmatik qurilmalar ma'lumi namlikdagi kukunsimon, sochiluvchan donali, oz qirrali mahsulotlami gorizontal va vertikal yo'nalishda tashish uchun ishlataladi. Bu qurilmalarda mahsulot havo bilan aralashib havo oqimida harakatlanadi.

Pnevmatik uzatish qurilmalari asosan havo so'rish mashinasi (ventilator, kompressor, vakuum nasos va boshq.), qabul qilgich, bo'shatgich, shluzali qopqoq, filtr, harakatlanish trubasi va oqimni yo'nalishini boshqargichdan tashkil topgan. Hozirgi vaqtida pnevmatik transpartyorlar yog'-moy korxonalarida chigitni, shluxani va shrotni uzatishda qo'llanilib kelinmoqda.

So'rish uculida ishlaydigan pnevmatik transpartyor 8-rasm.

Soplo 1, harakatlanish trubasi 2, ajratgich 3, siklon 4, shluzali qopqoq 5, havo so'rish mashinasi 6 dan tashkil topgan.



8-rasm. Pnevmatik transpartyor:

1-soplo; 2-harakatlanish trubasi; 3-ajratgich; 4-siklon; 5-shluzali qopqoq; 6-havo so'rish mashinasi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Moyli xomashyolarni tashish qurilmalarini turlari.
2. Universal hidravlik avtomobil ag'dargichni ishlashini tushuntiring.

3. Lentali transpartyorni tuzilishini va ishlashini tushuntiring.
4. Shnekli transpartyorni tuzilishini va ishlashini tushuntiring.
5. Pnevmatik transpartyorni tuzilish ni va ishlashini tushuntiring.

3-bob. MOYLI URUG'LARNING BEGONA ARALASH MODDALARDAN TOZALASH QURILMALARI

Yog'-moy sanoati korxonalariga olib keligan moyli urug'lar tarkibidagi turli organik va mineral aralash moddalar bo'ladi. Bu moddalar moyning chiqishini kamaytiradi, moyga o'ziga xos hid hosil qilib sifatini pasaytiradi, qurilmalarni yeyilishini tezlashtiradi, sinishiga olib keladi, foydali ishlab chiqarish maydonini egallaydi, ishlab chiqarish bo'limlarida chang hosil qilib hayot xavfsizligiga va atrof-muhitga zarar yetkazadi. Shu sababdan ham moyli urug'nii aralash moddalaridan tozlash zarur.

Korxonalarda moyli urug'lar tarkibidagi aralash moddalar ikki etapda:

1. Saqlashdash oldin.
2. Ishlab chiqarishga yuborishdan oldin tozalash amalga oshiriladi.

Birinchi va ikkinchi etapda tozalashda bir xil texnologik uskunladan foydalilanadi, lekin ular turli rejimda ishlatiladi. Aralash moddalar quyidagi xususiyatlariga asosan moyli urug'lardan tozalaniladi:

1. Urug' va aralash moddaning o'lchami va shakliga asosan.
2. Urug' va aralash moddaning aerodinamik xususiyatlariga asosan.
3. Aralash moddalarining magnitlarish xususiyatlariga asosan.


Hozirgi vaqtida sanoatda ishlatilayotgan tozalash qurilmalarining ko'pchiligi moyli urug' va aralash moddalarining yuqorida hamma xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlaydi.

3.1. Moyli urug'larni o'lchami va shakli bo'yicha tozalash qurilmalari

Moyli urug'lar va aralash moddalar ni o'lchami va shakliga ko'ra ajratishda turli konstruksiyadagi elakli e ash qurilmalari ishlatiladi. Bu

qurilmalarning asosiy ishchi qismi turli o'lgachadagi shakldagi ko'zi bor elaklar hisoblanadi. Hozirgi vaqtida sanoatda dumaloq va uzun ko'zli metall va qattiq ipdan tayyorlangan elaklar ishlatiladi. Metalldan tayyorlangan dumaloq ko'zli elak 9-rasmida ko'rsatilgan, bunday elaklarda ko'zi shaxmat shaklida joylashgan bo'lib, ular bir-biridan raqami bilan farq qiladi. Elakni raqami uning ko'zini diametrini (millimetrida) 10 soniya ko'paytirilganligiga teng. Elak ko'zlarining qadami 1,5d teng bo'lib, u elakning mustahkamligini ta'minlaydi. Hozirgi vaqtida sanoatda ko'zlarini diametri 0,8 dan 40 mm gacha bo'lган dumaloq ko'zli elaklar ishlatiladi.


Uzun ko'zli 10-rasm elaklar urug'lar va aralash moddalarni qalinligiga ko'ra ajratadi. Bunday elaklarda ko'zlar bir-biriga parallel joylashgan. Bunday elaklar ham raqam bilan belgilaniladi, lekin ikkita son bilan, bitta son ko'zining kengligini, ikkinchi son uzunligini millimetrlarda ko'rsatadi. Hozirgi vaqtida sanoatda ko'zining kengligi 0,5 dan 10,0 mm bo'lган, uzunligi 10 dan 50 mm gacha bo'lган elaklar ishlatilmoqda.



9-rasm. Dumaloq ko'zli elak.

Elaklarning ishlatilishida ularni xarakterlovchi ko'rsatkichi, bu elak yuzasining foydali ishlatilish koeffitsiyenti bo'lib, u elak ko'zlarining hamma yuzasini yig'indisini, elakning umumiy yuzasiga bo'lingandagi chiqqan son qiymatiga teng bo'lib u foizlarda

ifodalanadi. Bu son metalldan tayyorlangan elaklarda 15 dan 50 % gachani, ipdan tayyorlangan elaklarda 48 dan 85 %gachani tashkil etadi.




10-rasm. Uzur ko'zli elak.

Elak yuzasida urug'dan begone aralash moddalar ajralishi uchun, urug' elak yuzasida bir xil bo'limgan nezlikda harakatlanishi kerak. Elakda ajralish jarayoni 11-rasmida ko'rsatilgan. Bunda ikkita fraksiya ajraladi:

1. O'lchami elak ko'zining o'lchemidan katta bo'lgan moddalar, elak ustiga qoladi, bu fraksiyaga qoldiq deyiladi;

2. O'lchami elak ko'zlarini o'lchemidan kichik bo'lgan moddalar, elak ko'zlaridan o'tib elakning ostiga tushadi, bu fraksiyaga elanma deyiladi.



11-rasm. Moyli urug'ni elakda begone uralishni alardan ajratish jarayoni:
1-elanadigan xomashyo; 2-elak; 3-tuglik; 4-nova.


Elaklar shakliga ko'ra tekis va barabansimon bo'ladi. Tekis shakldagi elaklar quyidagi 12-rasm harakatlanish imkoniyatlariiga ega:

1. Bir qism qiya qilib o'matilgan elak oldinga orqaga borib keladigan harakat qiladi. Bunday elakda moddalar yaxshi ajraladi va unumdarligi yuqori bo'ladi.

2. Bir qism qiya qilib o'matilgan elak yon tomonga borib keladigan harakat qiladi. Bunday elakda moddalar yaxshi ajralmaydi va ish unumdarligi past.

3. Gorizontal yoki bir qism qiya qilib o'matilgan elak aylanma harakat qiladi, bunda moddalarning ajralishi yaxshi, ish unumdarligi yuqori.

4. Gorizontal yoki bir qism qiya qilib o'matilgan elak vertikal yo'nalishda tebranma harakat qiladi, bunday elaklar tebranuvchi elaklar deyiladi.




12-rasm. Elakning harakatlanish turlari.

Moyli urug'lar tarkibidagi aralash moddalarni faqat o'lchamga asosan ajratadigan qurilmalarga ZS-5 va ZS-10 tipidagi tekis elakli shopirgichlar, baraban shaklidagi elak «Burat», qo'sh ramali MXS qurilmalari sanoatda ishlatalidi. ZS-5 tipidagi shopirgichning ishlash sxemasi 13-rasmda ko'rsatilgan, unda tozalanadigan urug' qabul qiluvchi / elakda tushadi. Bu elakda urug' tarkibidagi aralashmalar

ajratiladi va ular quzilmadan chiqariladi. Elakdan o'tgan urug'lar 2 saralovchi elakka tushadi va bu yerda ham aralashmalardan tozalanadi. Saralovchi elakning birinchi qismidan o'tgan urug'lar bo'lувчи 3 ga tushadi va bu yerda ikk oqimga bo'linadi, bo'lingan urug'ning 1/2 qismi qisqartirilgan 4 elakka, 2/3 qismi ostki 5 elakga tushadi. 4 va 5 elaklarda qolgar qoldiq tozalangan urug', elak ko'zlaridan o'tgan elanma aralash moddalar bo'lib ular nova orqali qurilmadan chiqariladi.

Xom ashyo




13-rasm. ZS tipidagi shopirgichda moyli urug'ni tozalash jarayoni:

1-qabul qiluvchi elak; 2-saralowchi elak; 3-bo'luvchi; 4,5-elak.

Paxta chigitini tozalashda baraban shaklidagi «Burat» deb nomlangan elak ishlataladi 14-rasm. U silindrsimon yoki ko'p qirrali prizma shaklidagi baraban bo'lib, uning atrofi yaxlit elak bilan o'ralgan. Baraban valga biriktirilgan bo'lib u 1:20 burchak ostida og'ib turadi, baraban o'z o'qi atrofida 20 ayl/min aylanib turadi. Buratning ishchi qismi 6 baraban bo'lib, u tayanch 7 ga burchak ostida o'matilgan. Baraban uzunligining 1/3 qismi ko'zlarining diametri 3–4 mm bo'lgan 2 elak bilan, 2/3 qismi ko'zlar ning diametri 16–18 mm bo'lgan 3 elakdan tashkil topgan. Elakning urnumiy yuzasi 28 m² ni tashkil etadi. Tozalanadigan urug' 1 nova orqali baraban ichiga tushadi va baraban bilan birlashtiriladi.

ma'lum bir balandlikga ko'tarilgandan so'ng o'z og'irligi bilan pastga tushadi. Shunday tebranish natijasida barabanning birinchi qismida urug'dan kichik bo'lgan begona aralash moddalar elakdan o'tib 4 shnekga tushib u yerdan chiqarib turiladi. Urug' harakatlanib barabanning ikkinchi qismi 3 ga o'tadi va u yerda urug' elakdan o'tib 4 shnekga tushadi va shnek orqali qurilmadan chiqariladi. Urug'dan katta bo'lgan aralash moddalar baraban ichida qolib barabanning harakati natijasida barabandan chiqadi. Qurilmanig ish unumidorligi 120 ton/sut bo'lib, bunda urug' 100 % katta aralashmalardan va 50–60% kichik aralashmalardan tozalanadi. Barabanli elakning ishchi qismini 20–25 % foydali ishga sarf bo'ladi, shu sababdan ham bu qurilma hozirgi vaqtida kam qo'llaniladi.




14-rasm. Paxta chigitini tozalashda ishlatalidigan «Burat» qurilmasi:
1-urug' tushadigan nova; 2-urug' dan kichik aralashmalar o'tadigan elak;
3-urug' o'tadigan elak; 4,5-shnek; 6-baraban; 7-tayanch; 8-val.

Paxta chigitini birlamchi tozalashda tekis yuzali ilgarilanma qaytma harakat qiladigan elak MXS ishlatalidi. Qurilma MXS 15-rasmida 1 tayanchdan va bu tayanchga osilgan ikkita elakli rama 2 dan tashkil topgan bo'lib, ramalar to'rtta 3 tortqilar orqali tayanchga osib qo'yilgan. Tortqilar sharnirli bo'lib ular erkin orqaga va oldinga harakatlanadi va tebranish hosil qiladi. Ustki ramaga faqatgina ko'zlarning diametri 18 mm bo'lgan elak o'matilgan, ostki rama ikki qismdan iborat bo'lib ustki qismiga ko'zlarining diametri 4 mm

bo'lgan elak va uning ostiga tunukada yosalgan taglik o'matilgan. Elakli ramalar qurilma o'qiga o'matilgan to'rtta 4 ekssentriklar yordamida bir-biriga nisbatan qaranga-carshi harakat qiladi. Qurilma atroflari yog'och g'ilof bilan o'ralgan. Shu sababdan ham qurilma ishlayotgan vaqtida chang tashqarg'a chiqmaydi, g'ilof ichidagi changni ventilator so'rib oladi.

Qurilma quyidagi tartibda ishlaydi, ustki elakga tushgan urug' harakatlanib elanishi natijasida elak ko'zlaridan o'tib elanma ikkinchi pastga elakga tushadi.



15-rasm. Paxta chigitini tozalashda ishlat jadigan qo'sh ramali «MXS» qurilmasi:

1-tayanch; 2-rama; 3-tortqi; 4-ekssentrik.

Urug'dan katta bo'lgan aralashmalar elak ustida qolib qoldiq holda novaga tushadi. Pastki elakda urug'dan kichik bo'lgan aralash moddalar elanma holda taglikka tushadi urug' esa qoldiq holda elak ustidan novaga tushib qurilmadan chiqariladi. Qurilmaning ish unumдорлиги 5 ton/soat. Bu qurilmada urug' bilan o'lchamlari bir xil bo'lgan aralashmalarni ajratib bo'lmaydi.

3.2. Moyli urug'larini aerodinamik xususiyatiga asosan tozalash qurilmalari

Moyli urug'lar bilan o'lchamlari biror xil bo'lgan, juda ham yengil bo'lgan aralash moddalarini elaklar yordamida moyli urug'lardan ajratib bo'lmaydi. Shu sababdan ham bunday aralashmalar, moddalarning aerodinamik xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlaydigan qurilmalardan havo oqimida tozalaniladi. Bu

usul urug' va aralash moddalarining aerodinamik xususiyatlari turlicha ekanligiga, ya'ni havo oqimiga turlicha qarshilik ko'rsatishiga asoslangan.


Har bir zarrachaning havo oqimidagi harakati uning og'irligiga, o'lchami va shakliga, zarracha sirtini havo oqimi yo'nalishiga joylashganligiga, havo oqimining tezligiga va holatiga bog'liq.

Havo oqimida shopirib moyli xomashyolarni tozalash ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi, bunda yengil mineral va organik aralash moddalar va o'lchamlari urug' bilan teng bo'lgan begona o'tlarning urug'lari yaxshi ajraladi.

Moyli xomashyolarni havo oqimida shopirib tozalashda ishlatiladigan qurilmalar, doimiy va o'zgaruvchan havo oqimida ishlaydigan qurilmalarga bo'linadi. Doimiy havo oqimida ishlaydigan qurilmalar yopiq siklda ishlaydi, o'zgaruvchan havo oqimida ishlaydigan qurilmalar ochiq siklda ishlaydi.


O'zgaruvchan havo oqimida ochiq siklda ishlaydigan qurilmaning sxemasi 16-rasmida ko'rsatilgan bo'lib, havo ishchi I kameradan ventilator 2 yordamida atrof-muhitdan so'rib olinadi, bunda havoning so'rish yo'lida moyli urug' tushadi, urug' og'ir bo'lganligi uchun ishchi kamerada cho'kadi, uning tarkibidagi yengil aralashmalar, chang havo oqimi bilan 3 cho'ktirish kamerasida keladi, bu yerda havo tarkibidagi aralashmalar cho'kadi va havo atmosferaga chiqarib yuboriladi. O'zgaruvchan havo oqimida ishlaydigan qurilmalarning asosiy kanchiligi havo oqimini tozalash uchun qo'shimcha qurilmalarning zarurligidadir.

O'zgaruvchan havo oqimida, yopiq siklda ishlaydigan qurilmada 17-rasm, I kameradagi havo 2 ventilator yordamida so'rib olinadi bunda havo yo'lida tushayotgan moyli urug' va aralash moddalar ham so'riliadi, havo oqimi kameraga kelganda kengayish natijasida tezligi kamayib havo oqimidagi og'ir moyli urug'lar cho'kadi, urug'dan yengil bo'lgan aralash moddalar havo oqimida harakatlanib, 3 siklonga keladi va bu yerda havo oqimi tozalanib, tozalangan havo ventilator yordamida, ya'ni ishchi kameraga yuboriladi. Bu qurilmada bir xil miqdordagi havo oqimi yopiq siklda aylanma harakat qiladi.



16-rasm. O'zgaravch havo oqimda o'chiq sikida ishlaydigan tozalash qurilmasining sxemasi:


1-ishchi kamera; 2-ventilator, 3-ho'kitirish kamerasi.



17-rasm. O'zgarmas havo oqimda yopiq sikida ishlaydigan tozalash qurilmasining sxemasi:

1-ishchi kamera; 2-ventilator, 3-ho'kitirish kamerasi.


Havo oqimida paxta chigitini tozalashda USM va UOXS qurilmalari ishlatiladi. Paxta chigitni tarkibidagi og'ir, yengil mineral va organik aralashmalarni tozalashdu USM 18-rasm qurilmasi ishlatiladi, bu qurilma uchta asosiy qisrilardan: ta'minlagich 1, cho'kitirish kamerasi 4 va inersion shopirgich 6 dan iborat bo'lib ular o'zaro havo oqimi harakatlanadigan quvurlar bilan tutashtirilgan. Ventilator 10 hosil qilgan havo oqimida urug' yengil aralashmalar yuqoriga tortiladi, og'ir aralashmalar esa pastga tushadi.



18-rasm. Paxta chigitini tozalashda qo'llaniladigan USM qurilmasi:
 1-ta'minlagich; 2-surish trubasi; 3-vakuum klapan; 4-cho'ktirish kamerasi;
 5-havo so'rish trubasi; 6-inersion shopirgich; 7-siklon;
 8-klapan; 9-rxstlovchi to'siq; 10-ventilator.

Havo trubasida harakatlanayotgan urug' va yengil aralashmalar cho'ktirish kamerasi 4 ga keladi va bu yerda kengayish natijasida havo oqimining tezligi pasayib uning tarkibidagi og'ir moyli urug' cho'kadi va 3 vakuum klapan orqali ishlab chiqarishga uzatiladi. Yengil aralashmalar havo oqinida 5 havo so'rish trubasida harakatlanib inersion shopirgich 6 ga keladi, inersion kamerada puch, shikastlangan va bir qism urug' begona aralashmalardan tozalanadi va 8 klapan orqali chiqarilib ishlab chiqarishga uzatiladi. Inersion shopirgichdagagi yengil aralashmalar 9 tartiblovchi to'siq orqali so'rilib 10 ventilator orqali havo tozalaydigan 7 siklonga yuboriladi. Bu yerda havo changdan va aralashmalardan tozalanib atmosferaga chiqariladi. Qurilmada tozalanish darajasi 3,5 gram og'irlikgacha bo'lgan og'ir aralash moddalarda 100 %, kichik va yengil aralash moddalar bo'yicha 90-92 %ga teng.

UOXS qurilmasining tuzilishi 19-rasmida ko'rsatilgan.




19-rasm. Paxta chigitini tozalashda qo'llaniltigan UOXS qurilmasi:
 1, 6, 9-shnekli transpartyor 2-ta'minlegich; 3-so'rish trubasi; 4-cho'ktirish kamerasi;
 5,8-vakuum klapan; 7-inersion shopirgich; 10-ventilator;
 11-siklon.

Hozirgi vaqtida sanoatda kungaboojar, soya, masxar urug'larini tozalashda elakli va havo oqimida tozalaydigan kombinatsiyalangan shopirib tozalaydigan qurilmalar, ishlatalilib kelinmoqda. Bu qurilmalarning asosiy ishchi qismlari elakli rama va aspiratsiya sistemasi hisoblanadi. Bu qurilmalarda urug'ni begona aralash moddalardan tozalash elaklarda elash va aerodinamik xususiyatlariga asosan havo oqimi yuborish orqali amalga oshiriladi.

Shopirib tozalaydigan ZSM-50 qurilmasi 20-rasmida ko'rsatilgan bo'lib, u 13 tayanch, yuqorigi 7 va pastki 9 elaklardan, aspiratsiya sistemasini cho'ktirish kameralari 4 va 11, qabul qiluvchi nova 1, ta'minlovchi shnek 2, to'r taglik 5, aralash moddalar oqib tushadigan

novalar 6, 8 va 12, birinchi shamollatish yo'li 10 va ikkinchi shamollatish yo'li 14 dan tashkil topgan.



20-rasm. ZSM-50 shopirgich:

1-qabul qiluvchi nova; 2-ta'minlovchi shnek; 3,10,14-havo yo'li;
4,11-cho'ktirish kamerasi; 5-to'r taglik; 6, 8, 12-nova; 7, 9-elak; 13-tayanch.

Qabul qiluvchi nova 1 dan tushayotgan moyli urug'larni 2 ta'minlovchi shnek va birinchi havo yo'li 3 orqali 5 to'r taglikka bir xilda yuboriladi. Birinchi havo yo'liida tushayotgan urug' ventilator tortib olayotgan havo oqimi bilan uchrashadi va chang, mayda xas cho'pdan tozalanadi va bu begona aralashmalar 4 cho'ktirish

kamerasida cho'kadi. To'r taglikda urug'dan katta aralashmalardan tozalanadi, aralashmalar 6 novaga tushib qurilmadan chiqariladi, taglikda elangan urug' 7 va 9 eleklerning ustki elaklariga tushib elanadi. Bu elaklarda urug' elanma bo'lib elakdan o'tib pastki elaklarga, begona aralashmalar qoldiq holda elak ustiga qolib novalar orgali qurilmadan chiqariladi. Ikkinchisi qavatdagisi elaklarda urug'dan kichik aralashmalar elanma bo'lib pastga taglikka va undan 12 novaga tushib qurilmadan chiqariladi. Elak ustiga qolgan urug'lar 14 ikkinchi havo yo'liga tushadi va qolgan chang va aralashmalardan tozalanadi va bu aralashmalar 11 kameraga cho'ktiriladi. Chang havo 4 va 11 cho'ktirish kameralaridan ventilator orqali so'rib olinib siklonlarda tozalanadi. Qurilmaning ish unumdorligi 20-25 ton/soat.

Tayanch iboralar

Begona aralash moddalar, mineral maddalar, organik moddalar, moyli aralashmalar, o'lchamiga asosan ajratish, aerodinamik xususiyatlari, elektromagnit xususiyatlari, clash, clash usullari, elakli tozalash qurilmalari, barabanli elak, qo'sh ramali elak, USM qurilmasi, UOXS qurilmasi, shopirgich, ochiq sikel, yopiq sikel, ZSM-50 shopirgichi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Moyli urug'larni begona aralash maddalardan tozalash.
2. Moyli urug'lar tarkibidagi aralash maddalarni o'lchami va shakli bo'yicha ajratish qurilmalari.
3. Elakli tozalash qurilmalari va ularning tuzilishi va ishlashi.
4. Moyli urug'lar tarkibidagi begona aralash maddalarni havo oqimida tozalash qurilmalari.
5. Shopirish qurilmalarida begona aralash maddalardan tozalash.
6. Qo'sh ramali MXS qurilmasini tuzilishini tushuntiring va unda paxta chigitini tozalash jarayonini izohlab bering.
7. Barabanli «Burat» qurilmasini tuzilishini tushuntiring va unda paxta chigitini tozalashni izohlab bering.
8. Havo oqimida aralashmalarni tozalash qurilmalarini ochiq va yopiq siklda ishlashini tushuntiring.
9. USM markali qurilmani tuzilishini tushuntiring va unda paxta chigitini tozalash jarayonini izohlang.

10. UOXS markali qurilmaning tuzilishini tushuntiring va unda paxta chigitini tozalash jarayonini izohlang.

11. ZSM-50 shopirgichining tuzilishini tushuntiring va unda kungabоqar urug‘ini tozalash jarayonini izohlang.

12. Elaklarning turlari va ularga qo‘yiladigan talablar va ularni xarakterlovchi ko‘rsatkichlari.

4-bob. MOYLI URUG‘LARNI MAYDALASH VA QOBIG‘IDAN AJRATISH QURILMALARI

Moyli urug‘lar hujayralarida, moy bir tekis taqsimlanmagan bo‘lib, ko‘p miqdordagi moy mag‘izda to‘plangan, urug‘ va mag‘izni o‘rab turuvchi qavatlarda moy kam miqdorda bo‘lib, bu moylar tarkibi jihatdan mag‘iz tarkibidagi moydan farq qiladi.

Turli moyli urug‘larda mag‘iz va qobig‘ o‘rtasidagi o‘zarо nisbat turlicha bo‘lib, u naviga va o‘stirilgan tabiiy iqlim sharoitiga qarab o‘zgarib turadi.

Yuqori sifatli moy, shrot va kunjara olishda moyli urug‘ni chaqish va qobig‘ini ajratish asosiy va muhim texnologik jarayon hisoblanadi.

Mag‘iz va qobiqning o‘zarо nisbati uning qobig‘ini ajratib qayta ishlanganda, u qurilmalarning ish unumдорligiga, olinayotgan mahsulotlar sifatiga va sheluxa, shrot, kunjara va moyning chiqishiga ta‘sir etadi.

Moyli urug‘lar, urug‘ qavat, mag‘iz qavatning xarakteri va bog‘liqligini mustahkamligiga ko‘ra ikki gruppaga:

- qobiqli moyli urug‘lar;
- qobiqsiz moyli urug‘larga bo‘linadi.

Qobiqli moyli urug‘lar kungabоqar, paxta chigit qayta ishlashda mag‘iz urug‘ qobig‘idan ajratilib qayta ishlanadi.

Agar moyli urug‘ qobig‘ini ajratmasdan qayta ishlansa undan olingan moyning sifati past bo‘lib, mazasi va hidi yomonlashadi, kislota soni va rangi katta bo‘ladi va saqlash muddati qisqaradi.

Tekshirishlardan shu narsa ma’lumki qobiq‘i ajratmasdan qayta ishlangan chigitning shrotini moyliligi, qobig‘i ajratib olingan chigitdan olingan shrotning moyliligidan katta bo‘ladi. Chunki qobiq

mo'rt bo'lib u moyni o'ziga yutadi va buning natijasida moyning chiqishi kamayib, chiqitga chiqishi ko'payadi.

Qobiqni ajratishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, bu maydalash va presslash, ekstraksiyalash jarayonlarini yengillashtiradi. Chunki qobiqning mexanik mustahkamligi mag'izning mustahkamligidan bir necha marta katta bo'lib, u qurilmalarning yeyilishini tezlashtiradi va foydali ishlashini kamaytiradi.

Urug'larni po'chog'ini ajratish ikki bosqichda arnalga oshiriladi, birinchi bosqich po'chog'i chaqiladi. ikkinchi bosqich po'choq mag'izdan ajratiladi.

Urug'larni po'chog'ini sindirganda hosil bo'lgan massaga rushanka deyiladi, u butun mag'iz, qobiq, mag'iz bo'lagi, moy changi, chaqilmagan va bir qism chaqilgan urug dan tashkil topgan.

Rushanka tarkibidagi komponentlarning o'zaro nisbati turlicha bo'lib, ular urug'ning turiga, uning o'lchamiga, namligiga, qayta ishlashga tayyorlash sharoitiga va maydalashga qanday qurilmalardan foydalanishga bog'liq.

Texnologik normalarga muvofiq rushankaning sifati quyidagi talablarga muvofiq bo'lishi kerak. Kungaboqar urug'ini qayta ishlashda rushanka tarkibidagi maydalangagan urug' 25 %dan, mag'iz bo'laklari 15 %dan, moy changi 15 %dan oshmasligi, o'rta tolali paxta chigitini qayta ishlashda ikki bosqichli maydalashda, birinchi maydalashdan keyin butun urug' 30 %dan, ikkinchi maydalashdan keyin 0,8 %dan oshmasligi, ingichka tolali paxta chigitini maydalanganda rushanka tarkitida, butun urug'lar 15–20 % dan oshmasligi kerak.

4.1. Moyli urug'larni maydalash usullari va qurilmalari

Moyli urug'larni maydalash uchun turli usullardan foydalilaniladi. Qaysi usulni tanlash quyidagi faktorlarga bog'liq urug'ni fizik mexanik va biokimyoiy xususiyatlariiga, morfologik qismlarini tuzilishiga, eng asosiy xususiyat bi qobiqning mustahkamligi, elastikligi va deformatsiyalarini.

Yuqorida xususiyatlarga asosan hozi'gi vaqtida sanoatda moyli urug'larni maydalashning quyidagi usullari ishlatalmoqda:

1. Urug' taram-taram darrali yuzadi ishqalanishi natijasida sinadi. Bunda ma'lum bir tezlikda taram-taram yuzada

harakatlanayotgan urug', sirtga tegadi va bunda, sirt bilan urug' qobig'i o'rtasida ishqalanish yuzaga kelib, urug'ni harakatlanishiga qarshilik qiladi. Buning natijasida urug' sinib mag'iz ajraladi.

2. Darralar bilan bir yoki ko'p marta urib, dinamik siqish yordamida po'choqni yorish. Ko'p marta darralashda urug'lar qisqa muddatda juda kuchli siqilib, ularning qobig'i mag'izidan ajraladi va mashinaning dekasiga urilib to'kilib ketadi. Kungaboqar urug'ining po'chog'i ana shu usulda chaqiladi. Bu usulda po'choq bilan bir qatorda 25 %gacha mag'iz ham maydalanadi.

3. O'tkir pichoqli gardishlar orasida urug'lar po'chog'ini kesish usuli. Bu usulda urug' qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas pichoqlar o'rnatilgan gardishlar oralig'iga tushadi, qo'zg'aluvchan gardishning aylanishi natijasida gardishlar sirtidagi o'tkir pichoqlar urug' po'chog'ini kesadi va mag'iz ajraladi. Bu usulda paxta chigit chaqiladi va keyin mag'izi sheluxadan ajratiladi. Bunday usulda ishlaydigan qurilmalarga gullerlar deb aytildi.

4. Urug' po'chog'ini valiklar orasida siqib sindirish. Bunda ikki valik orasiga tushgan urug' sirtiga ta'sir etayotgan kuchning sekin asta o'sib borishi natijasida, urug'ning po'chog'i chaqiladi va mag'iz ajraladi. Soya urug' shu usulda maydalanadi.

5. Ho'l usulda ajratish, bunda urug' suvgaga ivitib qo'yiladi, ivigan urug' yupqa po'chog'idan oson ajraladi. Bu usul kunjut urug'ini tozalashda qo'llaniladi.

Hozirgi vaqtida urug'larni chaqishning yangi usullarini sanoatda tatbiq qilish ustida ishlar olib borilmqdqa, bu usullarga:

1. Aeroshelusheniya havo yoki gazni tovush va tovush tezligidan yuqori tezlikda harakatlantirish orqali urug'ni qobig'ini yorish va undan mag'izni ajratish.

2. Urug' qobig'i ichida turli usullar (yuqori chastotali elektromagnit maydonida, bosimni bir necha marotaba o'zgartirib, urug' ichida impuls hosil qilish) yordamida ortiqcha yuqori bosim hosil qilib urug'ni chaqish.

Bu usullarni tatbiq qilishdan maqsad imkon qadar mag'izni sindirmasdan qobiqni ajratish va qobig' bilan chiqitga chiqadigan mag'iz miqdorini kamaytirish, mag'izni maydalanib ketishga yo'q yomaslik.

Moyli urug'larning qobig'ini mustahkamligi uning namligiga bog'liq bo'lib, namligi miqdoriga qarab ulami maydalash uchun sarf

bo'ladigan energiya miqdori ham turlicha bo'ladi. Kungaboqar urug'ining namligi ortib borishi b'ian uni chaqishga sars bo'ladigan energiya miqdori eshib boradi. Lekin shu b'ian bir qatorda mag'izning maydalaniishi kamayadi, rushanka tarkibida chaqilmagan urug' miqdori ortadi. Namligining kam bo'lishi urug'ni yaxshi chaqilishiga imkon beradi, ammo bunda mag'izning maydalaniishi va mag'iz changi hosil bo'lishi natijasida mag'izning srosga chiqishi ko'payadi, maydalananadigan kungaboqar urug'ini o'stimal namligi 7-8 % bo'lishi kerak.


Paxta chigitining 57-61 % mag'izdan, qolgan 39-43 % sheluxadan iborat bo'lib, u inurakkab kimyoviy birikmadir. Sheluxaning elastikligi katta bo'lgaqiligi uchun uni urish yo'li bilan chaqib bo'lmaydi, shu sababdan ham sheluxani mag'izdan ajratish uchun kesish usulida ishlaydigan maydalash qurilmalari ishlatiladi. Bu mashinalarga guller deb aytildi, ular ikki turli bo'lib pichoqli va gardishli turlarga bo'linadi.

Hozirgi vaqtida paxta chigitini maydalashda MSHV va AS-900 tipidagi gardishli gullerlar ishlatiladi. MSHV tipidagi 21-rasm gardishli gullemi qobig'i 2 cho'yandan yasalgan bo'lib uning ichiga po'latdan yasalgan ikkita 1 qo'zg'aluvchan va 5 qo'zg'almas gardishlar o'matilgan. Qo'zg'aluvchan gardish 3 o'qqa o'matilgan bo'lib? u 1000-1200 ayl/min tezlikda aylanib harakatlanadi. Ikkala gardishning oraliq'i gayka va kontirgaykali 6 vint yordamida rostlab turiladi. Gayka bir marta buralsa, gardish 2,5 mm ga siljiydi. Gardishlar orasiga chigit bilan birga tasodidan kirib qolgan tosh yoki chigitdan yirikroq qattiq narsalar avtomatik kengaytiruvchi mexanizm yordamida tushirib yuboriladi. Bu vaqida gardishlar orasidagi oraliq 50 mm gacha kengayadi. Har qaysi gardishga bolt yordamida oltita cho'yan 4 va 5 pichoq o'matilgan. Bu pichoqlarning sirti nov shaklida taram-taram qilib ishlangan. Shu novler chigitni kesadi. Ular gardishga nisbatan $11-15^{\circ}$ burilib turadi. Shuning uchun qo'zg'almas va aylanuvchan gardishlarning novlari o'tasida $20-30^{\circ}$ li burchak hosil bo'ladi. Gardish aylangan vaqtida novlar bir-biri bilan uchrashib, orasiga tushgan chigitni chaqadi. Qo'zg'aluvchi gardishning o'qiga qorgichlar o'matilgan bo'lib ular kamерaga tushgan chigitni markazdan chetga uloqtirib tashlaydi.


Gullerlash qurilmasi quyidagi ta'sibda ishlaydi. Qabul qilish novasiga tushgan chigit o'ramli meyorlagich orqali kameraga tushadi

va u hamda qorgichlar orqali gardishlarning ishchi yuzasiga uzatiladi va u yerda qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas gardishlarning orasida chigit kesiladi va markazdan qochma kuch ta'sirida chekaga otiladi va g'ilofning ichidan pastga tushadi. Qurilmaning ishlashi natijasida pichoqlarning o'tkir taram-taram uchlari yeyilib o'tmas bo'lib qurilmaning ishlashi yomonlashadi. Pichoqlar o'tmas bo'lib qolsa gardishlarni o'rab turgan g'ilof qiziydi. Bunda pichoqlar almashtiriladi. Qurilmaning ish unumдорлиги 120 ton/sut. MShV tipidagi shelushitel quyidagi kamchiliklarga ega:

- harakatni tasmali uzatma orqali uzatilishi;
- o'qda tayanch podshipniklarning yo'qligi;
- urug'ga pichoqlarning bir necha marotaba ta'sir etishi natijasida sheluxa moylanadi va moyning yo'qolishi ko'payadi.



21-rasm. MSHB tipidagi paxta chigitini chaqadigan gardishli guler:
1-qo'zg'aluvchi gardish; 2-korpus; 3 o'q; 4-pichoq; 5-qo'zg'almas gardish;
6-ostlovchi vint; 7-la'minlovchi shnek; 8-me'yorlagich.



22-rasm. Pichoqli goller:

1-ta'minlagich; 2-baraban; 3,6-pichoq; 4-o'q; 5-dek; 7-rostlovchi rishag;
8-pichoqli baraban; 9-ko.pus.

Ingichka tolali paxta chigitini maydalashda pichoqli gullerlash qurilmasi ishlatiladi. Bu qurilma 22-rasm ta'minlagich 1, pichoqli baraban 8 va 5 dekdan tashkil topgan. Ta'minlagich taram-taram yuzij baraban 2 dan tuzilgan bo'lib, uning vazifasi qurilmani bir xil me'yorda chigit bilan ta'minlashdan iborat.


Pichoqli baraban 4 o'qqa o'rnatilgan, barabangan vintlar yordamida butun aylanasi bo'ylab 21 dona uch qirrali 3 pichoqlar o'matilgan. Har qaysi pichoq olti tig'li bo'lib, qurilma ishlaganda ularning bittasi ishchi holatida bo'ladi. O'tmaslanish darajasiga qarab pichoqlarning tig'lari aylantirib, kesish mexanizmi yangilanib turiladi. Dek yarim doira shaklida bo'lib unga 10 donagacha 6 pichoqlar o'matilgan, bu pichoqlarning har biri sakkiz tig'li bo'lib ularni to'rt marotaba aylantirib qo'yish mumkin. Baraban bilan dekning orasidagi oraliq richag 7 yordamida rostlab turiladi. Bu o'z navbatida sheluxani mayda yoki yirik bo'lib chiqishini ta'minlaydi.

Pichoqli guller, diskali gullerga nisbatan chigitni yaxshi chaqadi, sheluxada moyning yo'qolishi kam bo'ladi, ammo qurilmaga begona (tosh, temir bo'laklari) moddalar aralashib tushib qolsa qurilma ishdan chiqadi, bu uning eng asosiy kamchiligi hisoblanadi.


Kungaboqar urug'ini chaqishda bir necha turdag'i qurilmalar ishlatilib kelinmoqda, ulardan darrali va markazdan qochma usulda ishlaydigan qurilmalar keng qo'llaniladi. Darrali MNR tipidagi 23-rasm qurilma uchta asosiy qismidan: ta'minlagich, darrali baraban va dekdan tashkil topgan. Cho'yandan yasalgan 3 dek korpusga biriktirilgan bo'lib, u 4 yo'naltiruvchi yordamida, 1 barabanga o'matilgan 16 ta darralar 2 ga yo'naltirib turiladi. Mexanizm 5 yordamida darralar bilan dek orasidagi oraliq rostlab turiladi, oraliq 8 dan 30 mm gacha bo'lib u urug'ning namligi va katta-kichikligiga bog'liq. Ta'minlovchi nova 6 va 7 valik orqali qurilmaga bir me'yorda xomashyo yuborib turiladi. Ta'minlagichdan tushayotgan urug'lar darralar bilan dekga uriladi, shunga po'chog'i chaqiladi. Darralarning urish kuchi va barabanning aylanish soni dek bilan darralarning yaqin uzoqligiga bog'liq. Bu qurilmaga urug' bir necha marotaba urilishi natijasida mag'izi va qobig'i maydalananib ketadi.

Markazdan qochma kuch asosida ishlaydigan kungaboqar urug'ini chaqish A1 MRTS 24-rasm qurilmasi, silindrsimon 1 korpus va unga biriktirilgan maydalangan rushanka chiqadigan 2 nova va novaga biriktirilgan 3 aspiratsiya trubasidan iborat. Korpusning yuqorigi qismiga 4 deka biriktirilgan bo'lib u ayanasimon bo'lib, aylanasi bo'ylab ikki qatorga 48 dona plastinka o'matilgan. Deka

balandligida korpus ichiga 8 o'qqa 7 rotor c'matilgan bo'lib rotorming o'qi 9 elektrovdvigatelga ulangan. Rotor 1200–1500 ayl/min tezlikda aylanadi. Rotor ikkita gorizontal garcishdan iborat bo'lib, uning ichida 16 ta tarnovlar bo'lib ularning balar dilig 32 mm ga teng.



23-rasm. Darrali MRN tipidagi urug'ni chaqish qurilmasi:
1-baraban; 2-darra; 3-dek; 4-yo'raltiruvch.; 5-rostlagich; 6-nova;
7-ta'minlagich; 8-korpus; 9-o'q.



24-rasm. Markazdan qochma A1-MRTS tipidagi urug'ni chaqish qurilmasi:
 1-korpus; 2-nova; 3-aspiratsiya trubasi; 4-dek; 5-qopqoq; 6-ta'minlovchi nova;
 7-rotor; 8-val; 9-elektrodvigatel.

Mana shu tarmovlardan 6 novadın tushgan urug' markazdan qochma kuch ta'sirida katta tezlikda harakatlañib dekaga borib uriladi va qobig'i chaqiladi. Qurilmaning ish unumidorligi 200 ton/sutkaga teng.

4.2. Maydalangan moyli urug'larni po'choq va mag'izga ajratish qurilmalari


Paxta chigit rushankasini ajratish ikki bosqichda: dastlabki sirpanuvchi qo'sh ramali elakda va oxirgi bitter-separatorda amalga oshiriladi. Dastlabki bosqichda tozalashda MXS tipidagi sirpanuvchi qo'sh ramali elak ishlataladi, bu qurilma chigitni tozalash quritmasiga nisbatan biroz konstruktiv o'zgartirishlar kritilgan: ustki elak ostiga ham ostki elak ostiga o'matilgandek yaxlit tunuka taglik o'matilgan: ustki elakli ramaning boshlanishida klapanli tuyruk bo'lib undan rushanka pastki ramaga tushadi; hujjat elakli ramaga turli o'chamdagagi beshtadan elak o'matilgan; birinchi bosqich ajratishda quyidagi raqamli elaklar qo'yiladi: 40, 50, 60, 70 va 80.

Qurilma quyidagi tartibda ishlaydi, gullerlash qurilmasida chaqilgan rushanka bir vaqtning o'zida yuqorigi va ostki elaklarga bir xil miqdorda tushadi, elaklar ustiga haraka tlanayotgan rushanka ikki fraksiyaga: qoldiq, sheluxa, mag'iz va butur chigit, elanma mag'iz va bir qism sheluxaga ajraladi.

Sirpanuvchi qo'sh ramali elakdan tushayotgan qoldiq tarkibidagi mag'izni ajratishni ikkinchi bosqichi bitter shopirgichda amalga oshiriladi. Bitter shopirgich 25-rasni rushankaga mexanik ta'sir etadi. Qurilma ikki qismidan tuzilgan bo'lib, birinchi qismida kesilgan urug'dan va sheluxdan mag'iz ajratiladi, ikkinchi qismida sheluxa va mag'iz ajratiladi. Qurilma ikkita silindrsirnon barabandan iborat bo'lib, bu barabanlar elaklar bilan o'ralgan. Baraban ichidan 2 val o'tgan bo'lib bu valga lopatka shaklidagi 3 darralar o'matilgan bo'lib, darralar o'qqa nisbatan 40° ga buralgan bo'lib ular rushankani baraban ichida harakatlanishini ta'minlaydi.

Barabanning birinchi qismida (№70), o'rta qismida (№60), oxirida (№50) raqamli elak bilan o'ralgani. Barabanning tagiga to'rsimon tunuka taglik 6 mahkamlangan. Qurilmaning bir tomoniga harakatlantiruvchi mexanizm o'matilgan. Bu mexanizm o'qining shkivi tasma yordamida harakatlarad. O'qqa ekssentrik o'q va

bugellar joylashtirilgan, to'r qoplangan tunuka rama 6 shular yordamida ilgarilanma-qaytarlanma harakatlanadi. O'qning orasida ikkita shkv bo'lib, ular tasma yordamida darralı barabanni aylantirib turadi. O'qning oxiridagi shkv o'z tasmasi, chervak va shestemya yordamida shopirgich barabanini aylantiradi, darralar bilan baraban bir-biriga qarama-qarshi aylanadi.




25-rasm. Bitter shopirgich:
1-baraban; 2-val; 3-darralar; 4-chervak; 5-g'ildirak; 6-taglik;
7-ekstrentik; 8-aspiratsiya trubasi.

Qurilma quyidagi tartibda ishlaydi. Qurilmaga tushayotgan rushanka ta'minlagich orqali teng miqdorda ikkita barabanga uzutiladi. Baraban ichiga tushgan rushanka darralarning zarbi ta'sirida mag'iz sheluxadan ajraladi. Mag'iz elanma holda elak ko'zlaridan o'tib ostki taglikka tushadi.

Sheluxa qoldiq holda baraban ichida qolib darralar yordamida ilgarilanma harakat qilib sheluxa tushadigan shnekga tushadi. Ostki elakli taglikka tushgan mag'iz tarkibidagi kichik sheluxalar elakda mag'izdan ajratilib, elanma holda maxsus tarnov yordamida qurilmadan chiqariladi.

Kungaboqar rushankasi tarkibiy qismlarga elash va havo oqimi yordamida mag'izni ajratadigan M1S-50 tipidagi 26-rasm aspiratsiya veyka qurilmasida ajratiladi. Bunday mashina ikki qismdan: elak 1 (sochib fraksiyalarga ajratish) va aspiratsiya kamerasida 8 dan tashkil topgan.

Mag'iz va po'choq aralashmasi aylanib harakat qiladigan elakda yetti xilga ajraidi, bularning olti xi i a ohida-alohida aspiratsiya kamerasiga, yettingchisi moyli chang mag'izga qo'shiladi. Rushankani oltita fraksiyaga ajratishdan maqsad qurilmaning aspiratsiya qismida qobig' va mag'izni yaxshi va oson ajralishini ta'minlash. Aspiratsiya kamerasida fraksiyalar mag'iz va qobiqqa ajraladi. Elak yog'och quti 2 dan iborat bo'lib, uzunligi bo'yicha ikki bo'lakka bo'lingan. Har qaysi bo'lakga uchtdan 3 elak qo'yilgan, elaklar 3° - 5° burchak ostida o'matilgan. Har bir qavat elakdan key n tuzlik o'matilgan bo'lib, u ajratilgan fraksiyani keyingi elakka yoki qurilmadan chiqarish uchun xizmat qiladi.



26-rasm. MIS-50 tipidagi aspiratsiya usulida ishlaydigan qurilma:
1-elak; 2-yog'och quti; 3-elak; 4>tagik; 5-ramz; 6-asgich; 7-tebratgich;
8-aspiratsiya qismi; 9-ta'minlagich; 10-noval; 11,12-cho'kirish kamerasi;
13-havo oqimini rostlagich; 14-ventilator.

Qurilmani aspiratsiya korpusi yog'och quti shaklida bo'lib, u oltitaga bo'lingan, kameraning ustki qismiga 9 ta'minlovchi o'matilgan bo'lib, undan pastga beshta 10 novalar o'matilgan bo'lib ular yordamida havo oqimi boshqariladi. Novalarni holati va uning alohida plastinkalari orasidagi oraliqni o'zgartirish orqali

rushankanining harakat tezligi boshqariladi, bu o'z navbatida qobiqning mag'izni yaxshi ajralishini ta'minlaydi. Nov ustiga tushgan rushanka sochilib ikkinchi novga o'tadi, shu vaqtida 14 ventilator tomonidan so'rib olinayotgan havo oqimiga duch kelib uning tarkibiga nisbatan yengil bo'lgan qobig'i havo oqim tomon harakatlanib og'irligi va o'lchami bo'yicha 11, 12 cho'ktirish kameralariga cho'kadi va qurilmadan chiqariladi. Shunday harakatlanishi natijasida rushanka tarkibida ajralgan mag'iz pastga tushib qurilmadan chiqariladi. Shunday qilib qurilmadan chiqayotgan mag'iz tarkibidagi qoldiq qobiq miqdori 1,6–3,0 %dan, qobiqning qoldiq moyliligi 0,5 %dan oshmasligi kerak. Qurilmaning ish unumдорлиgi 50–60 ton/sut ga teng.

Tayanch iboralar

Urug' qavat, mag'iz, qobiqni ajratish, rushanka, rushankani sifati, moyli urug'larni maydalash usullari, maydalanishda namlikni ta'siri, guller, MSHV tipidagi guller, darrali maydalash qurilmasi, pichoqli guller, rushankani ajratish, bitter-separator, sirpanuvchi qo'sh ramali elak, MIS-50 tipidagi shopirgich.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Moyli urug' larni maydalashdan maqsad va maydalash usullari.
2. Maydalash qurilmalariga qo'yiladigan talablar.
3. Paxta chigitini maydalash, gullerlash qurilmalar.
4. Kungaboqar urug'ini chaqish qurilmalari.
5. Maydalangan paxta chigitidan sheluxasini ajratish qurilmalari.
6. Kungaboqar rushankasini tarkibiy qismlarga ajratish qurilmalari.
7. Moyli urug' ning maydalanishiga namlikning ta'siri.
8. Moyli urug'larni maydalash usullari.
9. Paxta chigitini maydalashda ishlatiladigan gullerlash qurilmalini tuzilishi va ishlashini izohlang.
10. Kungaboqar urug'ini maydalashda ishlatiladigan darrali va markazdan qochma kuch asosida ishlaydigan qurilmalarni tuzilishi va ishlashini izohlang.
11. Sirpanuvchi qo'sh ramali elakda paxta chigiti rushankasini ajratish jarayonini tushuntiring va qurilmaning tuzilishini izohlang.
12. Barabanli bitter-separatori tuzilishi va ishlashini izohlang.
13. MIS-50 tipidagi shopirgichda kungaboqar rushankasini tarkibiy qismlarga ajratish jarayonini izohlang va tuzilishini tushuntiring.

5-bob. MOYLI URUG'NI, MAG'L'NI VA QAYTA ISHLASH MAHSULOTLARNI YANCHISH QURILMALARI

O'simlik moylari ishlab chiqarish jarayonlarida moyli urug', mag'iz yoki rushanka, forpresslangan va ekspellar pressidan olingan kunjara yanchiladi.

Urug'ni va mag'izni yanchish yoki ezishdan maqsad, ularni hujayra to'qimalarini buzish yoki deformatsiyalash (soya urug'ida) orqali undan moyni to'liq qisqa vaqtida ajralishi uchun sharoitni hosil qilishdir. Bundan tashqari, yanchish vactida sirt kattalashadi va buning natijasida namlash, qovur sh jarayonlarini bir tekis borishi ta'minlanadi.

Ikki marotaba presslash usulida moy olishda birinchi bosqich pressdan chiqqan kunjarani yanchishdan maqsad presslash vaqtida hosil bo'lgan ikkilamchi struktura ami buzish va kunjara mezgasini tayyorlashni osonlashtirish, forpressdan chiqqan kunjarani ezishdan maqsad ekstraksiyalash jarayoni uchun bir xil o'lchanli va shakldagi kunjara bo'laklarini hosil qilishdir.

Qovurish, ekstraksiyalash va shro' tarkibidagi erituvchini bug'latish jarayonlarini tezligi faqatgina xomashyoni o'rtacha yanchilishiga bog'liq bo'lmasdan, balki ularning shaklini bir xilligi ham ahamiyatga ega.

Moyli urug'ning va qayta ishlash mahsulotlarining yanchilishi ularni fizikaviy va mexanikaviy xususiyatlariiga bog'liq bo'lib, urug'ning murakkab anatomik tuzilgar ligi va uning turli qismlarini tashqi kuchlarga turlich ra'si sababli urug'ning yanchilish vaqtida buzilishi turlich bo'ladi.

Urug'ni va mag'izni yanchishda quyidagi usullar:

- urib yanchish;
- bosib yanchish;
- ishqalab yanchish;
- siqib yanchish qo'llaniladi.


Moyli xomashyolarni yuqoridagi usullarda yanchish uchun valikli valsovka qurilmalari ishlatiladi. Valsovkalar valiklarining joylashishiga ko'ra vertikal, gorizontal holdagi, valiklar soniga ko'ra ikki, to'rt va besh valikli bo'ladi.

5.1. Moyli urug'ni va mag'izni yanchish qurilmalari

Moyli xomashyolarni besh valikli valsovkalarda yanchilishi valiklarning og'irligi ta'sirida bosilib va valiklarni turlicha tezlikda aylanishi tufayli siqilish ta'sirida ro'y beradi. Gorizontal joylashgan ikki valikli valsovkalarni xomashyoni yanchilishi, valiklarning ikkalasi ham bir xil tezlikda aylanishi sababli siqilib yanchiladi, shu sababdan ham yanchilma yaproqsimon yassi bo'ladi. Moyli xomashyoni yuzasi taram-taram bo'lgan valiklarda yanchishda yanchilish mag'izni taram-taram sirtlarida kesilishi tufayli mag'iz yorilib yanchilma bo'lak-bo'lak holida bo'ladi.

Mag'izni valiklar orasidagi harakatini ko'rib chiqamiz, bunda valiklar gorizontal joylashgan, diametrleri bir xil, sirti silliq va bir xil chastota bilan aylanadi.

Valiklar orasiga tushgan zarracha 27-rasm, valiklar sirti bilan uchrashadi va o'z og'irligi bilan sirtiga tegib turgan nuqtasiga bosim bilan ta'sir etadi. Bu bosim valiklarni tegib turgan sirtini A va A₁, nuqtalariga R kuch bilan ta'sir etadi, ta'sir etayotgan kuch R yo'nalishi va valiklarni gorizontal o'qlari orasidagi burchak o'rabi oluvchi burchak deyiladi.



27-rasm. Valiklar orasidan zarrachani o'tish shartini tenglamasining chiqarish sxemasi.

Ta'sir etuvchi P kuch ikkita teng gorizontal tashkil etuvchiga $P \cos\alpha$ va vertikal tashkil etuvchiga $P \sin\alpha$ ajratiladi. Vertikal tashkil etuvchi kuch yuqoriga yo'nalgan bo'lib zarrachani yanchish zonasidan yuqoriga itarishga harakat qiladi, ammo bunga pastga tomon

yo'nalgan ishqalanish $F = fP$ kuchi qarshilik qilib, zarrachani yanchilish tomoniga tortadi. Zarrachari boshlanish momentida teng ta'sir etuvchi kuch quyidagi tenglarni orqali ifodalanadi:

$$2P \sin \alpha = 2fP \cos \alpha \quad (1)$$

Zarracha valiklar orasiga kirib ya 1chilishi uchun quyidagi shart bajarilishi talab etiladi:

$$2P \sin \alpha < 2fP \cos \alpha \quad (2)$$

bundan

$$f > \frac{\sin \alpha}{\cos \alpha} = \operatorname{tg} \alpha$$

chunki

$$f = \operatorname{tg} \alpha \quad (3)$$

Keyingi tenglamaga asosan, o'rabi oluvchi burchak ishqalanish burchagidan kichik bo'lishi kerak. O'rabi oluvchi burchakning qiymati yanchilayotgan zarrachani o'lcharalariga, valiklarning diametrlariga va ular orasidagi tizqishga bog'liq.

27-rasmga asosan valiklar markazlari orasidagi masofa:

$$D + \delta = D \cos \alpha + d \quad (4)$$

Bundan valiklarning minimal diametri (m):


$$D = \frac{d' - \delta}{1 - \cos \alpha} \quad (5)$$

Xomashyoni yanchilishi, yanchilish koeffitsiyenti bilan xarakterlanadi. Yanchilish koeffitsiyenti deb mag'izning boshlang'ich o'lchami d -ni, yanchilgandan keyingi o'lchami δ -ga nisbatiga aytildi va quyidagi ifodadan hisoblab topiladi:

$$k = \frac{d}{\delta}.$$

Mag'iz besh valli valsovorda bir tekis yanchiladi. Hozirgi vaqtida paxta chigitini mag'izini yanchishda VS-5 tipidagi valsovkaning konstruktiv tuzilish 28-rasmda, tuzilish sxemasi 29-rasmda

ko'rsatilgan. Valsovka 28-rasm I poydevor ramaga to'rtta 2 ustun mahkamlangan. Oldingi ustunlarning yuqorigi qismiga 3 ta'minlovchi bunker o'matilgan. Ta'minlovchi bunker ichiga ta'minlovchi 4 valik joylashtirilgan.




28-rasm. VS-5 tipidagi besh valikli stanok:

1-poydevor rama; 2-ustun; 3-ta'minlovchi bunker; 4-ta'minlovchi valik;
5-ishchi valiklar; 6-yo'naltiruvchi to'siq; 7-elektrovdvigatel; 8-uzatma.

Oldingi va orqa tomondagi ustunlar orasiga beshta ishchi 5 valiklar joylashtirilgan. Valiklar kulrang cho'yandan tayyorlangan va sirti oqartirilgan. Eng pastki valik faqat aylanadi, yuqorigi to'rtta valik esa aylanishidan tashqari (podshipniklar korpusining yo'naltiruvchi ustunlarida sirpanishi natijasida) yuqoriga va pastga bemalol surila oladi. Valiklar sirtini maxsus kurakchalar tozalab turadi. Valsovkaning yuqorigi ikkita valining sirti taram-taram novli bo'lib, pastki uch valning sirti tekisdir. Vallar bir-biriga bemalol tegib turadi, buning natijasida ular orasida yuqorigi vallarning og'irligiga teng bo'lgan o'zgarmas bosim hosil bo'ladi. Ta'minlovchi bunkerdan tushayotgan materialning miqdoriga qarab vallar orasidagi tirkish kengaytiriladi yoki toraytiriladi. Valsovka 7 elektrovdvigatel va 8 uzatma orqali harakatga keltiriladi. Elektrovdvigatel bilan uzatma alohida ramaga o'matilgan. Uzatmaning ikki juft shesternysi, bo'lib, ularning umumiyliz uzatma soni – 1:6,4; pastki valning aylanishi harakati uchinchi va to'rtinchchi vallarga yassi qayishlar orqali o'tadi. Shu bilan

birga pastki valning shkvilari uchinchi valning qavishlari, uning ustidan esa beshinchi valning qayishlari kiygizilgan bo'ladi. Birinchi, uchinchi va beshinchi vallar aylanishlarida friksion uzatma vositasida ikkinchi va to'rtinchchi vallarni ham av'laniради.



29-rasm. Besh valikli VS-5 yanchish qur'lmasining sxemasi:

1-elektrovdvigatel; 2-uzatma; 3-tasmali uzatma; 4-ustun; 5-ta minlovchi valik;
6-ostki tizanch; 7, 8, 9, 10-yo'naltiruvchi to'siqlar.

Mag'iz, chigit valsovkaning qabul qiluvchi bunkeriga to'xtovsiz kelib turadi, undan esa ta'minlovchi valik bilan shiber orasidagi sozlab turiladigan tirkishdan o'tib, yuqoriga yo'naltiruvchi shchitga bir me'yorda tushadi. Sirti taram-taram novli ustki ikkita val yo'naltiruvchi shchitdagi materialni ilib olib maydalaydi. Shu tariqa xomaki maydalangan material shchitga, undan esa uchinchi va to'rtinchchi vallar orasiga tushadi va hokazo. Shunday qilib material vallarning orasidan to'rt marta o'tadi, bunda vallarning bosimi 1000 kg dan 4000 kg gacha ortib boradi. Yanchilgan material (talqon) valsovkaning ostiga joylashgan bunkeriga yig'iladi, bunkerdan esa transportyorga tushadi.

Valsovka ishlayotganda:

a) maydalananavotgan materialning ta'minlovchi valik vordamida vallarning butun bo'yicha bir tekisda taqsimlanishi tekshirib turilishi lozim;

b) vallarning yopishib qolgan tilqondan kurakchalar vordamida doimo tozalanib turishi kuzatib borilishi lozim;

d) valsovkaning podshipniklari va uzatmalari qizib ketmasligi uchun ularning ahvolini kuzatib turish kerak;

e) vallarning sirti doimo tuzuk ahvolda bo'lishini tekshirib turish zarur. Agar valning taram-taram novlari yeyilsa yoki valning sirti g'adir-budir bo'lib qolsa, valni darhol olib sirtiga novlar o'yish yoki g'adir-budirlarini tekislash kerak;

f) vallarning taram-taram novlari bir-biriga tegmasligi shart, aks holda ikkala val ham siyqalanib qoladi.

Besh valli valsovorda maydalangan material qalinligi ko'pi bilan 0,1 mm keladigan mayda yassi talqon bilan mag'z uni aralashmasidan iborat bo'lishi shart; shu bilan birga ko'zining kattaligi 1 mm keladigan g'alvirda elanganda talqonning kamida 60 % g'alvirda o'tib ketishi kerak.

Valovka qurilmasining nazariy ish unumdorligi – bu vaqt birligi ichida vallar orasidagi tirkishdan o'tgan xomashyo miqdori. Valiklar tirkishidan o'tayotgan xomashyo yupqa keng lentaga o'xhash. Bu lentaning kengligi valikning uzunligiga, qalinligi valiklar orasidagi oraliqning kengligiga teng. Bu lenta valiklarning aylanma tezligiga teng tezlik bilan harakatlanadi, bu sharoitda qurilmaning ish unumdorligi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q = \frac{\pi \cdot n}{60} \cdot D \cdot L \cdot \delta \cdot \rho$$

bu yerda, Q – valikli stanokning ish unumdorligi, kg/sek, n – valiklarni aylanish chastotasi, ayl/min, D – valiklarni diametri, m, L – valikni uzunligi, m, δ – valiklar orasidagi oraliq, m, ρ – mahsulotni hajmiy og'irligi, kg/m.

O'zgartirishlardan so'ng

$$Q = 0,0523 \cdot D \cdot L \cdot n \cdot \delta \cdot \rho$$

tenglamani olamiz.

Bu tenglamada orttirilgan ish unumdorligi olinadi, chunki xomashyo tezligi valiklarning aylanish tezligidan kichik bo'ladi, lentaning qalinligi valikni uzunligi bo'yicha bir xil bo'lmaydi.


Shuning uchun ish unumdorlikni hisoblash tenglamasiga o'zgartiruvchi koefitsiyent C qo'yiladi, bu koefitsiyent yuqorida ko'rsatilgan ta'sirlami hisobga oladi va tenglama quyidagi ko'rinishda yoziladi:

$$Q = 0,0523 \cdot C \cdot D \cdot L \cdot n \cdot \delta \cdot \rho$$


Koeffitsiyent C mahsulotning turiga, yanchilish darajasiga va qurilmani konstruksiyasiga bog'liq.

5.2. Kunjaraoi maydalash qurilmalari

Kunjarani bo'laklarga bo'lish uchun bolg'ali va gardishli maydalash qurilmalari ishlataladi. Bu qurilmalar 30-31-rasmarda ko'rsatilgan. Bolg'ali drobilka 1 korpus, 2 qopqoq, mahsulot solinadigan nova 3, rostlagich 12 va ta'minlagich 11, rotor vali 4, unga o'rnatilgan gardish va gardishga 6 tutqichlar bilan biriktirilgan 7 bolg'alardan tashkil topgan. Qurilma ichida ikkitadek o'rnatilgan bo'lib, ulardan ustki 8 va 9 tishli, pastki 10 panjarali bo'lib, panjarani ko'zları 15-17 mm dan bo'lib, maydalar gan kunjarani o'tkazadi. Qurilmani ish unumdorligi 70-75 ton/su: ga teng.



30-rasm. Molotokli maydalag ch:
 1-korpus; 2-qopqoq; 3-nova; 4-val; 5-gardish; 6-tutqich; 7-bolg'a; 8,9-tishlar;
 10-panjara; 11-ta'minlagich; 12-rostlagich.



31-rasm. Gardishli maydalagich:

1-korpus; 2-qopqoq; 3-o'q; 4-podshipnik; 5-harakatlanuvchi gardish; 6-pichoqlar; 7-qo'zg'almas gardish; 8-nova; 9-mufta; 10-rostilovchi mexanizm.

Tayanch iboralar

Yanchish, yanchish usullari, yanchishga ta'sir etadigan faktorlar, yanchish mexanizmi, o'rab oluvchi burchak, valikli qurilmalar, valiklarni minimal diametri, VS-5 tipidagi valsovkanini tuzilishi va ishlashi, valsovkanini ish unumdonligi, o'zgartiruvchi koeffitsiyent.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Moyli xomashyolar va ularni qayta ishlash mahsulotlarini yanchishdan maqsad.
2. Yanchish usullari va bu qurilmalarga qo'yiladigan talablar.
3. Yanchish jarayonini mexanizmi.
4. VS-5 tipidagi besh valli valsovka qurilmasi.
5. Valsovkanini ish unumdonligi va uni hisoblash formulasasi.
6. Valsovka qurilmasi ishlashi uchun nimalarga e'tibor berish kerak.
7. Kunjarani maydalash, bolg'ali maydalash qurilmasi.

IKKINCHE QISM

PRESSLASH USULIDA MOY OLISH VA MOYNI BIRLAMCHI TOZALASH QURILMALARI

*6-bob. YANCHILGAN MAG'IZGA ISSIQLIK BILAN ISHLOV
BERISH QUEJLMALARI*

O'simlik moyiari ishlab chiqarishda qovurish jarayoni deganda urug'ni, mag'izni, rushankani, yanchilmani va kunjarani namlik – issiqlik bilan ishlov berish tushuniladi. Qovurishdan maqsad qayta ishlanayotgan moyli xomashyodan presslash yoki ekstraksiyalash usulida ko'p miqdorda va qisqa vaqtida moy olish uchun sharoit hosil qilish.

Xomashyoni presslash usulida moy olishga tayyorlashda qovurish pressda siqib moy olish uchun mezgaga optimal plastiklik xususiyatini hosil qilish va bu orqali mezgar i briketlanib kunjara hosil qilishini ta'minlash va moyni qovushqoqligini kamaytirib uni siqganda oquvchanligini oshirishdir.

Xomashyoni to'g'ridan-to'g'ri ekstraksiya usulida moy olishga tayyorlashda namlik-issiqlik bilan ishlov berish orqali plastiklik xususiyatini hosil qilib, yupqa, chidanili va g'ovak yassi struktura hosil qilish va bu orqali yaxshi ekstraksiyalanadigan va ekstraksiya vaqtida buzilmaydigan strukturani hosil qilishdir.

Qovurish vaqtida moyning tabiiy xususiyatlarini saqlab qoladigan, xomashyo tarkibidagi oqsil va boshqa fiziologik ahamiyatga ega bo'lgan moddalarni kam miqdorda denaturatsiyalanadigan va ba'zi bir moddalarni (parxa chigit, raps, soya va boshqalar tarkibidagi) aktivligini pasaytirish uchun kerakli sharoit hosil qilinadi.

Bizga ma'lumki, yanchilma tarkibidagi moy bog'langan holatida bo'lib, undan to'g'ridan-to'g'ri moy olish juda qiyin. Oson va ko'p miqdorda moy olish uchun yanchilma tarkibidagi moyni uni bog'lab turgan bog'lanishlurni uzish, molekular tortishish kuchlarini kamaytirish kerak. Buning uchun yanchilma namlab qovuriladi. Namlab qovurilgan mahsulotga mezga deb aytildi. Namlab qovurish vaqtida moyni bog'lab turgan bog'lanishlar uziladi, molekular

tortishish kuchlari kamayadi, yanchilma plastik bo'ladı, ba'zi bir moddalar biologik aktiv holağıdan passiv holatiga o'tadi.

Yanchilmaga namlik-issiqlik bilan ishlov berish jarayoni ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda yanchilma suv yoki suv bug'i yordamida kerakli namlikkacha namlanib isitiladi. Ikkinci bosqichda namlangan material qovurish orqali quritilib pishiriladi va mezga hosil qilinadi.

Yanchilmani namlash xomashyoni turi, boshlang'ich namligi va naviga ko'ra quyidagi usullarda:


- issiq yoki iliq suv bilan;
- bug' aralash suv bilan;
- to'yingan bug' bilan namlanadi.

6.1. Yanchilgan mag'izni namlash va isitish qurilmalari

Namlash hamda isitish bir va ikki shnekli namlash-isitish qurilmalarda amalga oshiriladi. Ikki shnekli namlash-isitish qurilmasi 32-rasm inaktivator ham deb aytildi. Uning afzalligi shundaki, uning devorlariga va o'qiga yanchilma yopishib qolmaydi, ishlatish va nazorat qilish oson. Inaktivator qo'shaloq ikkita 25 novadan va ularning 3 devoridan iborat bo'lib, nova ichiga ikkita 15 shnek va 7 o'q o'matilgan bu o'q 5 va 10 qisqichlar va 4 podshipnik orqali korpusga biriktirilgan. Qurilmaga o'tkir bug' yuborish uchun novalar ostiga 22 sachratgich 26 soplosi bilan o'matilgan. Bug' sachratgich burchak ostida qiya qilib o'matilgan bo'lib, bu uni tezkor ishlov berishni ta'minlaydi va tiqilib qolishni oldini oladi. Bug' sachratgichlar novalarning ikkala tomoniga ham o'matilgan bo'lib, ular 23 bug' yuborish trubasi bilan birlashtirilgan.

Inaktivatorni ustki qopqog'i 24 ga 2 nova o'rnatilgan bo'lib, undan boshlang'ich yanchilma qurilmaga tushadi. Qopqoqqa, ya'ni 1 tuynuk bo'lib u qurilmadagi ortiqcha bug'ni chiqarib yuborish uchun ishlatiladi. Qurilmaning oxirgi tomoniga novaga 7 nova o'matil-gan bo'lib, u ishlangan xomashyoni qurilmadan chiqarish uchun xizmat qiladi. Shnek o'qining mahsulot chiqadigan joyiga 8 kurak o'rnatilgan bo'lib, u mahsulotni bo'shatadi va kurakdan keyin o'qqa shnek o'rnatilgan bo'lib u mahsulotni tiqilib qolishiga yo'l qo'yaydi. Novalarni ostidan isitish uchun 6 bug' trubasi o'rnatilgan

bo'lib, unga bug' yuborish uchun 16 patrubka va kondensat chiqishi uchun 14 patrubka o'matilgan. Shnek aylanma harakatni 11 elektrodvigateldan 12 uzatma va 13 mufta orqali oladi. Ikkinci shnek harakatni birinchi shnedan 21 tishli uzatma orqali oladi. Shneklar bir-biriga qarama-qarshi harakatlanadi.



32-rasm. Shnekli namash-sitish qurilmasi:

1-ortiqcha bug' chiqadigan tuyut; 2-riyatiqa tushadigan nova; 3-devor; 4-podshipnik; 5,10-qisqich; 6-bug' trubasi; 7-myaka tushadigan nova; 8-qurak; 9-shnek o'rami; 11-elektrodvigatel'; 12-uzatma; 13-mufta; 14,16-patrubka; 15,17-shnek; 18-qopqoq; 19,20-o'q; 21-tishli g'ilairck; 22-sachragich; 23-bug' yuborish trubasi; 24-qopqoq; 25-shnek harakatlanadigan nova; 26-saplo.

6.2. Mag'izni qovurishi qurilmalari

Mezga tayyorlash shartlarini va qovurish jarayonini texnologik rejimlariga amal qilish uchun namlash-sitish va qovurish qurilmalari konstruktiv jihatidan quyidagi talablariga javob berishi kerak:

1. Xomashyonini harakatini uzlusiz tizm nash.
2. Ishlov berilayotgan yanchilmaga suvni bir tekis tarqatilishini ta'minlash.
3. Yanchilmani va mezgani yaxshilab bir tekis aralashtirish bir tekis qizishi uchun.
4. Bitta yoki ikkita pressga qovurish qozoni va namlash shnekini qulay qilib o'matish.


5. Aralashtirgichlarini aylanish sonini va qurilmaga berilayotgan va qurilmadan chiqarilayotgan mansuotning miqdorini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lishi.

6. Qovurish vaqtida mezganing haroratini va namligini avtomatik boshqarish.

7. Kam ishlab chiqarish maydonining egallashi, xizmat ko'rsatish uchun ta'mirlash va jarayonni borishini kuzatish uchun qulay bo'lishi kerak.

Qovurish qozonlari konstruktiv tuzilishi jihatidan uch turga: shnekli, barabanli va qasqonliga bo'linadi. Shnekli qovurish qurilmalari hozirgi vaqtida sanoatda qo'llanilmaydi.

Ba'zi bir turdag'i (MPE-1, MPE-2 va MP-21) shnekli presslash qurilmalari uchun maxsus barabanli qovurish qurilmalari konstruksiyalangan bo'lib bu qurilma bevosita pressga o'matiladi, ularning gabarit o'lchamlari qasqonli qovurish qurilmalariga nisbatan bir necha marotaba kichik. Lekin bu qurilmalarda mezga tarkibidagi namlik yetarli miqdorda bug'lanmaydi, yanchilmani baraban ichida bo'lishi vaqt qisqa; bu vaqt paxta chigit yanchilmasini qovurish uchun kamlik qiladi, chunki bu vaqtida gossipol bog'langan holatga o'tishga ulgurmaydi.




33-rasm. Barabani qovurish qurilmasi:
1-qovurish qozoni; 2-haroratlovchi baraban; 3-baraban; 4-bug' qavat; 5-o'q;
6-lentasimon aralash:rigich; 7-ta'minlovchi shnek; 8-zatvor; 9-nova.

Barabanli qovurish qurilmasi 33-rasm ikki qismdan qovurish qozoni 1 va haroratlantiruvchi qurilma 2 dan tashkil topgan.

Qovurish qozoni baraban 3 va ur'i o'rabi olgan 4 bug' qavat, haraban ichiga 5 o'q va o'qga ler tasimon 6 aralashtirgichlar o'matilgan. Barabanga uchta tuynuk bo'lib, ular orqali tabiy aspiratsiya ro'y beradi. Barabanning ustiga 7 ta'minlovchi shnek o'matilgan. Barabanning ostiga haroratlantiruvchi qurilma o'matilgan bo'lib, u silindr shaklida bo'lib bug' qavat bilan o'rabi olingan. Silindr ichiga lensimon aralashtirgich o'matilgan. Barabandan mezga silindrغا 8 zatvor orqali uzatiladi. Tayyor mezga pressga 9 nova orqali uzatiladi. Hozirgi vaqtida qasqonl qovurish qurilmalari barabanli qovurish qurilmalarini ishlab chiqarishdan siqib chiqardi.

Hozirgi vaqtida ishlab chiqarisida qasqonli qovurish qurilmalari keng tarqalgan bo'lib ularning 5, 6 va 7 qasqonllari ishlatiladi.



34-rasm. Qovurish qozonning qasqoni:


1-tubi; 2-silindrsimon devor; 3-bug' qavat; 4-tutgichlar; 5-o'q; 6-pichoq; 7-o'tkar bug' yuboriladigan truba; 8-kran.

Bu qozonlar isitish jihatidan ikki xil:

1. Faqat tagidan isitiladigar;
2. Ham tagidan, ham yon temor idan isitiladigan qozonlar bor.


Qasqonlar ikki xil materialdan qiyma cho'yandan va po'latdan payvandlab yasaladi. Qasqon 34-rasm ikki qismidan tubi 1 va silindrishimon 2 qismdan tashkil topgan bo'lib, uning diametri 2000–2200 mm va balandligi 430–650 mm ga teng.

Qasqonnini ostiga tuynuk bo'lib, bu tuynukdan mezga bir qasqondan ikkinchisiga o'tadi. Tuynukni ostiga bo'g'imli qopqoq 35a-rasm o'matilgan. Yanchilma qozonning har qaysi qasqoniga ma'lum bir vaqt bo'ladi. Ma'lum bir vaqt o'tgach tovar yuqoridagi qasqondan pastdagiga tushiriladi. Bunda bo'g'imli qopqoq ochiladi. Bo'g'imli qopqoq 1, o'q 2 ga o'matilgan bo'lib, unda erkin aylana oladi. Bo'g'imli qopqoqqa 3 qalqovchi shchit biriktirilgan bo'lib, u qasqon ichida turgan mezganing sirtiga tegib turadi. Qachonki qasqondagi mezga sathi belgilangan balandlikkacha ko'tarilganda, shchit ko'tarilib bo'g'imli qopqoqni o'qi atrofidan aylantirib qopqoqni yopadi. Qachonki, pastki qasqondaki mezganing sathi pasaysa, shchit ham pastga tushishi natijasida bo'g'imli qopqoq buralib, qopqoq ochiladi va ustki qasqondan pastki qasqonga mezga tusha boshlaydi va bu jarayon mezganing sathi belgilangan balandlikka yetguncha davom etadi.



35-rasm. Avtomatik o'tkazish klapanlari:
a-bo'g'imli o'tkazich; b-Link o'tkazich.

Link qopqog'ini ishlash prinsipi ham xuddi bo'g'imli qopqoqdek, lekin kenstruktiv tuzilishi tilan farq qiladi. Link qopqog'i tushayotgan tovar miqdorini bir xil miqdorda o'tkazadi.



36-rasm. J-6 tipidagi qovurish qozoni:

1-bug' qavati; 2-pichqoq; 3-sath ko'rsatgich; 4-qasqon; 5-o'tkir bug' yuboriladigan truba; 6-val; 7-sharnirli qopqoq; 8-kuchsiz bug' yuborish trubasi; 9-kondensat chiqadigan truba; 10-kuzatish luki; 11-mezga tushadigan nova; 12-nan una olish cho'ntaklari.

Qovurilayotgan mag'iz kuyib ketmasligi, bug' teng tarqalishi va mag'iz qatlami bir tekis bo'lishi uchun qasqonga uch qirrali pichoq 6 o'matilgan bo'lib, u vertikal o'q 5 ga boltiar bilan mahkamlangan. Bu pichoqlar uch qirrali bo'lib, qasqonning devoridan 5 mm, tagidan 2–3 mm masofada o'matiladi.

Olti qasqonli qovurish qozoni J-6 36-rasmida ko'rsatilgan. Bu qozonning qasqonlari ostidan bug' berib isitiladi. Qasqon 4 lar shunday joylashtirilganki, ustki qasqonning ostidagi chiqig'i pastki qasqonning o'yig'iga zich tushib turadi. Qasqon tubidan 5 atmosfera bosimga ega bo'lgan bug' berib isitishga mo'ljallangan.


Tovar birinchi qasqondan ikkinchi qasqonga bo'g'imli qopqoq orqali tushadi. Strelkali qalqovuch moslama 3 qasqondagi mezga sathini ko'rsatib turadi.

To'rta qasqonning yon devorlarida cho'ntak 12 bo'lib undan tekshirib ko'rish uchun tovar namunasi olinadi. Har qaysi qasqonni ichiga kirib ta'mirlash ishlarini bajarish uchun 10 darchalar o'matilgan. Pastki qasqonni yon tomonlariga ikkita 11 nova o'matilgan bo'lib tayyor mezga presslarga tushadi. Mezgani qurishidan hosil bo'lgan bug'larni atmosferaga chiqarish uchun so'rish trubasi o'matilgan bo'lib, u qasqonlar bilan patrubka orqali tutashtirilgan.

37–39-rasmlarda turli tipdag'i qovurish qozonlari ko'rsatilgan. Qovurish qozonlarini hisoblash uchun uch qismdan: konstruktiv, mexanik va issiqlik hisoblaridan iborat. Biz quyida qovurish qozonini issiqlik hisobi bilan tanishib chiqamiz. Issiqlik hisobini bijarishdan maqsad qovurish uchun zarur bo'lgan bug' miqdorini, qovurish qurilmasini isitish yuzasini aniqlash.


6.3. Qovurish qasqonining issiqlik hisobi

Qovurish uchun zarur bo'lgan bug' miqdorini aniqlash uchun issiqlik balansi tuziladi. Bunda issiqlik balansi alohida birinchi qasqon uchun va alohida boshqa qasqonlar uchun tuziladi. Quyida birinchi qasqon uchun issiqlik balansi tuzishni ko'rib chiqamiz.




37-rasm. Olti qasqor li qovurish qozoni:

1,6-qasqonlar; 7-val; 8-pichoq; 9-e'ktrodivigatel; 10-tashqi g'ilof;
11-mahsulot sathini ko'rsatgich; 12-mezga tushadigan nova.



38-rasm. Olti qasqonli qovurish qozoni:

1-korpus; 2-qasqondagi mezga sathini boshqaruvchi va mezgani o'tkazuvchi mechanizm; 3-alarashitiruvchi pichoq; 4-bo'shatish klapani; 5-boshqarish ruchkasi; 6-ta'minlagich; 7-val; 8-bug' trubasi; 9-tayanch; 10-qasqon.



39-rasm. J-68 tipidagi qo'urish qozoni:
1-bug' qavat; 2-qaszon; 3-qasqonni tubi; 4-uzat na; 5-qasqonlardagi bug'ni
chiqarish trubasi; 6-val; 7-pichoq; 8-qizqondag' mezga sathini ko'rsatuvchi
sath ko'rsatgich; 9-tayanch; 10-kon'lensat ajratgich.

Kirayotgan issiqlik (Dj. da):

- 1) mag'iz tarkibidagi moy bilan, Q₁;
- 2) mag'iz tarkibidagi namlik bilan, Q₂;
- 3) namlash vaqtida qo'shilgan namlik bilan, Q₃;
- 4) bug' bilan namlash vaqtidagi kirayotgan namlik bilan, Q₄;
- 5) qasqon ostidan kirayotgan bug' bilan, Q₅;
- 6) isitish qavatiga berilayotgan bug' bilan, Q₆.

Sarf bo'layotgan issiqlik (Dj. da):

- 1) mezga tarkibidagi moy bilan, Q₇;
- 2) mezga tarkibidagi namlik bilan, Q₈;
- 3) bug'lanayotgan namlik bilan, Q₉;
- 4) qasqondan chiqayotgan havo bilan, Q₁₀;
- 5) isitish qavatida kondensatsiyalangan bug' bilan, Q₁₁;
- 6) atrofga yo'qolayotgan issiqlik, Q₁₂.

Qasqonga kirayotgan issiqlik miqdorlari:

1. Mag'iz tarkibidagi moy bilan kirayotgan issiqlik:

$$Q_1 = mct_1$$

2. Mag'iz tarkibidagi namlik bilan kirayotgan issiqlik miqdori:

$$Q_2 = w_1 c_1 t_1$$

bu yerda, m —mag'iz tarkibidagi moy miqdori; c va c_1 —moyni va suvni issiqlik sig'imi; w_1 —mag'iz tarkibidagi namlik miqdori, kg; t_1 —mag'izning harorati.

3. Mag'izni namlash vaqtida namlik bilan kirayotgan issiqlik.

Mag'iz tarkibiga berilayotgan namlik miqdorini aniqlash uchun, mag'izni namlamasdan oldingi va namlangandan keyingi namliklarini bilish kerak. Mag'izga berilayotgan namlikning 30 % bug'lanadi, shu sababdan ham mag'izga hisoblanganidan 30 % ko'p namlik beriladi. Namlash uchun berilayotgan suv bug' yordamida beriladi, bunda bug' suvni 60–70°C gacha isitadi.

Suv bilan kirayotgan issiqlik miqdori,

$$Q_3 = 1,3 wct'_1$$

bu yerda, w —mag'izga yuboriladigan namlikning hisoblangan miqdori, kg, t'_1 —berilayotgan namlikning harorati.

4. Bug'latish vaqtida yuborilayotgan namlik bilan kirayotgan issiqlik.

Bug'latish vaqtida yuborilayotgan bug' miqdorini bilish uchun mag'izni bug'latishdan oldingi va keyingi namliklarini bilish kerak. Yuborilayotgan bug'ning bir qismini kondensatsiyadan aunosferaga havoga qo'shilib ketadi, shu sababdan berilayotgan bug'ning miqdori 50 % ko'p qilib olinadi. Shunga ko'ra,

$$Q_4 = 1,5 w_i$$

bu yerda, w -berilayotgan bug'ning hisoblangan miqdori, kg; i -berilayotgan bug'ning entalpiyasi, Dj/kg.

5. Qasqondagi harorat atrofdagi haroratdan bir necha barobar yuqori, shu sababdan ham qasqondan havo atrofga, atrofdagi havo qasqonga kiradi. Shunga ko'ra,

$$Q_5 = Lc_i t_1$$

bu yerda, L -qasqonga kirayotgan havo miqdori, kg, s -havoning issiqlik sig'imi Dj/kgK, t_1 -kirayotgan havoning harorati, $t=25-30^{\circ}C$.

6. Isitish uchun berilayotgan bug' bilan berilayotgan issiqlik:

$$Q_6 = Di$$

bu yerda, D -bug' miqdori, i -bug'ning entalpiyasi, Dj/kg.

Xuddi shunday sarf bo'layotgan issiqlik miqdori hisoblanadi.

1. Mezga tarkibidagi moy bilan sarf bo'layotgan issiqlik:

$$Q_7 = met_2$$

bunda, t_2 -qasqondan chiqayotgan mezganing harorati.

2. Mezga tarkibidagi namlik miqdori, bu mag'izning boshlang'ich namligi qo'shilgan namlash va bug'lash vaqtidagi namliklar. Shunga ko'ra,

$$Q_8 = (W_1 + W_6 + W_n) c_6 t_2$$

3. Bug'lanayotgan bug' bilan chiqayotgan issiqlik. Qozonning birinchi qasqonidan bug'lanayotgan bug' bu mag'izni namlash vaqtidagi va bug'lash vaqtidagi sarf bo'lgan issiqlik. Shunga ko'ra

$$Q_9 = (0.3w + 0.5) i_1$$

4. Atrofga chiqayotgan havo bilan chiqayotgan issiqlik:

$$Q_{10} = Lc_i t_2$$

5. Bug' qavatdagagi kondensat bilan chiqayotgan issiqlik miqdori:

$$Q_{11} = Lq$$

bunda, q - kondensatning issiqlik saqlashi, Dj/kg.

6. Issiqliknинг yo'qolishi:

$$Q_{12} = (0.01 - 0.05) Q_6$$

Har xil turdag'i moyli urug'ni yanch ilmasini qovurganda ularning bir tonnasiga turli miqdorda bug' sarf bo'ledi. Masalan, kungaboqar

uchun o'rtacha 175 kg, paxta chigit uchun 175 kg, zig'ir uchun 230 kg bug' sarf bo'ladi.

Tayanch iboralar

Namib-isilisi, qovurish, mezga, inaktivator, qo'shaloq shnek, plastiklik, struktura, konstruktiv talablar, barabanli qovurish qurilmasi, qasqonli qovurish qurilmasi, bo'g'imli klapan, link klapani, issiqlik hisobi, kirayotgan issiqlik, chiqayotgan issiqlik.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yanchilgan mag'izga namlik va issiqlik bilan ishlov berishdan maqsad.
2. Yanchilmani namlash qurilmalarining konstruksiyasi va ishlashi.
3. Qovurish qurilmalariga qo'yiladigan talablar va ularning guruhanishi.
4. Barabanli qovurish qurilmalarining konstruksiyasi va ishlashi.
5. Qasqonli qovurish qurilmalarining konstruksiyasi va ishlashi.
6. Qasqonli qovurish qurilmalarini issiqlik balansini hisoblash.
7. Qasqonli qovurish qurilmasida mezgani bir qasqondan ikkinchi qasqonga o'tishini tushuntirib bering.

7-bob. PRESSLASH USULIDA MOY OLISH QURILMALARI

Presslash usulida moyli xomashyolardan moy olish usuli eng qadimgi usuli bo'lib hozirgi vaqtida ham keng qo'llanilib kelinmoqda.

Presslash usulida moy olish jarayoni g'ovaksimon, sochiluvchan mezgadan siqib moyni ajratishga asoslangan. Hozirgi vaqtida presslash usulida moy olishda uzlusiz ishlaydigan turli konstruksiyadagi shnekli presslash qurilmalari qo'llaniladi.

Pressda siqilish jarayonini quyidagicha tushuntirish mumkin. Qovurish qasqondan pressning shnekli o'qiga tushgan mezga optimal namlikga ega bo'lib, unda zarrachalar orasida ma'lum bir bo'shliqlar bo'ladi. Shnekli o'q bilan harakatlanayotgan mezga zichlasha boshlaydi va zarrachalar o'zaro bir-biriga yaqinlashadi, buning natijasida mezga sirtidagi molekular kuchlar ta'sirida bog'lanib turgan moy ajralib chiqqa boshlaydi. Bosimning ortib borishi natijasida zarrachalaming o'zi ham deformatsiyalanib ulaming kapillarlaridan

moy ajrala boshlaydi. Shundan keyin bosimning ortishi zarrachaning gel qismini deformatsiyalanishiga va buning natijasida bir qism kapillarlarni ichidagi moyi bilan berkitilishiga olib keladi. Kapillarlar ichida berkilib qolgan va buzilmagan to'qinialardagi moy kunjaraning qoldiq moyini tashkil etadi. Pressda siqib moy olishda kunjarada qolgan moyning miqdori pressda hosi qilingan gidrodinamik bosimga, mezga qatlamining qalinligiga, mezganing g'ovakligiga va deformatsiyalanishiga, moyning qovushqoqligiga, siqilish vaqtiga, mezganing hajmina siqilishda kichrayish darajasiga va siqilayotgan moyning zichligiga bog'liq.

7.1. Presslash qurilmalari va ularni asosiy isbchi qismlari

Shnekli pressda diametri va o'ramlarni qadami turlicha bo'lgan shnekli val mezgani pressning zeyer bo'shlig'iga ezib kiritadi, zeyer bo'shlig'inining hajmi bir pog'onadan ikkinchi pog'onaga o'tgan sari kamayib boradi, tovarning hajmi uning pressga kirgan paytdan, chiqib ketgan paytigacha uch-to'rt marta karnayadi, chunki pressda zichlashadi va moyi siqib olinadi.

Shnekli presslarda tovardan moy chiqishiga sabab, uning sekinasta zichlashuvividir, uning zichlashuviga:

- a) zeyer bo'shlig'inining hajmi kamayishi va shnek o'ramlarining qadami kichrayishi;
- b) val aylanganda shnek o'ramlarining tovari siqishi;
- c) presslanayotgan tovarning zeyer silindri devorlariga ishqalanishi va tovar zarrachalarining o'zaro ist qalanishi;
- d) pressning kunjera chiqadigan oraliqning katta-kichikligini sozlab turadigan mexanizm (konus)ning qarshiligi sabab bo'ladi.

Shnekli presslash qurilmalari uchta guruhga bo'linadi:

- 1) boshlang'ich moyni ajratish presslar (forpresslar);
- 2) oxirigacha moyni ajratadigan presslar (ekspellerlar);
- 3) ikki marotaba ta'sir etib moyni ajratadigan presslar (boshlang'ich va oxirigacha moyni ajratish bitta qurilmada amalgaga oshiriladi).

Hamma turdag'i presslash qurilmalarining asosiy konstruktiv elementlari bu shnekli val, ta'minlagich, zeyerli silindr, kunjara qalinligini sozlovchi mexanizm.

Zeyer qabul qilish qismida shnekli valning o'ramini qadami eng katta bo'lib, bu o'ram presslash qurilmasini ish unumdotligini belgilaydi va qabul qiluvchi transportyor vazifasini bajarib mezgaga kuchsiz bosim bilan ta'sir etadi. Mezga kunjara chiqish tomoniga harakatlangan sari uning tarkibidagi moyning ajralishi va siqilishi natijasida uning hajmi kichrayib boradi, bunda bosimni oshirish uchun shnek o'ramlarining qadami kichrayib boradi. Bundan tashqari, turli konstruksiyadagi presslash qurilmalarida qo'shimcha bosim turli yo'llar bilan hosil qilinadi. Bosimni hosil qilinishiga ko'ra presslash qurilmalarini to'rtta tipga bo'lish mumkin 40-rasm.

1. Shnekli valli va zeyerli silindri bosqichli va rostlovchi konusli.

2. Shnekli valli va zeyerli silindri bosqichli va rostlovchi g'ildirakli.

3. Zeyeri to'g'ri silindrsimon va rostlovchi mexanizmi diafragmali.


4. Rostlovchi mexanizmi matritsa filtrli press granulatorlar.

Forpresslarning xarakterli ko'rsatkichlari: zeyerli silindri va shnekli valning tovar kiradigan qismidagi diametri 220–250 mm; shnekli valning aylanish chastotasi 18–26 ayl/min; pressdan chiqayotgan kunjaraning qalinligi 6–7 mm dan kam emas (ba'zida 9–12 mm). Ekspellerli presslarning xarakterli ko'rsatkichlari: zeyerli silindri va shnekli valning diametri 130–150 mm; shnekli valning aylanish chastotasi 6–18 ayl/min; pressdan chiqayotgan kunjaraning qalinligi 3–5 mm.


Shnekli pressning asosiy ishchi qismi bu shnekli val bo'lib, u o'q bosim hosil qiluvchi o'ramlar va oraliq g'ildiraklardan tashkil topgan. Bosqichli shnekli vallar asosan forpresslarda o'rnatiladi. Bosqichli shnekli val 41-rasm, u po'lat o'q 1, konusli mexanizm o'rnatiladigan vtulka 2, silindrsimon vtulka 4 va konussimon g'ildirak 5, uzatma o'ram 6, bosim beruvchi o'ram 7, konussimon va silindrsimon g'ildiraklar 8 dan tashkil topgan.

Shnekli perss ishlaganda siqilayotgan tovarning zeyerli silindr devorlariga va shnekli valning o'ramlariga ishqalanishi tufayli ko'p miqdorda issiqlik ajralib chiqadi. Shnekli valning bunday qizishi kunjarani qovurib yuboradi va ikkinchi tomonidan o'qning mustahkamligini kamaytiradi. Shu sababdan ham ba'zi bir shnekli presslash qurilmalarining o'qlarining ichi o'yiq, u suv bilan sovitiladi.

Shnekli pressning zeyerli silindrini ichiga shnekli val joylashtirilgan bo'lib u mezgani harakalantirib moyini ajratadi. Zeyerli silindr 42-rasm zeyerli plastinkalardan 4 yig'iladi.




40-rasm. Shnekli pressda bosim hosil qilish sxemasi.



41-rasm. FP pressining bosqichli shnekli vali:
1-o'q; 2-buraluvechi gayka; 3-konus'i mekanizm o'rnatiladigan vtulka;
4-silindrsimon vtulka; 5-konussimon g'ildirak; 6-uzatuvchi o'rama; 7-bosim
hosil qiluvchi o'rama; 8-silindrsimon va konussimon oraliq g'ildiraklar.

Zeyer o'rtasidan teng ikkiga bo'lingan bo'lib, ularni po'lat kojux biriktirib turadi. Bu kojux 6 boltlar bilan mahkamlanadi. Zeyering har ikkala bo'lagidagi vertikal o'rnatilgan 1 chaspaklar to'rt qirrali po'lat to'sinchalar bilan birikadi. Bu chaspak va to'sinchalarning o'rtasiga zeyering plastinkalari joylashtiriladi. Zeyer plastinkalari orasidagi tirqish ular orasiga kalibrilangan plastinkalar qo'yish yoki zeyerli plastinkaning bir yon tomoniga naxsus quymalar qo'yiladi. Bu oraliqdan ajralayotgan moy o'tishi lekin mag'iz zarrachalarini


o'tkazmasligi kerak. Zeyer plastinkalari shunday teriladiki. ular shnekli valning aylanishiga qarshi to'monga ma'lum bir qarshilik hosil qilishi uchun balandlik hosil qiladi. Zeyerning har ikkala yarmi birikkan joyida pichoq 7 o'matilgan. Bu pichoq mezgani kesib uni shnekli val bilan birga aylanishiga yo'l qo'ymaydi.



42-rasm. Shnekli pressning zeyerli barabanining qirqimi:
1-chaspak; 2-zeyer plastinkalari; 3-zichlashtiruvchi pora; 4-tortuvchi pora; 5-to'sin; 6-bolt; 7-shaklli pichoq; 8-shnekli val o'rnatiladigan kamera; 9-gayka.

Presslash qurilmalarida kunjarani qalinligini rostlab turuvchi mexanizm bo'lib, u pressda qo'shimcha bosim hosil qilishga yordam beradi. Hozirgi zarnon presslash qurilmalarida konusli, diafragmali, granulatsiyalaydigan matriksalar yordamida kunjara qalinligi rostlab turiladi.

Konussimon rostlovchi mexanizm 43-rasmda ko'rsatilgan bo'lib, shnekli valning o'qiga 1 vtulka o'matilgan bo'lib, u val bilan birlashtirilgan. Vtulkaga rezba o'yilgan bo'lib, bu rezbag'a 2 shturval o'matilgan 8 gayka harakatlanadi. Gayka vtulka 6 bilan birlashtirilgan bo'lib, bu vtulkaga 10 bolt yordamida rostlovchi konus 7 birlashtirilgan. Shturvalni burash yordamida konus yordamida belgilangan oraliq hosil qilinadi. Oraliqni o'zgartirish faqatgina press to'xtagan vaqtida amalga oshiriladi.



43-rasm. Konussimon rostlovchi mexanizm:

1-vtulka; 2-shturval; 3-qisqich; 4-stopir; 5-zichlagich; 6-vtulka; 7-rostlovchi konus; 8-gayka; 9-g'ilof; 10-bolt

Tayanch iboralar:

Konussimon mexanizm, shnekli val, zeyer silindri, bosim hosil qilish, mezganing zichlashuvi, shnekli presslarning konstruksiyasi, shnekli presslarning asosiy elementlari.

NAZORAT SAVOLI LARI

1. Presslash usulida moy olish to‘z’risida tushuncha.
2. Shnekli pressda moy olish jarayoni
3. Shnekli presslarning konstruksiyasi.
4. Shnekli presslash qurilmasining asosiy konstruktiv elementlari.
5. Shnekli pressda bosimni hosil qilish usullari.
6. Shnekli valning tuzilishi.
7. Zeyerli silindrni tuzilishi.
8. Shnekli presslash qurilmakuning guruhlanishi.
9. Shnekli presslash qurilrnalarda kunjarani qalinligini rostlovchi mexanizmn tuzilishi va ishlashini izohlang.

7.2. Bir qism va oxirigacha moy olishda qo'llaniladigan shnekli pressning qurilmalari

Shnekli FP markali Iorpress bir qism moyni ajratishos mo'ljallangan bo'lib, 44-rasm, u cho'yandan yasalgan 2 va 3 ustunlardan iborat. Chap tomondagi 2 ustunga 1 uzatma korpusi va 23 sirpanuvchi podshipniklarning korpusi mahkamlangan. O'ng tomondagi 10 ustunga 13 podshipniklarni saqlab turuvchi 12 kronshteyn o'rnatilgan. Ustunlarmi bir-biriga 8 tortuvchi bolt mahkamlab turadi.

Mezgani qabul qiluvchi 26 kamera, ta'minlagich vali 4, shnekli o'ram 3 va valga o'rnatilgan 5, 6 podshipniklardan iborat.

O'ramli shnek 27 ikki tomondan podshipniklarga tayangan bo'lib, uning umumiy uzunligi 2555 mm, ishchi qismining uzunligi 1545 mm ga teng bo'lib, u sakkizta o'ramdan, oraliq g'ildiraklardan va 17 konus mexanizmidan tashkil topgan, u harakatni 24 mufta orqali uzatmadan oladi.

Zeyerli silindr 28 ikkita yarim silindrlardan tashkil topgan, bu silindrlar to'rtta 7 to'sinlar bilan mahkamlangan. Zeyerli silindri uzunligi 1167,5 mm bo'lib, u to'rtta seksiyadan iborat. Zeyerli yarim silindrلarning biriktirish joylariga pichoqlar o'rnatilgan bo'lib, u presslanayotgan kunjarani aylanma harakatini to'xtatib turadi.

Kunjara qalinligini sozlovchi konusli mexanizm valga o'rnatilgan 14 vtulkadan iborat, bu vtulka 13 sirpanuvchi podshipniklarga tayanib turadi. Vtulkada 15 shтурval orqali 16 gayka harakatlanib u bilan birga 11 vtilka va 17 konus harakatlanib oraliq rostlanadi. Moy yig'gich 20, devor 22 va 21 setkadan tashkil topgan.

FP pressning texnik tavsisi:

| | |
|-----------------------------------------------------|-------|
| Unumdorligi, ton/sut | |
| paxta chigit uchun | 50-55 |
| kungaboqar urug'i uchun | 35-45 |
| Kunjaraning moyliligi, % | 20-12 |
| Shnekli valning aylanish chastotasi, ayl/min | 12-25 |
| Elektrosvigatelni quvvati, kVt | 8-20 |
| Gabarit o'lchamlari, mm | |
| uzunligi | 1563 |
| kengligi | 1400 |
| balandligi | 1950 |
| Og'irligi, kg | 4250 |

Ta'minlagich orqali tovar uzlaksiz pressga tushib turadi. Pressga tushgan mezga burama vintsimon o'ramlarni aylanishi natijasida ingerilanma aylanma harakat qiladi. Kunjara chiqishiga tomon shnek o'ramlarining qadamli kichrayib, diametri kattalashib boradi, uning natijasida mezga siqilib undan moy ajralib chiqadi va qattiq strukturali kunjara hosil bo'ladi. Ajralib chiqqan moy zeyerli silindr kolosniklari tirkishidan o'tib moy yig'gichga tushadi.


MP-68 pressi 45-rasm asosan 4 zeyerli kamera, 5 shnekli val, 7 kunjara qalinligini rostlovchi mexanizmi, zeyerli kamerani ochish va yig'ish mexanizmi l. 3 uzatmadan tashkil to'qgan.

Pressning stанинasi 6 truba va balkalar bilan ikkita baquvvat ustunga kavsharlangan. Ustunlarning yon tomoniga xomashyo tushadigan 2 kamera o'matilgan. Staninaga pressning boshqa mexanizmlari biriktirilgan.

Shnekli o'q 5 ikkita yuma cq podshipnikka o'matilgan va tayanib turishi uchun sharikli podshipniklar bilan ta'minlangan. Shnekli o'q to'qqizta o'ramli shnekdan, oraliq g'ildiraklardan va konusli mexanizmdan tashkil topgan. C'ramli shneklar o'zgaruvchan qadamli va turli tashqi diametrali.


Zeyerli kamera 4 ikkita alohida bir xil qismlardan tashkil topgan, har ikki bo'lagi alohida-alohida po'lat qayrilmalardan tuzilgan bo'lib, ular birqalikda zeyer yarim silindrinig karkasi va uning ichidagi zeyer panjarasini tashkil qiladi. Zeyer silindri panjarsi bilan bo'yи teng, uzunligi 273 mm dan bo'lgan to'rta seksiyaga ega. Zeyer silindri bo'yamasiga ochiladi. Yarim korpuslari chig'ir yordamida ochiladi va berkitiladi.

Pressning ta'minlovchi qismi aylanib turadigan trubka shaklida bo'lib, mezga uning devorlariga yopishib qolmasligi uchun qorgichlar bilan ta'minlangan. Pressdan chiqayctgan kunjaraning qalinligini rostlab turish uchun staniнаsiga maxsus mexanizm o'matilgan. Maxsus richag sistemani harakatga kel'tirib kunjaraning qalinligini rostlab turadi.



44-rasm. FP Fortress:

1-uzatma korpusi; 2-chap tayanch; 3-ta'minlovchi shnek; 4-ta'minlovchi shnekni vali; 5,6-sharsimon podshipniklar; 7-po'lat to'sinlar; 8-tortuvchi bolt; 9-zeyer g'ildiragi; 10-o'ng tayanch; 11,14-vtulka; 12-kronshteyn; 13-odshipnik; 15-shturval; 16-belgilovchi gayka; 17-konus; 18-tayanch; 19-patrubka; 20-moy yig'gich; 21-to'r; 22-to'siq; 23-podshipnik korpusi; 24,25-mufsta.



45-rasm. MP-68 pressi:

1-uzatma; 2-ta'minlagich; 3-zeyerni ajratish va yig'gich mexanizmi; 4-zeyer kamerasi; 5-shnekli val; 6-stanina; 7-kunjara qalinligini rostilovchi mexanizm.

MP-68 markali pressning texnik tavsisi:

| | |
|----------------------------------------|----------|
| Zeyermin uzunligi, mm | 1167 |
| Seksiyalar soni | 4 |
| Shnekli o'qning aylanish soni, ayl/min | 18;24;37 |
| Elektr dvigatelning quvvati, kVt | 28;36;40 |
| Ish unumdarligi; ton/sut | |

| | |
|--------------------------------------|-------|
| kungaboqar urug'ini qayta ishlaganda | 70 |
| pasta chigitini qayta ishlaganda | 70 |
| Kunjaraning moyiliigi, % | 11-18 |
| Gabarit o'lchamlari, mm | |
| uzunligi | 4870 |
| kengligi | 1570 |
| balandligi | 2095 |
| Og'irligi, kg | 5106 |


R3-MOA pressi 46-rasm, quyidaq'i asosiy qismlardan: stanina, shnekli val 28, zeyer kamerasi 27, moy yig'ish shneklari 15 va 18, mezga bilan ta'minlovchi shnek 10 konusli mexanizm 24 va uzatmadan tashkil topgan.

Ta'minlovchi shnek yordamida birlamchi siqilgan mezgadan pressga moy ajratiladi. Ajralgan moy zeyeming plastinkalari orasidagi tirqishlardan o'tib moy yig'ichga tushadi va moy yig'ichdan 15 va 16 shneklar orqali 17 patrubkadan loyqa ajratgichga uzatiladi. Kunjara 19 nova orqali tushib ekstraksiyalashga uzatiladi. Shnekli val o'qga o'matilgan o'nta shnekli o'ramdan, vtulkadun va 24 konusdan tashkil topgan. O'q 12 va 23 podshipniklarga tayaniq turadi.

Zeyer kamerasi ikkita yarim sili ndrcan iborat bo'lib, zeyerli plastinkalarni o'rnatish orqali hosil qilinadi, diametri butun uzunligi bo'ylab bir xil.

R3-MOA pressning texnik tavsisi:

| | |
|-----------------------------------------|------|
| Ish unumdorligi, ton/sut | 300 |
| Kunjaraning moyiliigi, % | 20 |
| Shnekli valning aylanish sooni, ayl/min | 75 |
| Zeyerli kameraning diametri, mm | 0,25 |
| Elektrodvigateli quvvat, kVt | 110 |
| Gabarit o'lchamlari, mm | |
| uzunligi | 5400 |
| kengligi | 1420 |
| balandligi | 1470 |
| Og'irligi, kg | 8200 |



46-rasm. R3-MOA tipidagi presslash agregati:

1,20-uzatma; 2,16-mufta; 3-elektrovdvigatel; 4-rama; 5-g'ilof; 6-vint; 7-korpus; 8-luk; 9-shturval; 10-shnek; 11-kolso; 12-sharsimon podshipnik; 13-yarim mufta; 14-yulduzchali g'ildirak; 15,18-moyni harakatlantiruvchi shnek; 17-tuynuk; 19-yo'naltiruvchi nova; 21-richag; 22-g'ilof; 23-sharsimon podshipniklar to'plami; 24-komus; 25-oboyma; 26-vtulka; 27-zeyer kamerasi; 28-val; 29-balka; 30-bugel; 31-tayanch; 32-zeyer; 32-zeyer plastinkasi; 33-ta'minlagich korpusi; 34-val; 35-strelka.

Press granulator G-24 moyli xomashyolardan dastlabki bir qism moyni ajratishga va granullatsiyalangan kunjara strukturasi shakllantirishga mo'ljallangan.

Presslanish jarayoni belgilangan shakldagi va o'lchamdag'i kunjara strukturasi hosil qilinadi, bunday struktura ekstraksiyalish jarayoniga va shrot tarkibidan erituvchini bug'latishda ijobjiy natijalarni beradi.

G-24 press 47-rasm, quyidagi asosiy qismlardan: ta'minlagich 4, zeyer 6, shnekli val 5, matritsa 8, uzatma 2, granullarni kesuvchi pichoqlar 9, pichoqlarni harakatga keltiruvchi uzatma 10, shkiv 1 va moy yig'gich 11 dan tashkil topgan.

Zeyerning uzunligi 1167 mm bo'lib u to'rtta seksiyadan iborat.

Shnekli valga o'n dona o'ramli shnek o'rnatilgan, oxirgi shnek 7 uchta o'ramdan iborat bo'lib, u kunjarani matritsaga berish uchun xizmat qiladi. Matritsaning teshiklarini diametri 6,5–7 mm bo'lib unda 234–296 dona teshiklar bor.


G-24 pressining texnik tafsifi:

| | |
|-----------------------------------|------------|
| Ish unumidorligi, ton/sut | 130 |
| Shnekli valning aylanish, ayl/min | 18; 24; 36 |
| Elektrodvigatelni quvvat, kVt | 32; 40; 48 |
| Kunjaraning moyliligi, % | 10 |
| Gabarit o'lchamlari, mm | |
| uzunligi | 3610 |
| kengligi | 960 |
| balandligi | 2000 |
| og'irligi, kg | 5770 |

ETP-20 presslash qurilmasi moyli xomashyolardan oxirigacha presslash usulida moy ajratishda ishlataladi. Bu qurilma 48-rasm, ta'minlagich 5, shnekli val 6, zeyer 7, kunjara qalinligini rostlovchi mexanizm 8, shnekli valni isituvchi va sovituvchi 9 sistema, uzatma 3, ta'minlagichni uzatmasi 4, elektrodvigatel 1 va 2 shkivdan tashkil topgan.


Ta'minlagich tik o'matilgan shnekdan iborat bo'lib, variator yordamida uning aylanish tezligini o'zgartirib turish mumkin. Agar pressda mezga ko'payib ketsa aylanish soni kamaytiriladi.

Pressning o'qi uzatmaga ulang'an. Shnekli o'qning yettita shnekli o'rami bor, agar bir yo'la moy olinadigan bo'lsa pressga qadami qisqartirilgan va gupchagi uzaytirilgan sakkizta o'ramli shnek o'matiladi.



47-rasm. G-24 tipidagi press-granulator:

1-shkiv; 2-uzatma; 3-ta'minlagichni uzatmasi; 4-ta'minlagich; 5-shnekli val; 6-zeyer; 7-uch o'ramli shnek; 8-natriva; 9-pichoq; 10-pichoqni harakatlantiruvchi mexanizm.



46-rasmin. R3-MOA tipidagi presslash agregati:

1,20-uzatma; 2,16-mufta; 3-elektrodvigatel; 4-rama; 5-g'ilof; 6-vint; 7-korpus; 8-luk; 9-shturval; 10-shnek; 11-kolso; 12-sharsimon podshipnik; 13-yarim mufta; 14-yulduzchali g'ildirak; 15,18-moyni harakatlantiruvchi shnek; 17-tuynuk; 19-yo'naltiruvchi nova; 21-richag; 22-g'ilof; 23-sharsimon podshipniklar to'plami; 24-konus; 25-oboyma; 26-vtulka; 27-zeyer kamerasi; 28-val; 29-balka; 30-bugel; 31-tayanch; 32-zeyer; 32-zeyer plastinkasi; 33-ta'minlagich korpusi; 34-val; 35-strelka.

Press granulator G-24 moyli xomashyolardan dastlabki bir qism moyni ajratishga va granullatsiyalangan kunjara strukturasi shakllantirishga mo'ljallangan.

Presslanish jarayoni belgilangan shakldagi va o'lchamdagি kunjara strukturasi hosil qilinadi, bunday struktura ekstraksiyalanish jarayoniga va shrot tarkibidan erituvchini bug'latishda ijobiy natijalarini beradi.

G-24 press 47-rasm, quyidagi asosiy qismlardan: ta'minlagich 4, zeyer 6, shnekli val 5, matritsa 8, uzatma 2, granullarni kesuvchi pichoqlar 9, pichoqlarni harakatga keltiruvchi uzatma 10, shkiv 1 va moy yig'gich 11 dan tashkil topgan.

Zeyeming uzunligi 1167 mm bo'lib u to'rtta seksiyadan iborat.

Shnekli valga o'n dona o'ramli shnek o'rnatilgan, oxirgi shnek 7 uchta o'ramdan iborat bo'lib, u kunjarani matritsaga berish uchun xizmat qiladi. Matritsaning teshiklarini diametri 6,5–7 mm bo'lib unda 234–296 dona teshiklar bor.


G-24 pressining texnik tavsisi:

| | |
|-----------------------------------|------------|
| Ish unumdorligi, ton/sut | 130 |
| Shnekli valning aylanish, ayl/min | 18; 24; 36 |
| Elektrosvigateli ni quvvati, kVt | 32; 40; 48 |
| Kunjaraning moyliligi, % | 10 |
| Gabarit o'lchamlari, mm | |
| uzunligi | 3610 |
| kengligi | 960 |
| balandligi | 2000 |
| og'irligi, kg | 5770 |


ETP-20 presslash qurilmasi moyli xcmashyolardan oxirigacha presslash usulida moy ajratishda ishlataladi. Bu qurilma 48-rasm, ta'minlagich 5, shnekli val 6, zeyer 7, kunjara qalinligini rostlovchi mexanizm 8, shnekli valni isituvchi va sovituvchi 9 sistema, uzatma 3, ta'minlagichni uzatmasi 4, elektrosvigatel 1 va 2 shkivdan tashkil topgan.

Ta'minlagich tik o'matilgan shnekdan iborat bo'lib, variator yordamida uning aylanish tezligini o'zgartirib turish mumkin. Agar pressda mezga ko'payib ketsa aylanish soni kamaytiriladi.

Pressning o'qi uzatmaga ulang'an. Shnekli o'qning yetti ta'minlagich o'rami bor, agar bir yo'la moy olinadiga bo'lsa pressga qadami qisqartirilgan va gupchagi uzaytirilgan sakkizta o'ramli shnek o'matiladi.



47-rasm. G-24 tipidagi press-granulator:
 1-shkiv; 2-uzatma; 3-ta'minlagichni uzatmasi; 4-ta'minlagich; 5-shnekli val;
 6-zeyer; 7-uch o'ramli shnek; 8-natriya; 9-pichoq; 10-pichoqni
 harakatlantiruvchi mexanizm.



48-rasm. ETP-20 tipidagi press:

1-elektrodivigatel; 2-shkiv; 3-uzatma; 4-ta'minlagichni uzatmasi;
5-ta'minlagich; 6-shnekli val; 7-zeyer; 8-kunjara qalinligini rostlovchi
mexanizm; 9-shnek valni isituvchi yoki sovituvchi sistema.

Pressni ishga tushirishda bug' bilan isitish va ishlab turganda suv bilan sovitib turish uchun maxsus moslama bor. Kunjarani qalinligini konusni siljitim orqali rostlab turiladi. Zeyerning ikkinchi va beshinchisi sekxiyalarining ichki diametri bir xil bo'ladi.


Pressni forpresslash yoki bir yo'la presslash uchun ishlatalishda uning detallari o'zgartiriladi. Uzatmaning uch juft tishli g'ildiragi almashtirilib uning soni 45 dan 180 gacha o'zgartiriladi. Shnekli o'qida forpresslash uchun 6 parrakli № 2, 3, 4, 5, 6, 7-raqamli shneklar bir yo'la presslash uchun yetti parrakli № 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8-raqamli shnekga almashtiriladi, undan tashqari, zeyerning pichoqlari ham almashtiriladi. Kolosniklar sekxiyasining orasidagi masofa ham o'zgartiriladi.

ETP-20 pressining texnik tavsifi:

| | |
|---------------------------------------|---------------|
| Zeyerning uzunligi, mm | 1550 |
| Zeyerdagи sekxiyalar soni | 5 |
| Shnekli valning aylanishlari, ayl/min | |
| forpresslash rejimida | 25; 28; 32 |
| bir marta presslash rejimida | 5; 6; 5; 8; 9 |
| Elektrodivigateli quvvati, kVt | 55 |
| Kunjaraning moyliligi, % | |
| forpresslash rejimida | 11 |


| | |
|-----------------------------------------------------------|-------|
| bir marta presslash rejimida ish unumidorligi, ton/sut | 7 |
| forpresslash rejimida | 70–80 |
| bir marta presslash rejimida | 30–40 |
| Gabarit o'lchamlari, mm | |
| uzunligi | 5200 |
| kengligi | 2520 |
| balandligi | 1150 |
| og'irligi, kg | 6100 |

MP-21 tipidagi presslash agregati mycli xomashyolardan ikki marotaba ta'sir ko'rsatib oxirigacha moy olishga mo'ljallangan bo'lib, 49-rasm, u barabanli qovurish qozoni 1, haroratlovchi qurilma 3 va ikki shnekli presslash qurilmalaridan 2 tarkib topgan. Qurilmada xomashyoni presslanishi vertikal 5 va gorizontal 6 zeyerlarda amalga oshadi.



49-rasm. MP-21 tipidagi press:

- 1-qovurish barabani; 2-lentasimon aralashtirgich; 3-ta'minlagich;
- 4-haroratlovchi shnekning ta'minlagichi; 5-haroratlovchi shnekning korpusi;
- 6-aralashtirgich; 7-ustun; 8-pressing staniynasi, 9,11-uzatma; 10-vertikal zeyer;
- 12-uzatma; 13,14-elektrovdvigatel; 15-gorizontal zeyer.



50-rasm. MP-21 tipidagi presslash aggregatining kinematik sxemasi.

Namligi 9–11 %, harorati $100\text{--}105^{\circ}\text{C}$ bo'lgan mezga 7 ta'minlagich orqali barabanli qovurish qozoniga 1 kelib tushadi. Bu yerda lopatkali aralashtirgich yordamida mezga aralashtirilib uzlusiz usulda haroratlovchi 3 qurilmaga uzatiladi va bu yerda harorat va namlik bo'yicha stabillashtiriladi.

Shundan keyin namligi 2,5–3,5 %, harorati $110\text{--}115^{\circ}\text{C}$ bo'lgan mezga 4 aralashtirgich yordamida pressning 5 vertikal zeyeriga uzatiladi va bu yerda mezgadan birlamchi moy ajratiladi. Bir qism moysizlantirilgan mezga pressning gorizontal zeyeriga 6 uzatiladi va bu yerda shnek val ta'sirida siqilib moy ajraladi va kunjara pressdan chiqadi.

MP-21 pressining texnik tavsisi:

| | |
|----------------------------------|---------|
| Ish unumdorligi, ton/sut | 24–26 |
| Shnekli valni aylanishi, ayl/min | |
| gorizontal val | 35 |
| vertikal val | 23 |
| Kunjaraning moyliligi, % | 6,5–7,0 |
| Gabarit o'lchamlari, mm | |

| | |
|---------------|-------|
| uzunligi | 8370 |
| kengligi | 2075 |
| balandligi | 6700 |
| og'irligi, kg | 12000 |

Tayanch ihoralar

Presslar, forpress, ekspeller, bir qism moy oladigan, oxirigacha moy oladigan, tuzilish konstruksiyasi, ishlashi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. FP markali forpressning tuzil sh va ishlashi.
2. MP-68 markali forpressning tuzilish va ishlashi.
3. R3-MOA markali forpressning tuzilish va ishlashi.
4. G-24 markali forpressning tuzilish va ishlashi.
5. ETP-20 markali ekspeller pressining tuzilish va ishlashi.
6. MP-21 markali ekspeller pressining tuzilish va ishlashi.

8-bob. PRESSLASH USULIDA OLINGAN MOYNI BIRLAMCHI TOZALASH

8.1. Moy tarkibidagi aralash moddalar va ularni tozalash usullari

Presslash usulida olingan moyni kirlanchi mexanik aralashmalaridan tozalash jarayoni suspenziyani ajratish jarayoni bo'lib, bunda moy qattiq zarrachalardan tozalaniladi. Moy tarkibidagi erimaydagan qattiq zarrachalar moyning sifatiga ta sir etib uni yomonlashtiradi. Tekshirishlardan shu narsa ma'lumki moy tarkibida qattiq zarrachalarning bo'lishi unda oksidalish, fermentativ va gidrolitik jarayonlarni tezlashtiriladi. Shu sababdan ham texnologik nuqtayi nazardan moyni birlamchi tozalash ikki masalani: sifatli moy olish uchun qattiq zarrachalardan ajratisi va ajratilgan qoldiq tarkibidagi oziqalik xususiyatga ega bo'lgan moddalardan unumli foydalanish hal etiladi. Pressdan ajralayotgan moy tarkibidagi qattiq zarrachalar miqdori moy miqdorini 2–10 %ni tashki etib uning tarkibida 33–38 % moy bo'ladi. Bu mahsulot qaytma mahsulot deyilib u yig'ilib qovurish


qozonining birinchi qasqoniga beriladi va yanchiima buan turgalikda qovurilib pressga tushadi.

Moyni birlamchi tozalash ikkita ketma-ket bosqichda: birinchi dastlabki tozalash, moy tarkibidagi og'irlik kuchi ta'sirida ajraladigan qattiq zarrachalardan ajratish, ikkinchi – mayda zarrachalardan ajratib, kerakli tozalikdagi moyni olish. Birlamchi tozalangan moy tarkibidagi qoldiq loyqa miqdori 0,2 %dan oshmasligi kerak.

Moyni birlamchi tozalash uchun quyidagi usullardan: tindirish, filtrlash va sentrafugalashdan foydalaniladi. Tindirish va sentrafugalashda dispers fazadagi zarrachalar, dispers muhitda harakatlanadi. Bunda qattiq zarrachalarning ajralishi og'irlik kuchi, markazdan ochma kuch, elektolitik va magnit maydoni ta'sirida ro'y beradi. Filtrlash usulida dispers muhit harakatlanadi, dispers fazadagi zarrachalar harakatlanmaydi.


Hozirgi vaqtida yog moy sanoatida moyni birlamchi tozalashning quyidagi sxemalari qo'llanilmoqda:

1. Mexanik loyqa ushlagichda tindirish va filtr pressda bir marotaba yoki ikki marotaba filtrlash 51-rasm.




51-rasm. Ikki bosqichda moyni birlamchi tozalash jarayonini texnologik sxemasi.

2. Mexanik loyqa ushlagichda tindirish. NOGSH-325 tipidagi sentrifugada qattiq zarrachalardan ajratish va filtrpressda filtrlash 52-rasm.



52-rasm. Uch bosqichda moyni birla nchi tozalash jarayonini texnologik sxemasi.


3. Mexanik loyqa ushlagichda tindirish. NOGSH-325 tipidagi sentrifugada qattiq zarrachalardan ajratish va separatororda tozalash 53-rasm.



53-rasm. FGDS filtri yordamida moyri birlamchi tozalash jarayonining texnologik sxemasi.

8.2. Moyni tindirib va filtrlab tozalash

Moy tarkibidagi mexanik zarrachalardan tozalashda ishlataladigan loyqa ushlagichning ishlashi-moy tarkibidagi zarrachalarini og'irlik kuchi ta'sirida cho'kishiga asoslangan. Bunda moy tarkibidagi katta zarrachalardan birlamchi tozalanadi. Hozirgi vaqtida sanoatda turli konstruksiyadagi loyqa ushlagichlar ishlatalib kelinmoqda. 54-rasmda qo'sh kamerali mexanizatsiyashtirilgan loyqa ushlagich ko'rsatilgan. Bu qurilma ichi ikkiga bo'lingan sig'im ko'rinishda bo'lib pressdan kelayotgan moy avval a bo'lagida, keyin b- bo'lagida tindiriladi. Pressdan kelayotgan moy loyqa ushlagichning 1 novasi orqali birinchi kameralaga tushadi.




54-rasm. Qo'sh kamerali loyqa ushlagich.

Kamera ichidagi 2 to'siq moyni kamera osti tornon yo'naltiradi, bunda bir qism tozalangan moy pressdan kelayotgan moy bilan aralashmaydi. Kamera ichidagi moy tarkibidagi kaita zarrachalar og'irlik kuchi ta'sirida loyqa ushlagichning ostiga cho'kadi va u yerda uzluksiz 5 zanjirga o'rnatilgan. 4 qorgichlar orqali b to'rli sathga olib chiqiladi. To'rli sathda loyqa tarkibidagi bir qism moy ajraladi va loyqa 3 shnek orqali qurilmadan chiqarilib qovurish qozoniga uzatiladi. Kamera ichidagi 7 to'siq skrepkali transpartyordagi loyqani transpartyor vertikal ko'tarilganida tushib ketishidan saqlaydi. Birinchi kamerali moy 15 tirkish orqali ikkinchi kameralaga o'tadi. 14 to'siq tozalangan moyni tozalanmagan moy bilan aralashishidan saqlaydi. Birinchi kameralidan o'tayotgan moy 16 lotok orqali kameraning ostki qismiga yo'naltirilgan. Kamera ostiga cho'kkani

loyqa 11 zanjirli transportvorga o'matil yan 10 qergichlar orqali tepaga ko'tarilib 13 g'alvirsimon setiga va undan keyin 12 po'latdan yasalgan yuzaga va undan 9 shneca kelib tushadi. Tozalangan moy qurilmadan chiqarildi. 8 va 18 patribkalar loyqa ushlagichdan moyni bo'shatish uchun xizmat qiladi. Bu quri maning ish unum dorligi 8–10 ton/soat, har bir kameraning ishchi sig'imi 2 metr, moyni qurilma ichida bo'lish vaqt 15–20 minut. Moyni tozalangarcha tarkibidagi qattiq zarrachalar miqdori 10 %gacha, tozalangan moy tarkibidagi qattiq zarrachalar miqdori 0,3–0,5 %.

Moy tindirgichda tindirilgandan so'ng tarkibidagi cho'kmay qolgan mayda zarrachalarni ajratish uchun filtrlanadi. Filtrlash qurilmasida filtrlovchi to'siq sifatida paxta, neylon yoki kapron ipidan ishlangan to'qimalar ishlataladi. 55-rasmda filtr pressning umumiy ko'rinishi korsatilgan. U plita va ramalardan tashkil topgan.



55-rasm. Filtr press.

Filtr plitalarning cheti qalin bo'lib, ular bir-biriga zinch taqab qo'yilganida, kamera hosil bo'ladi. Har qaysi plitaning teshigi bor, shu teshiklar o'zaro birlashib quvur tashkil qiladi. Tozalangan moy shu quvurdan nasos orqali haydaladi va kameraga kirib filtr to'siq orqali o'tib tozalanadi va moy to'plovchi iclishga yig'iladi.

Filtrlanayotgan moyning xarorati 55–60 °C dan past bo'lmasligi kerak, chunki sovuq moy yomon tozalanadi. Harorat bundan ham yuqori bo'lmasligi kerak, chunki issiq ik ta'sirida moy tarkibidagi rang beruvchi va oqsil moddalarini kuyib ketib, moyning sifatini buzadi. Quriq filtrlovchi materialning teshiklaridan moy bir tekis

o'tib olgach, to'siqning sathiga quyqa (shiam) qo'adi. Moyni filrlashda dastlab filtrlovchi materialning sathi filtrlovchi vazifasini bajargan bo'lsa, so'ngra to'siqda hosil bo'lgan quyqa qatlami filtrlovchi vazifasini bajaradi. Chunki mayda zarrachalardan tashkil topgan o'z navbatida filrlash xususiyatiga ega. To'siq sathidagi quyqa qalinlashib ketsa, orasidagi tirqishlar bekilib qolib filrlash jarayoni sekinlashadi va shundan keyin filtr to'siqning sathi tozalanadi.

Moy tarkibidagi mayda qattiq zarrachalarni ajratishning zamonaviy takomillashgan usuli bu markazdan qochma kuch ta'sirida cho'ktirish bo'lib, bu usulda ishlaydigan qurilmalarga sentrifuga va separatorlar deb aytildi.

Tayanch iboralar

Suspenziya, birlamchi tozalash, birlamchi tozalash usullari, mexanik loyqa ushlagich, tindirish, filrlash, filt press, qo'sh kamerali loyqa ushlagich, diskali filtr.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Moyni birlamchi tozalash.
2. Moyni birlamchi tozalash usullari.
3. Cho'ktirish usulida tozalash.
4. Filrlash usulida tozalash.
5. Birlamchi tozalashning texnologik sxemalari.
6. Cho'ktirish usullarining kamchiliklari.
7. Qo'sh kamerali loyqa ushlagich.
8. Filtr pressning afzaliklari.

UCHINCHI QISM EKSTRAKSIYALASH USULIDA MOY OLİSH QURILMALARI

9-bob. EKSTRAKSIYALASH QURILMALARI VA ULARNING TURLARI

Moyli xomashyolardan ekstraksiy়া usulida moy olishda asosiy texnologik qurilma bu ekstraktorlar hisoblanadi, ular turli belgilariga ko'ra guruhlanadi.

Ekstraksiyalanadigan xomashyo bilan erituvchini ta'sir etishi va ekstraksiyalash usuliga ko'ra ekstraksiyalash qurilmalari quyidagi uchta turga bo'linadi:

– ekstraksiyalanayotgan xomashyo erituvchiga botib turadigan hamda erituvchi va xomashyo bir-biriga qarama-qarshi harakatlanadigan ekstraktorlar;

– ekstraksiyalanayotgan xomashyoni erituvchi bilan ko'p bosqichli qarama-qarshi sug'orish usulida ishlaydigan ekstraktorlar;

– aralash usulida, ekstraksiyalashning birinchi bosqichida xomashyo konsentrangan mitsellaga botiriladi va ikkinchi bosqichda ko'p bosqichli sug'orish usulida mitsella va toza erituvchi bilan moysizlantirish usulida ishlaydigan ekstraktorlar.

Ishlash rejimiga ko'ra ekstraktorlar:

- uzuksiz ishlaydigan;
- yarim uzuksiz ishlaydigan;
- uzlukli ishlaydigan.

Ekstraksiyalanayotgan xomashyo va erituvchini harakat yo'nali shiga asosan:

- bir xil yo'nali shida;
- qarama-qarshi yo'nali shida harakatlanadigan.

Ekstraksiyalash jarayonini gid-odinamik xarakteriga asosan:

- ekstraksiyalanadigan xomashyo qo'zg'almasdan turadigan;
- ekstraksiyalanadigan xomashyo harakatlanadigan;
- ekstraksiyalanadigan xomashyo mavhum qaynash qatlamida turadigan qurilmalar.

Qurilmadagi bosimning holatiga asosan:

- atmosfera bosimida;
- vakuumda;
- atmosfera bosimidan katta bosimda ishlaydigan qurilmalar

Korpusining tuzilishiga asosan:

- kolonna tipidagi;
- kamera tipidagi;


Transport elementiga asosan:

- shnekli;
- kurakli;
- zanjirli;
- korzinali;
- kovushli;
- lentali;
- rotorli qurilmalar.

Qurilma korpusining joylashishiga asosan:

- gorizontal;
- vertikal;


Ekstraksiyalanayotgan xomashyo erituvchiga botib turadigan hamda erituvchi va xomashyo bir-biriga qarama-qarshi harakatlanadigan, kolonna tipidagi shnekli ND-1250M ekstraktor qurilmasida moy olish jarayonini texnologik sxemasi 56-rasmda ko'rsatilgan.



56-rasm. ND-1250 M ekstraktor qurilmasida ekstraksiya usulida moy olish jarayonini texnologik sxemasi:

1-ekstraktor; 2-toster; 3-nasos; 4-qizdirgich; 5-I-chi bosqich distilator;
6-II-chi bosqich distilator; 7-III-chi bosqich distilator; 8,9-kondensator; 10-filtr.

Qo'zg'almas qatlamda, ekstraksiya anayotgan xomashyoni erituvchi bilan ko'p bosqichli qarama-qarshi sug'orish usulida ishlaydigan, kamerali, lentali ekstraktor qurilmasida moy olish jarayonini texnologik sxemasi 57-St-rasnlarda ko'rsatilgan.




57-rasm. Lentli ekstraktor qurilmasida ekstraksiya usulida moy olish jarayonini texnologik sxemasi:

1-o'ramli transpartyor; 2-qopqoqli a'm.ningich; 3-qabul qilgich;

4-ekstraktor; 5-chiqarish qopqog'i; 6-o'ramli transpartyor; 7-toster;

8-kujavali transpartyor; 9-misella yig gich; 10-separator I-chi bosqich distilator; 11-sath boshqargich; 12-ekon mayzer; 13-avtomatik kran; 14-II-chi bosqich distilator; 15-qizdirgich; 16-separator; 17-qizdirgich; 18-III-chi bosqich distilator; 19-ho'l shrot ushlagich;




58-rasm. Karusel ekstraktor qurilmasida jarayonining texnologigi:

1-kunjara solinadigan bunker; 2-rek ekstraktor; 5-nasos; 6-nisellani birlamchi te yuboriladigan sig'im; 8-toster; 9-shrot t.agic yig'gich; 12-misella yuvgich; 13-filtr; 14-I-chi bosqich distilator; 16-II-chi bosqich distilator;

da
enzin
alohipida
Variator
bir marotaba
nishiga 133 sek;

9.1. Shnekli ekstraksiyalash qurilmalari

Bizning mamlakatimizda eng ko‘p ishlataladigan ekstraktorlar bu vertikal kolonna shaklidagi shnekli ekstraksiyalash qurilmalaridir. Bu ekstraktor xomashyoni erituvchiga botirib qo‘yish usulida ishlaydi. Bunday ekstraktorlardan ND-1000, ND-1250 va ND-1250 M ekstraktorlari hozirgi vaqtda sanoatda ishlatalmoqda. 1000 va 1250 sonlari ekstraksiyalash kolonnasining diametrini, M harfi takomillashtirilgan (qurilish) tipini ko‘rsatuvchi belgi hisoblanadi.



59-rasm. ND-1000 tipidagi shnekli ekstraktor:
1-yuklama kolonnasi;
2-gorizontal shnek;
3-ekstraksiyalash kolonnasi; 4-shnek; 5,11-zeyerli filtr;
6-salnik; 7-podshipnik;
8-yo‘naltiluvchi planka;
9-benzin yuboriladigan patrubka; 10-bo’shatish patrubkasi; 12-shrot tushirgich.

ND-1000 ekstraktori 59-rasm, a'sosiy uch qismidan: yuklash kolonnasi 1, gorizontal shnek 2 va ekstraksiyalash kolonnasi 3 dan tashkil topgan bo'lib, bu uchala qismi ham silindr shaklida bo'lib, uning diametri 1000 mm ni tashkil etadi. Yuklash kolonnasining balandligi 7,5 m va ekstraksiyalash kolonnasining balandligi 10 m ni tashkil etadi. Ekstraktor qismlari flaneslar yordamida o'zaro birlashtirilgan. Ekstraktor kolonnasi ichiga parraklari teshik-teshik bo'lgan 4 shnek joylashtirilgan. Farrik teshiklarini diametri 6-7,5 yoki 8 mm ni tashkil etadi, shnek parraklarining qadami 460 mm ga teng.

Ekstraktorming alohida qismlarining tuzilishini ko'rib chiqamiz. Yuklash kolonnasi balandligi turlicha bo'lgan beshta zvenodan tashkil topgan bo'lib, ular o'zaro flaneslar yordamida birlashtirilgan. Bu kolonnaning yuqorida ikkinchi zvenosiga sedilnik 5 o'matilgan, bu sedilnik mitsellani dastlabki marta filtrlab va ekstraktordan chiqarib yuboradi.

Sedilnik qirrasi bilan quyilgan metall plankalar yordamida birlashtirilgan ikkita temir halqadan iborat. Shu tariqa hosil qilingan silindr karkasining dumaloq temirdan yasalgan yettita belbog'i bor, bu belbog'larga ensiz tasma shaklidagi jez parchalari vertikal holatida o'ralgan. Jez tasmalarning ko'ndalang kesimi trapetsiya shaklida bo'lib, shtampalab tayyorlangan. Jez tas nalar yig'ilganda ular orasida tashqi tomondan 1 mm va ichki tomonidan 0,2 mm keladigan tirqish qoladi.

Sedilnik tashqi tomondan g'ilof bilan o'ralgan bo'lib uning oralig'idagi mitsella patrubkadan uzlusiz chiqib turadi. Sedilnik sirtini benzin bilan yuvib turish uchun maxsus benzin keladigan turba o'matilgan.

Kolonna ichiga 4 shnekli val o'rnatilgan bo'lib, u 15 ta o'ramdan iborat bo'lib u uzatna plitalariga o'rnatilgan sharikopodshipniklar yordamida osib qo'yilgan. Shnekli valning ikkinchi uchi 7 kristovinaga mahkamlangan. Shnekli valni kolonna ichidan chiqarish oson bo'lsin uchun u uch qismidan iborat bo'lib, ular musta yordamida birlashtirilgan. Kolonna qopqog'idagi salnikli zichlagich 6 benzin bug'lari ekstraktordan chiqishini oldini oladi. Shnekli val alohida uzatma yordamida variator orqali herakatga keltiriladi. Variator borligi uchun shnekli val uchta chaxtotada: a) valning bir marotaba aylanishiga 157 sek; b) valning bir marotiba aylanishiga 133 sek;

d) valning bir marotaba aylanishiga 118 sek vaqt sarf bo'ladi. Kolonnaga kunjara maxsus tuynukdan tushadi.

Gorizontal shnek. Ekstraktoring bir qismi ekstraksiyalash nayotgan materialni yuklash kolonnasidan ekstraksiyalash kolonnasiga uzatish uchun xizmat qiladi. Gorizontal va ekstraksiyalash kolonnasining shnekli valiga 8 yo'naltiruvchi plankalar mahkamlangan bo'lib, u shnek materialini o'zi bilan birga aylantirmasligi uchun xizmat qiladi. Gorizontal shnek alohida uzatma orqali 73 sekda bir marotaba aylanadi.

Ekstraksiyalash kolonnasi. Bu kolonna shnek orqali pastdan yuqoriga berilayotgan xomashyo tarkibidagi qolgan moyni oxirigacha ajratib olish uchun xizmat qiladi. Kolonna to'rt qismdan iborat bo'lib, ular flaneslar bilan o'zaro tutashtirilgan. Shnekli valga oltita planka biriktirilgan bo'lib, ular kunjarani shnek bilan birga aylanishini oldini oladi. Kolonnaga benzin ustki qopqoqdan 1600 mm pastdan to'rtta 9 patrubka orqali yuboriladi. Shunday qilib benzin yuboriladigan patrubka mitsella chiqadigan patrubkalardan 800 mm balandlikda joylashtirilgan.

Ekstraksiyalash kolonnasini shnekli vali 21 dona o'ramdan iborat bo'lib, valni harakatlantiruvchi uzatmaga yo'naltiruvchi podshipniklar orqali biriktirilgan, u 73 sekundda bir marotaba aylanadi.

Zarur hollarda ekstraktordagi mitsellani bo'shatish uchun ekstraksiya kolonnasining ostki qismiga 10 patrubka o'matilgan. Chiqayotgan mitsella toza chiqishi uchun sedilnik 11 o'matilgan, bu sedilnikni tozalab turish uchun shnekning oxirgi o'ramini uchiga charmdan tayyorlangan shyotka bo'lib u sedilnikni tigilib qolishini oldini oladi. Ekstraksiyalash kolonnasida ekstraksiyalangan material benzin beriladigan patrubka sathidan yuqoriga ko'tariladi, buning natijasida shrot tarkibidagi benzin sirqiydi va shrot bilan birga ketayotgan benzin iniqdori kamayadi. Shrot kolonna bo'ylab ko'tarilib borib maxsus tuynukdan chiqariladi, shrotni chiqishini osonlashtirish maqsadida valga 12 kurakli aralashtirigich o'matilgan bo'lib, bu kuraklar shrotni tashqariga chiqarib turadi. Kuraklar shnekli valning aylanishiga teskari tomonga 27 ayl/min tezlikda aylanib turadi. Kurakli shrotni chiqarish mexanizmi sxemasi 60-rasmda ko'rsatilgan.

Ekstraktoring nagruzkasi oshib ketganda yoki shnek o'ramlari orasiga har xil narsalar tigilib qolgan hollarda shnek vallarini buralib ketishiga yo'l qo'ymaslik uchun, ekstraktorni yurgizadigan uchala


uzatmaning har qaysisida avtoinatil signal beradigan kontakt moslamalar bor. Bu moslamalar quyidagicha ishlaydi: uzatmadagi yetakchi shesternya valini uchi yetuklar uvchi shesternya valiga diskli musta yordamida birlashtirilgan. Muftalarning tishlashishi berilgan nagruzkaga muvosiq siqiladigan spiral prujina vositasida sozlab turiladi. Shnekarning nagruzkasi oshib ketsa, musta disklari bir-biridan ajraladi va bitta disk ikkinchisidan uzoqlashayotganda yoritish tarmog'i kontaktlariga ulangan richagni harakatga keltiradi. Kontakt tutashganda ekstraktorni boshqarish pultidə haligi nagruzkasi oshib ketgan shnekning srenasi chalinadi va signal lampochkasi yonadi. Shnekning nagruzkasi nominal holda kelganda mustaning disklari birlashadi, kontakt ajraladi, lampochka uchadi va sirena to'xtaydi.

Ekstraktorni ishlashi quyidagicha amalga oshadi. Yuklash kolonnasiga tushgan kunjara shnek yorcarnida pastga gorizontal holatda joylashgan uzatuvchi shnekiga tomon siljiydi. Gorizontal shnek devorlaridagi plankalar kunjarani aylanishiga yo'l qo'ymaydi, uning oldinga, ekstraksiya kolonnasining vertikal shnekiga qarab siljishiga yordam beradi. Vertikal shnekning aylanishi va ekstraksiya qilinayotgan material yuqoriga tomon shrot chiqarib tashlanadigan teshikgacha ko'tariladi.

Ekstraksiya kolonnasiga nasos yordamida to'rtta sachratgich orqali yuborilgan benzin aparatuning hanina yo'lida materialga qo'shilib harakatlanib undagi moyni eritit mitsella holida sedilnik orqali ekstraktordan chiqib ketadi. Mitesellaga aralashib kelgan shrot zarrachalari sedilnikning zeyer devorchalarida ushlanib qoladi.

Sedilnik ekstraktoring eng muhim qismidir. Ekstraksiya jarayonini uzlusiz davom etishi sedilnikning yaxshi ishlashiga bog'liq. Masalan, sedilnikga shrot zarrachalari tiqilib qolsa, mitesella ekstraktordan normal oqib chiqsa olmaydi natijada toza eritgichni berishni to'xtatishga to'g'ri keladi, bu esa ekstraksiya jarayonini to'xtatilishi demakdir.

ND-1000 ekstraktorining ish unumdotligi 230 ton/sutka kunga-boqar urug'ini qayta ishlash quvvatiga ega bo'lib, bunda benzin sarfi 6 m/soatni tashkil etadi. Shunday ishlaganda jarayonning gidromodulii 1,45 shrotning goldiq moyliligi 1 %, mitesellani konsentratsiyasi 12 %ni tashkil etadi.



60-rasm. ND-1000 ekstraktorini shrotni chiqarish mexanizmi:
1-ekstraktor korpusi; 2-shnek; 3-shnekli val; 4-shrot chiqariladigan tuynuk;
5-lopatkali shrotni chiqargich; 6-vitulka; 7-uzatma.

ND-1000 eksotraktori bir qator afzalliklarga ega:

– konstruktiv tuzilishi oddiy;

– ish unumdarligi katta;

– kam xizmat ko'rsatuvchi ishchi kuchi talab etadi.

Shu bilan birga bir qator kamchiliklarga ham ega:

– juda ham beland, shu sababdan ham ekstraksiya bo'limi uchun to'rt qavatli bino qurish talab etiladi;

– mitsellani konsentratsiyasi kichik bo'lganligi sababli distillatsiyalashda ko'p bug' sarf bo'lad;


– ekstraktordan chiqayotgan mitse la tarkibida qattiq zarrachalar ko'p bo'lganligi sababli mitsellani tozalashda qiyinchiliklar bo'lishi;

– yuklash kolonnasining kunjara tushadigan novasining germetikligi yaxshi bo'lmaganligi uchun benzin bug'larini chiqishi sababli tez yonuvchi havo aralashmasini hosil bo'lishi va xizmat ko'rsatuvchi xodimlar uchun noqulay sanitarki muhitning hosil bo'lishi;

– shrot chiqadigan tuyrukdan ba'zi holatlarda benzinni chiqishi;

– benzinni to'liq ishlatilmaslig .

Vertikal shnekli eksotraktor NL-1250 61-rasm, konstruktiv tuzilish jihatidan aynan ND-1000 eksotraktordek, lekin ayrim qismlariga o'zgartirishlar kiritilgan, bu o'zgartirishlar quyidagilardan iborat:



61-rasm. ND-1250 tipidagi shnekli ekstraktor:

1-yuklash kolonnasi; 2-gorizontal shnek; 3-ekstraksiyalash kolonnasi; 4-shnek;
5-uzatma; 6, 7-mufta; 8-zichlagich; 9-tirgak podshipniklar; 10, 12-yo 'nal-
tiruvchi podshipnik; 11-krestovina; 13, 14-val; 15-parrak; 16-tishli g'ildirak;
17-zanjirli uzatma; 18-kronshteyn; 18a-yo 'naltiruvchi planka; 19, 25-zeyerli
filtr; 20-21-26-patrubka; 22-kunjara tushadigan nova; 23-luk; 24-shrot
chiqadigan nova.

1. Kolonnani diametri 1250 mm gacha kattalashtirilgan; bu kattalashtirish ekstraktorming sutkalik ish unumdorligini 320–340 tonna kungaboqar urug'ini qayta ishlash quv vatini ta'minlaydi.

2. Ekstraksiyalash kolonnaside ikkinchi sedilkani o'rnatilishi yuklash kolonnasidagi sedilka tiqilib qolganda mitsellani shrot bug'latgichga o'tib ketishini oldini oladi.

3. Yuklash kolonnasining bir necha joyidan bosimi 0,5–0,6 MPa bo'lgan benzin yuborish uchun patribkalar o'rnatilgan, bu ekstraktori yuvishda va tiqilib qolganca uni ochib turmasdan benzin yuborish orqali hal qilish imkonini beradi.

4. Ekstraksiyalash kolonnasining ostki tomonidan mitsellani retsirkullatsiya qilish yo'lga qo'yilgan, amma bu ekstraksiyalanish jarayonini tezligiga ta'sir etmaydi.

5. Kolonnalar ichidagi shnekli valning aylanish soni o'zgartirilgan. Yuklash kolonnasini shnekli vali variator yordamida bir marotaba aylanishiga 50 dan 240 sekundgacha, gorizontal shnekni bir marotaba aylanishiga 40 dan 87 sekundgacha va ekstraksiyalash kolonnasini shnekini bir marotaba aylanishiga 40 dan 158 sekundgacha vaqt sarf bo'ladi.

6. Ekstraktoring ish unumdorligi ortganligi tufayli sarf bo'ladigan benzin miqdori 8–11 m³/scatni tashkil etadi va buning natijasida ekstraktor 1,0 gidromodulda ishlaydi, shu sababdan mitsellani konsentratsiyasi ND-1000 ekstraktoriga nisbatan birmuncha yuqori.

ND-1250 ekstraktori ND-1000 ekstraktoriga nisbatan birmuncha yaxshi va takomillashtirilgan bo'sada, ya'zi bir kamchiliklardan xoli emas. Eng katta kamchiligi bu chiqayog'an mitsella tarkibida mayda qattiq zarrachalarning (1,5 %gacha) ko'pigi bo'lib, bu mitsellani tozalashda ko'p filtrlash qurilmalarini talab etadi, ko'p miqdorda shlam chiqadi va urii distillatsialashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Keyingi yillarda mitsella tarkibidagi qattiq zarrachalarni miqdorini kamaytirish maqsadida ND-1250 ekstraktorida takomillashtirish ishlari amalga oshirildi va yangi takomillashtirilgan ND-1250 M ekstraktori yaratildi. Buning uchun yuklash kolonnasidagi sedilka o'rniiga tindirgich (dekanator) o'matildi va buning natijasida mitsella ekstraktorga tushayotgan kunjara qatlaniib filrlanib o'tadi va tindirgichda tiniydi. Shu sababden ham mitsella tarkibida


kam miqdorda 0,25–0,4 % qattiq zarracha bo'ladi. ND-1250 M ekstraktorini umumiy ko'rinishi 62-rasmida ko'rsatiigan.

Ekstraktor tindirgichi 63-rasm, silindrsimon bo'lib, 1 konusli asosga ega. Konusning ostki qismida 2 flaneslar payvandlangan, shular yordamida tindirgich yuklash kolonnasiga o'rnatiladi. Tindirgichning ustki silindrsimon qismiga 3 qopqoq, bu qopqoqga 4 kuzatish oynasi va 5 qisqa silindr o'rnatilgan, bu silindr 6 qopqoq bilan mahkamlanganadi. Qopqoqning ichki tomoniga boltlar bilan diametri 800 mm va uzunligi 1180 mm bo'lgan 8 silindr mahkamlangan. Bu silindrning ostki qismiga 9 silindrsimon nasadka o'rnatilgan, u vertikal yo'nalishda 10 boshqarish bolti orqali harakatlantiriladi.

Nasadka 9 ni holatini o'zgarishi, mitsella o'tadigan yuzani o'zgartiradi va bu mitsellani tezligiga ta'sir etadi. Valga kurakli aralashtirgich 11 o'rnatilgan, u kolonnaga tushayotgan xomashyoni 8 silindr yuzasiga bir xilda tarqatadi va ta'minlovchi tuynuk orqali benzin bug'larini chiqib ketishini oldini oladi.


Ekstraktoring tindirgichi quyidagi tartibda ishlaydi. Ekstraktorga solingan xomashyo uni shnekli val olishiga qarab qurilma ichiga silindr dan to'sin shaklida tushib keladi. Yuklash kolonnasining pastidan yuqoriga ko'tarilayotgan mitsella bu xomashyo qavatidan o'tib tindirgichning kengayish qismiga o'tadi. Qurilmaning bu qismida mitsellani harakat tezligi sekin boradi, shu sababdan bu yerda mitsella tarkibidagi qattiq zarrachalar cho'kadi. Bir qism tinigan mitsella qurilmaning ustki qismidagi patrubkadan uzluxsiz chiqib turadi. Bu yerda mitsella xomashyo qavatidan o'tishi natijasida o'z-o'zidan filtrlanadi.

Ekstraktorda dekantatorning o'rnatilishi, ekstraktoring ekstraksiyalash kolonnasini 700 dan 2250 mm gacha baland bo'lishiga olib keldi va bu shrot tarkibidan ko'proq benzinni siqishiga zamin yaratadi va shrot tarkibidagi benzin miqdori kamayadi.



62-rasm ND-1250M tipidagi shnekli ekstraktor:

1-uzatma; 2-horizontal shnek; 3-yuklash kolonasi; 4-ekstraksiyalash kolonna;
5-shnek; 6-yo'naltiruvchi plastinka; 7-zon; 8-dekumtator; 9-kunjara tushadigan
nova; 10-shrot tushadigan nova; 11-pzirutka; 12-kuzatish oynasi; 13-luk;
14-lopatka; 15-mitsella chiqaridigan patrubka.



63-rasm. ND-1250 ekstraktorini dekantatori:
1-komussimon korpus; 2-flanes; 3, 4-kuzatish oynasi; 5-qisqa silindir; 7-vtulka;
8-silindr; 9-nasadka; 10-boshqarish bolta; 11-kurakli aralashtirgich.

Tayanch iboralar

Erituvchiga botib turadigan, sug'orish usulida, aralash usul, qarama-qarshi oqim, joylashishi, konsruksiyasi, transport elementi, dekantator, ND-1000, ND-1250, ND-1250 M.

NAZORAT SAVOLI.ARI

1. Ekstraksiyalash qurilmalarini gujuhlaniishi.
2. ND-1000 ekstraktorining konstruksiyasi.
3. ND-1250 va ND-1250 M ekstraktorlarining konstruksiyasi.
4. ND-1250 M ekstraktorining dekentatorini tuzilishi va ishlashi.
5. ND-1000 ekstraktorini shrotini chiqarish mexanizmini konstruksiyasini tushuntiring.
6. ND-1250 ekstraksiyalash qurilmasiga ND-1000 ekstraksiyalash qurilmasiga ko'ra qanday o'zgartirishlar kiritilgan.

9.2. Ko'p bosqichli sug'orish usulida ishlaydigan lentali, korzinali, rotorli ekstraksiyalash qurilmalari

Ko'p bosqichli sug'orish usulida ishlaydigan ekstraktorlarda ekstraksiyalanish jarayoni qarania-qursh yo'nalishda, erituvchi harakatlanadigan xomashyo (lentada, korzinada va rotor seksiyasida) qo'zg'almas qatlamda turadigan sharoitda boradi. Bu usulda ishlaydigan ekstraksiyalash qurilmalarining xarakterli tomoni konsentratsiyasi 20-35 % bo'lgan o'z-o'zidan filtrlangan mitsella olish. Bu qurilmalarda erituvchi xomashyor ing ustidan sachratgichlar yordamida sepiladi va u qatlardan o'tishi natijasida moyni eritib filtrlanib mitsella yig'gichga tushadi. Jarayonning birinchi bosqichi bu xomashyo ekstraksiyalanishiga kirgancagi bosqich hisoblanadi. Bu ekstraksiyalash qurilmalari ishchi qismining konstruksiyasiga ko'ra lentali, kovushli, korzinali, rotor karusel i tiplarga bo'linadi.

Lentali ekstraksiyalash qurilmalari keng tarqalgan, ularning xarakterli tomoni saqtagina lentaning ustki qismini ishlatilishi, xomashyonи lenta ustida qo'zg'almasdan turishi, mitsellani retsirkulatsiyasida chegaraning yo'qligi, qurilma hajmini foydali ishga (25 % gacha) kam qismini ishlatilishi.

Lentali «De-smet» (DS-70) ekstraktori 64-rasm, qurilmaning korpusi 13 parallelopipped shaklidə bo'lib, yaxlit po'latdan

tayyorlangan. Qurilmaning ustki qismidagi 5 yuldash bunkeriga 3 qopqoq orqali 2 transportyordan ekstraksiyalanadigan xomashyo tushadi. Yuldash bunkeriga 4 va 6 chegaralagichlar o'matilgan bo'lib, ular avtomatik ravishda ma'lum sathdagi xomashyo balandligini saqlab turib erituvchi bug'larini chiqib ketishini oldini oladi.

Ekstraktorming asosiy ishchi qismi gorizontal 42 transportyor bo'lib, u g'alvirsimon metall lentadan iborat. Lenta 25 va 37 yulduzchalarga o'matilgan, yulduzcha 38 o'qqa o'matilgan.

Lenta ikkita cheksiz parallel joylashgan 41 zanjirdan iborat, bu zanjirlar oralig'iga to'rsimon metall setka o'matilgan. Zanjirmi salqillanishini oldini olish uchun qo'shimcha 40 roliklar o'matilgan, bu roliklar 32 va 36 monoreislardan harakatlansadi.

Yetaklovchi yulduzcha 25 g'alvirsimon lentani harakatga keltiradi, bu yulduzchaning harakat tezligini o'zgartirish uchun variator o'matilgan. Harakat 19 elektrosvigatel orqali uzatiladi. Lentani harakatlantirishda xrapoviy mexanizm borligi sababli lenta to'xtab-to'xtab harakatlanadi.


Qabul qilish bunkerining ostki qismida lenta ustidagi ekstraksiyalayotgan materialni balandligini 0,8–1,4 m oraliqdagi balandlikda rostlab turish uchun shiber o'matilgan bo'lib, bu shiber 7 rostagich orqali boshqarilib turiladi.

Lenta harakatlanganda uning ustidagi material yon tomonlarga sochilib ketmasligi uchun korpus bo'ylab lentaning ikki tomoniga to'siqlar o'matilgan.

DS-70 ekstraktorida mitsellani retsirkulatsiyalanishi sakkiz bosqichli bo'lib, yangi xomashyonini konsentrangan mitsella bilan yuvish zonasasi, xomashyonini toza erituvchi bilan yuvish zonasasi va oxirgi bosqich xomashyodan erituvchini sirqitish zonasidan iborat.

Ekstraksiyalayotgan xomashyoning ustki qismida 12 sachratgichlar va 11 sug'orish qurilmalari o'matilgan bo'lib ular erituvchini ekstraktorming butun sathi bo'ylab bir xilda tarqalishini ta'minlaydi.

Lentaning ostiga sakkizta *b*, *v*, *g*, *d*, *e*, *j*, *z*, *i* mitsella yig'gich joylashtirilgan bo'lib, ularning har biri markazdan qochma 34 va 30 nasoslar orqali ta'minlangan, bu nasoslar o'z navbatida tegishli sachratgichlarga mitsellani yetkazib beradi.



64-rasm. Lentali DS-70 ekstraktori:

1-elektromagnitni separator; 2-lentali transpartyor; 3-yuklash tuyumi; 4-mahsulotni yugori sathini chegaralagich; 5-yuklash bunkeri; 6-mahsulotni pastki sathini chegaralagich; 7-mahsulotni balandligini rostagich; 8-tebramuvchi mitsella sachragich; 9-kuzatish cynasi; 10-qo'zg'atgich; 11-sug'orgich; 12-sachragich; 13-ekstraktor korpuvi; 14-toz erituvchi oqadigan truba; 15-avtomatik sifon; 16-benzin qizdirgich; 17-sarj o'lchagich; 18-vtoromatik suv ajratgich; 19-elektrosvigatel; 20-rotorli qo'zg'atgich; 21-o'shatish bunkeri; 22-bo'shatish sh'regi; 23-bo'shatish tuynugi; 24-shyotkali baraban; 25-yetaklovchi g'ildirak; 26-setkani mitsella bilan yuvuvchi truba; 27-mitsella yig'gich; 28, 30, 34-nasos; 29, 33, 35-aylanma mitsellani qizdirgich; 31-filtr; 32-ustki saqlovchi monorels; 36-pastki saqlovchi monorels; 37-yetaklovchi g'ildirak; 38-o'q'; 39-lik; 40-zanjirni tutuvchi rolik; 41-filtrlovchi setka; 42-setkali transpartyor. s-toza mahsulot; p-ekstraksiyalangan mahsulot; a, b, v, g, d, e, j, z, i, k, l-mitselli yig'gich.

Yuvish benzini a yig'gichga yig'ilaci. Yuvish mitsellasini va sig'imdag'i mitsellani yig'ish uchun k va l yig'gichlar ishlataladi.

Ekstraksiyalanayotgan xomashyoni ustki qismiga 10 qo'zg'atgichlar o'matilgan, u mitsella har doim bitta kanaldan oqib o'tmasligi uchun materialni qo'zg'ab turadi. Ekstraktoring ustki qismiga va yon tomoniga qurilma ishlini kuzatish uchun 9 va 39 kuzatish oynalari o'matilgan bo'lib, u ar tegishli yoritish chiroqlari bilan ta'minlangan.

Lentaning ostki qismini yuvish va tozalash uchun 26 sachratgich va 24 shyotka o'rnatilgan.

Lentani transpotyor 3 m/soatdan 12 m/soatgacha tezlikda harakatlanadi va bunda ekstraksiyalanishga 3,0 dan 5,75 soat vaqt ketadi.

Qurilma quyidagi tartibda ishlaydi; ekstraksiyalanadigan xomashyo 2 transpotyor orqali 1 magnitli separatordan o'tib 3 qopqoq orqali yuklash bunkeriga tushadi va u yerdan lentali transpotyorni ustiga tushadi hamda lentali transpotyor bilan birgalikda harakatlanadi va harakatlanishi bilan sachratgich orqali konsentrangan mitsella va keyinchalik konsentratsiyasi past bo'lган mitsella bilan yuviladi. Mitsellani material qatlamidan o'tishi natijasida u moyni ekstraksiyalaydi va mitsella yig'gichga yig'ilib u yerdan nasos yordamida yana yuvishga yuboriladi.

Tushirish bunkeri 21ga tushishidan oldin material 14 sachratgich orqali toza benzin bilan yuviladi. Moysizlantirilgan material 20 aralashtirgich orqali 21 bunkerga ag'dariladi va 22 shnek orqali 23 qopqoqdan bug'latish qurilmasiga chiqariladi. Yuvishga uzatilayotgan mitsella 29 va 33 qizdirgichlarda qizdiriladi.


Lentali MEZ ekstraktori 65-rasm, 1 korpusdan iborat bo'lib, korpusning ustki qismiga 3 yuklash bunkeri va uning ichiga 2 qopqoq joylashgan. Bunkering ostki qismiga 28 shiber o'matilgan bo'lib, u lenta ustidagi ekstraksiyalanadigan materialni balandligini 0,8–1,2 m oralig'ida boshqarib turadi. Bunker ichiga 29 va 30 sathni boshqarish qurilmalari o'matilgan bo'lib, ular yordamida bunkerdan erituvchi bug'lari chiqib ketmasligi uchun probka hosil qilib turiladi.

Gorizontal lentali transpotyor 7 ekstraktoring asosiy ishchi qismi bo'lib, transpotyor 5 va 6 yulduzchalarga o'matilgan. Harakatlantiruvchi 5 yulduzchaga variator va uzatma o'matilgan, ular orqali harakatga keltiriladi. Lenta ramka shaklidagi g'alvirsimon plastinkalardan tuzilgan bo'lib, u maxsus 8 setka yordamida tortilgan.

Lenta harakatlanguanda uni salqilanishini oldini olish uchun zanjirni har bir bo'limiga 9 roliklar o'matilgan, ular 10 monoreislarda harakatlanadi.

Variator yordamida lentali transpotyoring tezligi 2,5 dan 5,0 m/soatgacha o'zgartirilib turiladi. Xrapoviy mexanizm yordamida lenta to'xtab-to'xtab harakatlanadi. Lentali transpotyoring ikki yon tomoniga ekstraktoring butun uzunligi bo'ylab ekstraksiyalanayotgan

material yon tomonlarga to'kilib ketmasligi uchun maxsus setka o'matilgan. Lenta ustidagi xomashyoning ustiga ir xil miqdorda erituvchini yuborish uchun bosqichlar soni nechta bo'lsa ikki qatordan shuncha 12 sachratgich va 13 sug'orish mexanizmlari o'matilgan.



65-rasm. Lentali «MEZ» ekstraktori:

- 1-korpus;
- 2-zavtor;
- 3-qabul qiliш bуrkeri;
- 4-luk;
- 5, 6-tishli g'ildirak;
- 7-horizontal transpartyor;
- 8-o'q;
- 9-rolik;
- 10-monorels;
- 11, 19-mitsella yig'gich;
- 12, 13, 26-sachratgich;
- 14-toza bezin yuoriladigan patrubka;
- 15-transpartyorni yuvisht uchun mitsella sevxdigan trubka;
- 16-o'q;
- 17-bunker;
- 18, 22, 23-nasos;
- 20, 21, 24-qizdirgich;
- 25-ag'dargich;
- 27-sarf o'lchagich;
- 28-shiber;
- 29, 30-sath boshqargich;
- 31-ag'durgich;
- 32-shnek;
- 33-sifon;
- 34-elektrosvigatel;
- 35-iluminator;
- 36-zavtor;
- 37-ta'inirlash luki;
- 38-voronka;
- 39-kunjarani uzatadigan transpartyor;
- 40-elektromagnit.

Ekstraktorda mitsellani retsirkulatsiyasi uchun sakkizta bosqich bo'lib, bularning birinchisini zonasini xomashyo kiradigan joyda uni konsentrangan mitsella bilan yuvishtdan boshlanib, jarayonning oxirgi zonasida xomashyo toza erituvchi bilan yuviladi va oxirida ekstraksiyalanayotgan materialdan erituvchini sirqish zonalaridan

mitsella yig'gich 11 b, v, g, d, e, j, z, i joylashtirilgan bo'lib ularning har biri 18 a va 18 b nasoslar yordamida mitsella bilan ta'minlanadi. 11 a sig'im yuvish benzinini yig'ish uchun, 11 k va 1 yig'gich yuvish mitsellalarini va 11 i yig'gichdan kelayotgan mitsellalarini yig'ish uchun ishlataladi. Lenta ustidagi material 25 aralashtirgichlar yordamida qo'zg'atilib turiladi va buning natijasida uning o'tkazuvchanligi yaxshilanadi. Ekstraksiyalash jarayonini va sachratgichlarni ishlashini nazorat qilish uchun 35 kuzatish oynalari, ta'mirlash ishlarini bajarish uchun 4 luk o'matilgan.

MEZ ekstraktori quyidagi tartibda ishlaydi; ekstraksiyalanishga berilayotgan material transport orqali 40 magnitli separatordan o'tib, 3 qabul qilish bunkeriga kelib tushadi va undan lentali transportyorga beriladi. Mahsulot transportyor bilan birgalikda harakatlanadi va 12 sachratgichdan berilayotgan mitsella 13 sug'orgichdan tushib mahsulotni yuvadi va mitsella yig'gichga tushadi va u yerdan nasos yordamida yana sachratgichga beriladi va shu tariqa jarayon davom etadi.

Ekstraksiyalanayotgan xomashyo bo'shatish bunkeriga tushishidan oldin toza benzin bilan yuviladi va shundan keyin 31 kurak orqali 17 bo'shatish bunkeriga ag'dariladi. Bunkerdan 32 shnek yordamida 36 qopqoqdan shrot bug'latgichga beriladi. Ekstraksiyalanish jarayonida erituvchi qarama-qarshi yo'nalishda harakatlanadi, bunda mitsella 11 a yig'gichdan 11 b yig'gichga, 11 b yig'gichdan 11 v yig'gichga o'z-o'zidan o'tadi. Oxirida konsentrangan mitsella 11 k yig'gichga yig'iladi va uning ostidan olinib ekstraktordan chiqariladi.

Mitsella retsirkulatsiya vaqtida 20 qizdirgichda qizdiriladi.

Lentali transportyorni yuvishdan hosil bo'lgan mitsella 19 yig'gichga yig'iladi va 22, 23 nasoslar yordamida 24 qizdirgichga qizdirilib 26 tebranma sachratgichga uzatiladi va xomashyo qatlamanidan o'tib filtranadi.


Lentali ekstraksiyalash qurilmasining ish unumдорлиги ekstraksiyalanayotgan xomashyo miqdoriga nisbatan quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$G = 24 \text{ bhv ton/sutka},$$

bu yerda, b – ekstraksiyalanayotgan xomashyo qatlaminining kengligi, m , h – xomashyo qatlaminining balandligi, m , v – lentaning harakat

tezligi, m/soat, 24 yoki G – ekstraksiya anayotgan xoinashyoni hajmiy og’irligi, ton/m.

Rotor karuselli «Ekstexnik» ekstraktori. Bu ekstraktor kamerali qarama-qarshi yo’nalishda, ko’p bosqichli sug’orish usulida ishlaydigan ekstraktorlar guruhiga kirdi. Ular bir va ikki pog’onali qilib yasaladi. Bir pog’onali «Ekstexnik» ekstraktori 66-rasm qurilmasi korpus, rotor, g’alvirsimon tub, mitsella yig’gich, yuklash va tushirish mexanizmlari va uzatr adan tarkib topgan.



66-rasm. Bir pog’onali karuselli «Ekstexnik» ekstraktori:
 a-umumiyo ko’rinishi; b-ekstraktorni kamerasini sxemasi; v-tirqishli tubi; g-rotoring kuraklarini tirqishsimon tibga nisbatan joylashishi.
 1-yaxlit tubi; 2-mitsella yig’gich; 3-to’siqiar; 4-tirqishsimon tub; 5-tashqi devor; 6-to’siqilar; 7-korpus; 8-ichki devor; 9-1-t-nasoslar; 15-plastinka; 16-otarishni 17-sizni 18-nasosini.


Ekstraktoring asosi silindrsimon, po'lat gaz o'tkazmaydigan 7 korpus hisoblanadi. Ekstraktoring rotori sekin aylanma harakat qiladigan 5 tashqi va 8 ichki silindrsimon devorlardan iborat bo'lib, uning ichi 6 to'siqlar yordamida 24 ta kameraga bo'lingan. To'siqlar yoki rotorni kuraklari 6, kamerani devorlari bo'lib, ular pastga tomon ingichkalashgan 67-rasm, bunday ingichkalashishi ekstraksiyalana-yotgan materialni tushirishda uni kamera devorlariga yopishib qolishini oldini oladi.

Ekstraktoring tirqishsimon tubi 4 qo'zg'almas bo'lib, u tubni gorizontal yo'nalishda ustki va ostki qismlarga ajratadi. Tirqishsimon tubi trapetsiya shaklidagi 3 v-rasm metall o'ramidan tayyorlangan bo'lib, bu o'ram 16 sterjen atrofidan 360° ga aylantirib 3 g-rasm biriktiriladi. Bunda har ikkita o'ram ostida 18 tirqish hosil bo'ladi, bu tirqishning ustki qismini o'lchami 0,8 mm va ostki qismi 1,5 mm ga teng.

Rotor kuraklarining ostki uchiga bolt yordamida 15 plastinka mahkamlangan bo'lib, u harakatlanadigan kurak va harakatlanmaydigan tirqishsimon tub orasida 2-3 mm li oraliq hosil qiladi va bu plastinkalar tirqishlarni berkitilib qolishini oldini oladi.

Tirqishsimon tubning mahsulotni crituvchi bilan sug'orish to'xtatiladigan va erituvchi o'z-o'zidan to'liq oqib bo'ladigan qismida sektorli bo'shliq bo'lib, shu bo'shliqdan moysizlantirilgan mahsulot shrot ekstraktordan chiqariladi. Kameradan shrot bo'shatilgandan keyin, kamera tuynukdan o'tishi bilan kameraga yangidan mahsulot solinadi.

Ekstraktoring ostki qismi, tirqishsimon qismidan keyin 3 vertikal to'siqlar bilan ajratilgan bo'lib, bu to'siqlar mitsellani to'planish kameralarini 2 hosil qiladi. Kameraning tubi tashqi devorga tomon 12 qiya bo'lib, qiyalik tomonlarga mitsella chiqadigan patrubkalar o'rmatilgan. Mitsellani retsirkulatsiyalash uchun nasos 10 kuchsiz konsentratsiyali mitsellani, 9 va 14 nasoslar o'rtacha, 13 nasos konsentrlangan va 12 nasos mitsellani qurilmadan chiqarish uchun ishlatiladi. Qurilmaga toza erituvchi 11 nasos orqali uzatiladi. Mitsella yig'gichni ajratuvchi to'siqlarda tuynuklar bo'lib, bu tuynuklar orqali mitsella bir kameradan ikkinchi kameraga o'tib ekstraksiyalanayotgan material harakatiga qarama-qarshi tomonga harakatlanib qarama-qarshi yo'nalishni hosil qiladi, 67-rasm.



67-rasm. Karuselli ekstraktorda ekstraksiyal nayotgan xomashyo va mitsellaning harakatlari shemasi.

Bir pog'onali «Ekstexnik» ekstraktori 1500–2000 markada ishlab chiqarilib, uning gabarit o'lchamlari quyidagicha: diametri 16440 mm va balandligi 8500 mm. Ish umumdarligi 1200 ton/sut.

Tayanch iborular

Ko'p bosqichli sug'orish usuli, lentali, korzinali, karuselli, ikki yarusli, gidromodul, bir pog'onali, mitsela, shrot.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ko'p bosqichli sug'orish usulida ishlaydigan ekstraksiyalash qurilmalarining gruppalanishi.
2. Lentali «De-smet» (DS-70) ekstraktorini tuzilishi va ishlashi.
3. Lentali «MEZ» ekstraktorini tuzilishi va ishlashi.
4. Rotor karuselli «Ekstexnik» ekstraktorini tuzilishi va ishlashi.

10-bob. MITSELLAGA ISHLOV BERISH QURILMALARI

10.1. Mitsellani filtrlash qurilmalari

Moy saqlovchi xomashyodan ekstraksiyalab olingen mitsella o'z tarkibida yengil uchuvchan erituvchi, moy va kunjara quyqalarining muallaq holda aralashib, suspenziya holatida turgan aralashmadan iborat.

Mitsellani ishlashdan maqsad, uning tarkibidagi qattiq modda zarrachalaridan ajratib uni moy va erituvchiga ajratishdir. Qattiq modda zarrachalari filrlash orqali ajratiladi.

Mitsella tarkibidagi erigan moddalar distillatsiyalash vaqtida mitsella tarkibidagi qattiq zarrachalar bilan o'zaro ta'sirlashib murakkab birikmalar hosil qiladi, bu birikmalar moyga o'ziga xos hidni hosil qiladi, rangini quyuqlashtiradi va mazasini o'zgartiradi. Shu sababdan ham yuqori sifatli ekstraksiyalangan moy olish uchun, mitsellani distillatsiyalashdan oldin uni tarkibidagi erigan va erimagan aralash moddalardan tozalash kerak.

Mitsella tarkibiga 0,02 %gacha qoldiq qolguncha tindirish, sentrifugalash va filrlash usullari yordamida tozalanadi. Mitsella tarkibidagi qattiq zarrachalarni ajratishda tindirish usuli, alohida jarayon sifatida ishlatilmaydi, lekin bu jarayon ekstraksiyalash qurilmalarining ichida ketadi.

Shnekli ND-1250M ekstraktorida, mitsellani bir qism tindirish yordamida tozalash, ekstraktoring dekantatorida amalga oshiriladi. Bundan tashqari, mitsellani yig'ish sig'imlarida, mitsella tinishi natijasida bir qism aralashmalardan tozalanadi, Filrlash usulida mitsellani tozalash, keng tarqalgan usul hisoblanadi va ishlab-chiqarishda qo'llanilib kelinmoqda.

Mitsellani filrlash – bu mitsellaga erimagan qattiq aralashmalarni vakuumda yoki bosim ostida filtr to'siqdan o'tkazib, filtr yuzasida saqlab qolib ajratish jarayoni.

Filrlashning 3 turi mavjud:

- a) filrlash to'sig'ida cho'kma hosil qilib filrlash;
- b) quyuqlashtirilgan filrlash, bunda ajralayotgan qattiq zarrachalar cho'kma holida emas, balki yuqori kontsentratsiyali suspenziya holatida bo'ladi;
- d) tiniqlashtirib – filrlash, bunda filrlangan suyuqlik tarkibida kam miqdorda quyqa qoladi.

Ekstraksiyalash usulida moy ishlab – chiqarishda, mitsellani filrlashda, filrlashning birinchi turidan foydalaniladi. Mitsellani filrlashda to'sig'da cho'kma hosil qilib filrlashda, mitsella tarkibidagi eng kichik qattiq zarrachalar, filrlanishning boshlanishida, filtr to'siq tirqishlaridan o'tadi, lekin vaqt o'tishi bilan tirqishlarga zarrachalarning tigilib qolishi natijasida, filtr to'siq sirtida filtrlovchi qatlam hosil bo'ladi va buning - - -

Shunday qilib hosil bo'lgan cho'kma qavat, asosiy filrlash vazifasini bajaradi. Bunda filrlarish tezigi har bir vaqt ichida bosimlar farqiga to'g'ri proporsional, mitsella qovushqoqligi va hosil bo'lgan cho'kma qatlaming qalinligiga tekari proporsional bo'ladi. Vaqt-vaqt bilan filrlash to'sig'idan hosil bo'lgan cho'kmalarni olish orqali gidravlik qarshilik kamaytirib turiladi. Filtratsiya doimiy o'zgarmas bosimda, doimiy tezlikda yoki o'zgaruvchan bosim va tezlikda amalga oshiriladi.


Mitsellani filrlash o'zgaruvchan bosim va o'zgaruvchan tezlik amalga oshiriladi. Filtrlovchi to'siq sifatida-paxta tolasidan tayyorlangan berezent, kapron, metall slotka va boshqa materiallardan tayyorlangan materiallardan foydalar iladi. Mitsellani filrlashda ramali filtr-press, patronli filtr, rotor diskali va diskali filrlash qurilmalari ishlataladi.

Mitsellani diskali filrlash, qurilmasida filrlash sxemasi 68-rasmida ko'rsatilgan.

Mitsella nasos yordamida 0,2 Ml'a bosim bilan filrlanmagan mitsellani taqsimlovchi kollektor orqali filtr ichiga uzatiladi. Filtr ichiga sirtiga filtrlovchi material kiyg'zilgan, filtrlovchi 1 diskalar o'matilgan, bu filtrlovchi diskalar 4 kollektorga biriktirilgan. Har bir diska 10 ta filtrlovchi sektordan iborat bo'lib, bu sektorlar o'zaro bir-biri bilan qisqich yordamida biriktirilgan. Zarur hollarda ixtiyoriy sektor alohida ajratib olinishi mumkin.

Tozalangan mitsella 4 kollektor va 3 yarim o'q orqali o'tib patrubka yordamida filtdan chiqariladi. Mitsella tarkibidagi qattiq zarrachalar filtr to'siq yuzasiga ushlanib qoladi va filtrga kirayotgan mitsella bilan yuvilib turiladi. Diskalar orasidagi bo'shliqga loyqa to'planib qolmasligi uchun 5 yuvgich o'matilgan bo'lib shu orqali filrlanadigan mitsella korpus ichiga yuboriladi.

Filtr ostiga to'plangan loyqa, vaqt-vaqt bilan patrubka orqali chiqarilib ekstraktorga yuboriladi. Hosil bo'lgan erituvchi bug'lari patrubka orqali desflegmatorga yubo'iladi. Filtrlovchi material har 3-4 oyda almashtirilib turiladi. Rotatsion diskali filtrning filrlash yuzasi $16,8 \text{ m}^2$, filtrning valining aylanishi 18 avl/min ga teng.



68-rasm. Rotatsion diskli filtr:
1-filtirlovchi disk; 2-korpus; 3-yarim uk; 4-tozalangan mitsella o'tadigan quvur; 5-disklarni yuvish uskunasi.

10.2. Mitsellani distillatsiyalash qurilmalari

Mitsella tarkibidan moyni ajratish uchun (benzin) bug' holatiga o'tkaziladi. Bu jarayon distillatsiya deb aytildi. Ammo, bu so'z mitselladan moyni ajratishda qurilma ichida boradigan jarayonni to'liq o'ziga mujassamlashtirmagan bo'lsada, shu termin ko'p tarqalganligi sababli ishlatalib kelinmoqda. Mitsellani kuchsiz suv bug'i bilan qizdirganimizda suyuqli ustidagi bug' fazada faqatgina bitta komponentning bug'lari ya'ni benzin bug'lari bo'ladi. Ma'lumki, distillatsiya jarayonida bug' faza ostidagi suyuq fazada, suyuq faza tarkibidagi hamma komponentlar ularning bug'lanish haroratiga ko'ra turli bug' bilan qizdirib ajratish jarayoni bug'latish jarayoniga o'xshab ketadi. Ammo, bug'latish usulida mitsella tarkibidan hamzani tutlini

konsentratsiyasi oshadi. buning natijasida uning qaynash harorati keskin ko'tariladi va buning natijasida moy termik parchalanishi imumkin, bundan tashqari haroratning ko'tarilishi moyning sifatiga uning rangini qorayishiga olib keladi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlarni ta'sirni hisobga olib, mitsella tarkibidagi erituvchini ajratish ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi bosqichda erituvchi kuchsiz bug' yordamida atmosfera bosimida yoki kuchsiz vakuumda bug'latiladi, bunda mitsellani konsentratsiyasi shunday bo'lishi kerakki, uning qaynash harorati 100°C dan oshmasligi kerak. Ikkinci bosqichda erituvchi o'tkir suv bug'i bilan vakuumda ajratiladi. Mitsella tarkibidan erituvchini o'tkir suv bug'i yordamida ajratish mitsellani qaynash haroratini pasaytiradi va erituvchini to'liq ajralishini ta'minlaydi.

Mitsellani distillatsiyalash uch xil usulda: mitsellani sachratish; yupqa pylonka qavatida va mitsella qatlamida olib boriladi. Bu usullarni qo'llash mitsellani qaynasni haroratini uning konsentratsiya-siga bog'liqligini hisobga olgan holca qo'llaniladi.


Mitsellani distillatsiyalash turli konsentratsiyadagi qurilmalarda ikki, uch va undan ortiq etaplarda amalga oshiriladi.

ND-1250 ekstraksiyalash qurilmasi o'rnatilgan liniyalarda mitsellani distillatsiyalash uch yoki to'rt etapli sxemalarda amalga oshiriladi, bunda jarayon ikkita alohida qurilmada 69-rasm olib boriladi. Birinchi qurilma dastlabki bosqich distillator atmosfera bosimida, ikkinchi qurilma oxirgi bosqich distillator vakuumda ishlaydi.

Dastlabki bosqich distillator 69a-rasm, Kestnar konstruksiyasidagi pylonkali bug'latishi qurilmasi bo'lib, bunday qurilmalar issiqqlikka chidamsiz eritmalarini bug'latishda ishlatiladi. Bu qurilmada mitsella isitish trubalarining yuzasi bo'ylab yupqa pylonka holida harakat qiladi. Mitsella harakatlanayotgan trubalar diametri 900 mm va balandligi 5000 mm bo'lgan g'ilof ichida joylashtirilgan bo'lib, ulaming soni 212 dona isitish yuzasi 100 m². Kuchsiz bug' trubalar orasidan tashqaridan mitsella trubalar ichidan harakatlanadi.

Ko'tariluvchi pylonkali distillatorning isitish kamerasi 1 g'ilof ichiga o'rnatilgan trubalar to'plamidan 5 va ajratuvchi separator 2 dan iborat bo'lib, separator diametri 1450 mm va balandligi 1950 mm bo'lgan silindirdan iborat. Separatorming ustki qismiga benzin bug'lari chiqadigan 6 patrubka va ostki qismiga cuyuqlashtirilgan mitsella chiqadigan 7 patrubka o'rnatilgan. Benzin bug'lari aralashgan mitsella tomchilarini bug' bilan birga chiqib ketmasligi uchun

separator bug'iga tomechi tutgich 3 o'matilgan, separatomning ostiga 4 diskka o'matilgan bo'lib, u bug' bilan mitsellam ajratadi.



69-rasm. ND-1250 ekstraktorini distillatsiyalash qurilmalari:
 a-dastlabki bosqich distillatori; b-axirgi bosqich distillatori
 1-korpus; 2-separator; 3, 7-zont; 4-diska; 5-ustki korpus; 6-bo'g'iz; 8, 13-o'tkir
 bug' barbotyori; 9-sachragich; 10-ostki korpus; 11-mitsella tarqatgich; 12-moy
 yig'gich.

Dastlabki bosqich distillator quyidagi tartibda ishlaydi: Mitsella nasos yordamida uzuksiz ravishda isitish kamerasining ostki qismidagi 8 patrubka orqali berilib, trubalarning 1/4 qismini to'ldiradi. Harorati 180–200°C, bosimi 0,3 MPa kuchsiz bug' 9 patrubkalardan trubalar orasiga beriladi. Bug' ta'sirida mitsella qaynaganda, trubalarning qolgan qismlari bug' mitsella aralashmasi bilan to'ladi. Bu aralashma isitish trubalarning devori atrofida mitsella plynokasi bug' oqimiga ishqalanishi sababli yuqoriga qarab trubalarning ichki yuzasi bo'ylab katta tezlikda harakat qiladi va bug'lanadi. Isitish trubalarning yuqorigi qismida bug'ning miqdori ko'payib boradi va natijada mitsellaning konsentratsiyasi hain oshib boradi.

Isitish trubaleridan chiqayotgan benzin bug'iga aralashgan mitsella tomchilari separatordagi 4 diskka urilib pastga isitish trubalariga tushadi. Benzin bug'lar separatorida tangensial yo'nalishda aylanma harakat qiladi. Tomchi ushlagichda benzin bug'i tarkibida qolgan mitsella tomchilari markazdan qochma kuch ta'sirida uning devorlariga urilib pastga oqib tushadi, benzin bug'lar esa qurilmaning yuqorigi qismidan chiqib ketadi. Quyuqlashtirilgan mitsella separatorning pastki qismidagi patrubkadan chiqariladi.


Dastlabki bosqich distillatoria mitsellaning konsentratsiyasi 15 %, qurilmadan chiqayotgan mitsellani konsentratsiyasi 55–60 %, harorati 60–85°C.

Oxirgi bosqich distillator 69t-rasm, bu qurilma vakuumda ishlaydi va unda distillatsiyalashning uchta usuli: sachratish, plynokada va qatlamda amalga oshiriladi.

Distillator asosiy to'rtta qismidan: tomchi ushlagich 4 va uchta kamera sachratuvchi 5, plynokali 10 va dezodoratsiya 12 hamda 1,2 va 3 bug' qatlamlaridan tashkil topgan. Qurilma silindr shaklida bo'lib, uning diametri 1180 mm va balandligi 4580 mm ga teng. Sachratuvchi qismi 5 ni balandligi 1600 mm, unda 6 bo'g'iz bo'lib undan benzin, suv bug'ları chiqariladi, 7 zont bug'larini yo'nalishini o'zgartirishi uchun xizmat qiladi, 8 barbatyordan o'tkir bug' va 9 sachratuvchidan mitsella yuboriladi. Bularning hammasi benzin bug'lanadigan sachratish qismini tasnkil etadi.

Distillatorning o'rta qismida plynoka zonasi 10 joylashgan, uni ichiga tarqatuvchi 11 plastinkalar joylashgan, mana shu plastinkalardan mitsella plynoka holatida pastga tomon harakatlanadi. Mitsella plynoka holatida harakatlanadigan plastinkalar juft holatida tutashtirilgan metall plastinkalardan iborat, uning ustki qismi

uchburchak shakliida bo'lib, bu plastinkalar orasidan yuborilgan o'tkir bug' uning ustki qismidagi o'yiqlardan chiqadi. Qurilmaning plyonka qismi 70-rasmda ko'rsatilgan.



70-rasm. Oxirgi bosqich distillatorini plynka holatida o'qish plastinkalari.

Qurilmaming dezodoratsiya qismi 12 yoki qatlamda distillatsiyalanih 14 g'alvirsimon diskadan, o'tkir bug' yuboradigan 13 truba va 15 moy chiqadigan patrubkalardan tashkil topgan.

Oxirgi bosqich distillatsiyalash qurilmasi quyidagi tartibda ishlaydi. Distillatorga kirishidan oldin qizdirish qurilmasida mitsella $105-110^{\circ}\text{C}$ gacha qizdiriladi, mitsellani konsentratsiyasi 80-85 %ga teng bo'lib, u 0,3 MPa bosimda 9 sachratgichga beriladi. Tomchi


holdagi mitsellaning yuzasi katta bo'lganligi sababli sachratish kamerasida benzin bug'lari ko'p miqdorda bug'lanadi. Tomchi holdagi konsentrangan mitsella phyorka kamerasidagi plastinkalar ustiga tushib plastinkalar orasidan berilayotgan o'tkir bug' va kamera devoriga berilayotgan kuchsiz bug' ta'sirida benzinning qo'shimcha bug'lanishi ro'y beradi.

Ya'na ham konsentrangan mitsella dezodoratsiya kamerasiga to'planadi va bu yerda 400–450 mm qatlamda harorati 180–200°C bo'lgan o'tkir bug' bilan qizdiriladi, o'tkir bug' o'zi bilan birga benzin bug'larini ham bug'latib tepaga olib chiqadi. Bu kamera ostidan kuchsiz bug' yordamida ham qizdiriladi, tayyor moy chiqarish trubasidan nasos yordamida chiqarib turiladi.


MEZ ekstraksiyalash qurimasining distillatori uchta alohida qurilmadan iborat bo'lib, bunda jarayon uch bosqichda boradi. Birinchi bosqich disstillyator 71-rasin cuyidagi asosiy elementlardan: ekonomayzer 5, (tribali qizdirgich) separator 2, mitsellani aylanma harakatlantiruvchi nasos 6, mitsellani sathini boshqarish avtomati 3, miqdor o'lchagich 1 dan tashkil topgan. Bu distillatorda boshqa tipdagilarga qaraganda bug' kam sarflanadi, chunki bunda tosterdan chiqayotgan bug'dan foydalaniladi.

Ekonomayzerda mitsella tosterdar chi qayotgan bug' yordamida qizdiriladi va qizigan mitsella separatorda benzin bug'laridan ajratilib mitsellaning konsentrati 35–45 % ga yetkazi adi.

Separator 72-rasm po'latdan yasaljan bo'lib, u sistemada aylanib yuruvchi mitselladan paydo bo'lgan ara ashmani bug'dan ajratib turish uchun xizmat qiladi. Separator 5 korpus, ajraladigan 9 qopqoq va konusimon 2 tubdan tashkil topgan. Qopqoq 9 va korpus 5 oralig'iga 14 g'ildirak va 8 tayanch bo'lib, unga diskali 11 qaytargich, ya'ni benzin bug'lari tarkibidagi mitsella tomchilarini ushlagich, 7 bo'shatish trubasi o'matilgan. Diskali qaytargich bir nechta diskalardan tashkil topgan bo'lib, ular 12 boltga mahkamlangan. Separatorga quyidagi patrubkalar o'matilgan: boshlang'ich mitsella beriladigan 4 patrubka; mitsellani aylentiruvchi nasosga beruvchi 1 patrubka; ekonomayzerdan kelayotgan mitsella kiradigan 6 patrubka; benzin bug'lari chiqadigan 10 patrubka; sathni boshqara-digan avtomatga mitsellani yuboradigan 17 patrubka. Qurilma ishini kuzatish uchun 16 kuzatish oynasi o'matilgan.



71-rasm. MEZ ekstraktorini birinchi bosqich distillatori:
 1-sarf o'chagich; 2-separator; 3-mitsella sathini avtomatik chegaralagich;
 4-pnevmatik avtomatik kran; 5-ekonomayzer; 6-nasos; 7-rele.



72-rasm. MEZ ekstraksiyalash linyasini tarkazilan qochina separatori:
 1, 4, 6, 15, 17-trubka; 2-konussimon tub; 3-tayanch; 5-korpus; 7-trubka; 8-tayanch; 9-koptok; 10-benzin bug'lari chiqadigan bo'g'iz; 11-diskali qaytargich; 12-bolt; 13-diska; 14-g'i.dirak; 16-kuzatish oynasi.

Qachonki, qizdirilgan mitsellani separator ichidagi sathi belgilanganidan ko'tarilsa, mitsella avtomatik ravishda 17 patrubka orqali ikkinchi bosqich distillatorga uzatiladi.

Ikkinci bosqich distillator 73-rasm ikki qismdan: isituvchi kamera 4 va bug' ajratuvchi separator 15 dan tuzilgan bo'lib, ular truboprovodlar bilan tutashtirilgan. Qurilma vakuumda kuchsiz bug' yordamida qizdirilib ishlataladi.


Qizdirish kamerasi 4 quyidagilardan tashkil topgan: yuqorigi 8 va pastki 2 ellipssimon qopqoq, korpus 6, separatorga tutashtiruvchi 9 patrubka mitsella harakatlanadigan trubalar 11, mitsella kiradigan 13 patrubka, aylanma mitsella kiradigan 12 patrubka, mitsella chiqariladigan 1 patrubka, kuchsiz bug' yuboriladigan 10 patrubka, suv bug'i kondensati chiqadigan 3 patrubka va havo chiqadigan 4 patrubka.

Separator 15 bug' fazadan suyuq fazani ajratish uchun xizmat qiladi. Separator 14 patrubka orqali qizdirgichni yuqorigi qismi bilan tutashtirilgan, aylanish trubasi 17 orqali qizdirgichning ostki qismi bilan 12 patrubka orqali tutashtirilgan. Konsentrangan mitsella 16 patrubka orqali uchinchi bosqich distillatorga uzatiladi.


Ikkinci bosqich distillatorga harorati $60\text{--}65^{\circ}\text{C}$, konsentratsiyasi 35–45% bo'lgan mitsella kirib, undan harorati $95\text{--}100^{\circ}\text{C}$, konsentratsiyasi 95–98 % bo'lgan mitsella chiqadi. Uchinchi bosqich distillatordan mitsella tarkibidagi benzin vakuumda qizdirish va o'tkir suv bug'i yordamida ajratiladi, bu jarayon avval vertikal trubali qizdirish qurilmasida keyin kolonnali plastinkali distillator qurilmasida amalga oshiriladi.

Vertikal pylonkali qizdirish qurilmasi 74-rasm oxirgi bosqich distillatoriga yuborishdan oldin mitsellani qizdirish va bir qism konsentrash uchun ishlataladi. Bu qurilmaga mitsella yuqori qismidan beriladi, trubalar sirtidan patsga pylonka holida oqib kelayotgan mitsellag qarama-qarshi yo'nalishda o'tkir bug' yuboriladi. O'tkir bug'ning bosimi 0,15–0,2 MPa, harorati $180\text{--}200^{\circ}\text{C}$. Qurilma 5 korpus, qizdirish trubalari 6, ajraladigan ustki 12 va ostki 3 qopqoqlardan tuzilgan.

Qurilmaning ostki qismiga ta'minlovchi 11 truba bo'lib, undan mitsella yuboriladi va u 15 tarqatish tarelkasi orqali 6 qizdirish trubalarining sirtiga tarqatiladi. Qaytish diskasi 12 benzin bug'laridan mitsella tomchilarini qaytaradi, qaytgan mitsella 9 truba orqali tarqatish diskasiga quyiladi.



73-rasm. MeZ ekstraktorini ilkchini bosqich distillatori:
 1, 3, 9, 10, 12, 13, 14-patrubka; 2-el'ipssimon qopqoq; 4-qizdirish
 kamerasi; 5-tayanch; 6-korpus; 7-manometr; 8-ustki qopqoq; 11-truba;
 15-separator; 16, 17-truba; 18, 19-kran.



74-rasm. MEZ ekstraksiyalash liniyasidagi kontsentrlangan mitsellani qizdirgich:

1, 4, 7, 10, 11, 14, 16-patrubka; 2, 8-trubalar panjarasi; 3-ostki qopqoq; 5-korpus; 6-qizdirish trubasi; 9-truba; 12-diska; 13-ustki qopqoq; 15-tarqatish tarelkasi.

Qizdirish kamerasi 3 va 2 trubali panjaralar oralig'ida bo'lib, bu oralig'ga bug' 14 patrubka orqali beriladi va kondensat 4 patrubka orqali chiqariladi. Ostki qismiga 1 patrubka consentrlangan mitsellani chiqarish uchun va 16 patrubka o'tkir suv bug'i yuborish uchun xizmat qiladi. Benzin bug'lari qurilmadan 16 patrubka orqali so'rib olinadi. Uchinchi (oxirgi) bosqich distillator 75-rasm, plastinkali pylonka tipidagi kolonna shaklidagi qurilma bo'lib u 7 korpus, ajraladigan ustki 14 va ostki 2 qopqoqlardan tashkil topgan bo'lib, ustki qismiga 13 truba o'matilgan, uning oxiriga 10 sachratgich o'rnatilgan, mana shu truba orqali nitsella qurilmaga beriladi. Patrubka 12 dan benzin va suv bug'lari chiqeriladi, 15 qaytargich bug' fazadan suyuqlik tomchilarini qaytaradi. Korpus ichiga 80 dona vertikal bir qism teshik teshikli 8 plastinkalar 11 va 4 tutqichlar yordamida 17 va 3 flanelarga o'matilgan.


Qurilma korpusini qizdirish uchun uning tashqi sirtiga 20 zmeyevik bo'lib, u zmeyevikga 19 patrubkadan bug' yuboriladi va 22 patrubkadan kondensat chiqariladi. Qurilmaning o'rtasiga 6 truba o'rnatilgan, bu trubaga 26 patrubka orqali o'tkir bug' yuboriladi. Yuborilayotgan o'tkir bug' chiqishi uchun trubaga 5 tuyuklar qilingan. Moy tarkibidagi benzinni to'liq bug'latish va moyni bir qism dezodoratsiyalash uchun qurilmaning ostki qismida moyning bir xil balandlikdagi (250 mm) sathi ushlanaadi va bu qavatdan 1 barbatyor orqali o'tkir bug' yuboriladi.

Tayyor moy qurilmadan 23 patrubka orqali chiqariladi va shu patrubka orqali bir xil moy sathi ushlanaadi.

Qurilmaga mitsella nasos orqali 10 sachratgich orqali yuboriladi. Tomchi holdagi mitsella plastinkalar sirti bo'ylab pastga tomon harakatlanadi va pastdan unga qarama-qarshi yo'nalishda o'tkir bug' yuboriladi. Bug'langan benzin va suv bug'lari 12 patrubkadan chiqariladi.

Tayanch iboralar

Distillatsiya, bug'latish, kuchsiz bug', o'tkir bug', vakuum, distillatsiyalash usullari, pylonkali distillator, plastinkali distillator, dastlabki bosqich distillator, oxirgi bosqich distillator, ND-1250 ekstraktorining distillatorlari, MEZ ekstraktorining distillatorlari.



75-rastm. MHZ ekstraktorini oxirgi bosqich distillatori.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Distillatsiyalash jarayoni nima?
2. Nima sababdan mitsellani distillatsiyalash ikki, uch bosqichda olib boriladi?
3. Mitsellani distillatsiyalash usullari.
4. ND-1250 ekstraksiyalash liniyasini birinchi bosqich distillatorini tuzilishi va ishlashini izohlang.
5. ND-1250 ekstraksiyalash liniyas ni oxirgi bosqich distillatorini tuzilishi va ishlashini izohlang.
6. MEZ ekstraksiyalash liniyasini distillatorlarini tuzilishi va ishlashini izohlang.

II-bob. SHROT TARKIBIDAGI ERITUVCHINI AJRATISH VA SHROTNI SAQLASH QURILMALARI

11. Shrot tarkibidagi erituvchi holati va ajratish usullari

Ekstraktordan chiqayotgan ro'sizlentirilgan shrot tarkibida 25–40 %gacha erituvchi va ma'lum miqdorda suv bo'ladi. Shrot tarkibidagi oziqali moddalarниyuqori ozuqalik xususiyalarini saqlab qolishi, uzoq muddatda sifatini buzzmasdan saqlanishini ta'minlash, tashishda va saqlashda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida shrot tarkibidagi erituvchi ajratilib shrot namlik va harorat bo'yicha kondensatsiyalanadi. Bundan tashqari, shrot tarkibidagi erituvchi ajratib olinmasa moyning tannarxi ortib ketadi, shrotni saqlash omborlarida erituvchi bug'larini yig'ilishi natijasida portlash xavfi tug'iladi. Yuqoridagilarni inobatga ol b shrot tarkibidagi erituvchi ajratib olinadi. Tarkibidagi erituvchi ajratib olingan shrot quyidagi sifat ko'rsatkichlarga javob berishi kerak: saqlashga jo'natilayotgan shrotning harorati 35–40°C dan yuqori bo'lmasi, namligi 7–10 %, tarkibidagi qoldiq erituvchi miqdori 0,1 % bo'ladi.

Shrot tarkibidagi erituvchi bug'latish yo'li bilan ajratiladi. Bunda ishlatiladigan bug'latish qurilmalari bug'latish usuliga ko'ra uchta guruhg'a: to'g'ri ta'sir etuvchi bug'latgich ar, bunda isituvchi agent ishlov berilayotgan shrot bilan levensita aralashadi; to'g'ri ta'sir etmaydigan bug'latgichlar, bunda isituvchi agent shrotga to'siq orqali uzatiladi; aralash usulda ishlaydigan bug'latgichlar, bunda shrot

tarkibidagi erituvchini bug'latishda issiqlik tashuvchi agentning bir qismi aralashtirilib, bir qismi to'siq orqali uzatiladi.

Shrot tarkibidagi erituvchini bug'latish qurilmalari konstruktiv tuzilishiga ko'ra uch guruhga bo'linadi, ular quyidagilardan iborat:

- shnekli bug'latgichlar;
- toster (qasqonli bug'latgich);
- mavhum qaynash qatlamlili bug'latgichlar.

11.2. Shnekli bug'latgich qurilmasi

ND-1250 M ekstraksiyalash liniyalarida shnekli bug'latgich qurilmasi o'rmatilgan, lekin hozirgi vaqtida kelib bu bug'latgichlarni hammasi tosterlar bilan almashtirilgan. Shnekli bug'latgich 76-rasm, u ishlash usuliga ko'ra aralash usulda ishlaydigan qurilmalar tipiga kiradi. Har bir ekstraksiyalash liniyasi ikkita shnekli bug'latgich bilan ta'minlangan. Qurilma ikki seksiyadan iborat bo'lib, birinchi seksiya beshta shnekli bug'latgich 9, ikkinchi seksiya uchta shnekli bug'latgich 9 dan tashkil topgan.


Shneklar o'zaro bir-birining ustiga o'rmatilgan. Birinchi ustki seksiyada erituvchini atmosfera bosimida kuchsiz bug' yordamida dastlabki bug'latish amalga oshiriladi, ikkinchi ostki seksiyada bir qism vakuumda kuchsiz va o'tkir bug' yordamida shrot tarkibidagi erituvchi oxirigacha bug'latiladi. Ustki va ostki seksiyalar 14 zatvor orqali tutashtirilgan. Bug'latish shneklar 9 truba shaklida bo'lib, uning ichiga 16 val o'rmatilgan, bu kuraklar shrotni aralashtirish va harakatlantirish uchun xizmat qiladi.

Bir shnekli bug'latgichdan shrot ikkinchi shnekli bug'latgichga 14 tuyuklar orqali o'tadi, bu tuyuklar bir vaqtida bug'latgich shneklarini ko'tarib turuvchi tayanch vazifasini ham bajaradi. Tuynuklarni kuzatish va tozalash uchun 7 luklar o'rmatilgan.

Bug'latgichni har bir shneki bug' qavati 17 bilan ta'minlangan bo'lib, bu qavatga bosimi 0,5 MPa harorati 180–200°C bo'lgan kuchsiz bug' 5 patrubka orqali ustki seksiyalarga uzatiladi va ustki seksiyalardan chiqqan bug' 13 patrubka orqali ostki seksiyalarga va u yerdan kondensat ajratgichlarga o'tadi.

O'tkir bug' ostki seksiyaning eng oxirgi shneki ichiga uzatiladi. Bug'latgichning har bir seksiyasi 11 quruq shrot tutgichlar bilan

jihozlangan. Bug'latgichning shnekki valini harakatlantirish uchun 6 elektrodvigatellar o'rantsilgan.




76-rasm. ND-1250 ekstraksiyashin yasi ni shnekli bug'latgichi:
1-zanjir moylovchi mehanizm; 2-zanjirli uzatma; 3, 14-shluzli qopqoq; 4-o'tish
tuyumugi; 5-bug'yuboriladigan trubka; 6-elektrodvigatel; 7-luk; 8-patrubka;
9-shnekli bug'latgich; 10, 12-truba; 11-qur.ig shrot ushlagich; 13-patrubka;
15-kurak; 16-val.

Ekstraktordan chiqayotgan shrot bug'latgichning ustki seksiyasiga 8 patrubka orqali kiradi va shnek yordamida harakatlanib aralashib o'tish tuynugi orqali ikkinchi shnekga va shunday harakatlanib 14 zatvor orqali ostki seksiyaga o'tib u yerda ham harakatlanib erituvchidan ajralib chiqib ketadi.

Hosil bo'lgan erituvchi va suv bug'lari, shrot zarrachalari har bir seksiyadan 10 va 12 trubalar orqali ko'tarilib 11 quruq shrot tutgichlarga o'tadi va bu yerda keskin kengayishi natijasida harakat tezligi sekinlashib, bug' tarkibidagi shrot zarrachalari shrot tutgichning konussimon qismiga cho'kib vaqtqi-vaqtqi bilan 10 va 12 trubalar orqali shnekli bug'latgichlarini ichiga tushib turadi. Harorati 95–100°C, tarkibidagi qoldiq erituvchi miqdori 0,2 % bo'lgan tayyor shrot 3 zatvordan chiqarilib kondensatsiyalashga uzatiladi. Qurilmaning ish unumдорлиги 4 ton/soat. Qurilmaning gabarit o'lchamlari juda katta va ko'p metall sarflanadi, shrotning shnek kuraklariga urilishi natijasida maydalaniib ketishi va o'tkir bug'ta siridan haddan ziyod qurib ketishi natijasida shrot changlanib uning atrofda yo'qolishi ko'payadi va atrof-muhitni ifloslanishiga olib keladi. Bundan tashqari, qisqa muddatdagi namlik-issiqlik bilan ishlov berish ayrim xomashyolarning (paxta chigit, soya va boshq.) shroti tarkibidagi moddalar to'liq inaktivatsiyalanmaydi.

11.3. Qasqonli (toster) bug'latish qurilmasi

Qasqonli bug'latish qurilmasi – toster ishlatilganda shnekli bug'latish qurilmasining biz yuqorida ko'rib o'tgan kamchiliklari bartaraf etiladi. Hozirgi vaqtda ishlab chiqarishda turli konstruksiyadagi tosterlar ishlatilmoqda, bizni Respublikamizdagi korxonalarda asosan o'n qasqonli Germaniyada ishlab chiqarilgan tosterlar o'matilgan. O'n qasqonli toster 77-rasm, kolonna tipidagi qurilma bo'lib, u bir-birini ustiga o'matilgan o'nta 7 qasqonlardan tashkil topgan. Har bir qasqonning 11 bug' qavati bo'lib, bu qavatda bug' 18 patrubka orqali uzatiladi va kondensat 12 patrubkadan chiqariladi. Bundan tashqari, har bir qasqonning tubiga ham 10 bug' qavati bo'lib, bu qavatga bug' 19 patrubka orqali berilib kondensat 8 patrubkadan chiqariladi. Qurilmaning hamma qasqonlari bo'ylab 9 val o'tgan bo'lib, bu val harakatni ostki qismiga o'matilgan 24 elektrodvigatel va 23 uzatmadan oladi.



77-rasm. O'n chanli bug' atgich - toster.

1-nova; 2, 24-elektrosvigatel; 3-bo'shatish sh'regi; 4-richagli mexanizm;
5-luk; 6-pichoq; 7-qasqon; 8, 12, 16, 18, 19, 20-patrubka; 9-val; 10, 11-bug'
qavati; 13-shrot beriladigan tuyruk; 14-kengayish kamerasi; 15-erituvchi
bug'lar i chiqadigan truba; 17-namuna olish patrubkasi; 21-o'tkazish klapini;
22-mahsulot sathini ko'rsatgich; 23-uzatma; 24-elektrosvigatel.

Valga 6 pichoq o'matilgan bo'lib, bu pichoqlar shrotni bir tekis aralashtirish va shrotni bir qasqondan ikkinchisiga o'tkazish uchun xizmat qiladi. Valga 16 patrubka orqali o'tkir bug' yuborilib u pichoqlarga tarqatiladi. Bundan tashqari, har bir qasqonga o'tkir bug' 20 patrubka orqali yuboriladi.

Shrot bir qasqondan ikkinchisiga ostki qismidagi 26 tuyrukdan o'tadi. Bu tuyruk 21 segmentli klapan orqali berkitiladi. Bu klapan 4 richagli mexanizm yordamida 22 sathni boshqargich bilan bog'langan. Bundan tashqari, har bir qasqonning ostki qismiga 25 tirqishlar bo'lib bu tirqishlardan erituvchi va suv bug'lari yuqoriga tomon ko'tarilib 14 kengayish kamerasiga boradi. Tosterdan chiqayotgan bug'lar 15 patrubka orqali qurilmadan chiqariladi.

Ekstraktordan chiqayotgan shrot qurilmaga shnekli ta'minlagich orqali 13 patrubkadan beriladi, erituvchidan ajratilgan shrot qurilmadan tushirish shneki 3 orqali chiqariladi. Qurilma har bir qasqonidan namuna olish 17 patrubkadan amalga oshiriladi. Har bir qasqonni ta'mirlash va tozalash uchun 5 luk o'matilgan.

Qurilma quyidagi tartibda ishlaydi. Ekstraktordan chiqayotgan shrot qurilmaning yuqori qismiga shluzali zatvor orqali beriladi. Bunday zarur hollarda shnekli ta'minlagichda shrot namlanadi. Ustki qasqondan shrot uzlusiz ravishda pastga qasqonlarga o'tadi va 55–65 minut vaqt davomida qurilmadan chiqariladi. Har bir qasqondagi shrotni qatlamini qalinligi 400 mm na tashkil etadi. Qasqonlarda shrot o'tkir va kuchsiz bug' yordamida qizdiriladi.

Erituvchi va suv bug'lari har bir qasqonning ostki qismidagi tirqishdan o'tib yuqoriga ko'tariladi va kengayish kamerasiga borib u yerda bir qism shrot zarrachalaridan ajratilib, qolgan shrot zarrachalaridan ajratish uchun ho'l shrot tutqichga uzatiladi.


Tayyor shrot harorati 100–105°C, namligi 8,5–10 % va qoldiq erituvchi 0,05 % qurilmadan chiqariladi.

11.4. Shrotni kondensatsiyalash va saqlash qurilmalari

Shnekli yoki qasqonli bug'latgichdan chiqqan shrot omborga saqlashga yuborishdan oldin harorat, tarkibidagi namlik va qoldiq erituvchi miqdori bo'yicha kondensatsiyalanadi. Shnekli bug'latgichdan chiqqan shrot to'liq kondensatsiyalanish siklini o'tadi. Qasqonli ya'nii tosterdan chiqayotgan shrot, qurilmaning o'zida

namlik va erituvchi bo'yicha kondensatsiyalanadi, uni faqat harorat bo'yicha kondensatsiyalash talab etladi.

Shrotni harorat va namlik to'yicha kondensatsiyalash uchun qasqonli konditsionerlar, shnekli namlash qurilmalari va qovurish qasqonlari ishlatalidi. Bulardan tashqari shrotni pnevma transportyorda, mexanik transportyorlarda tashishda uning harorati pasayadi. Namlik va harorat bo'yicha kondensatsiyalangan shrot mahsus silosli elevatorlarda yoki mexanizatsiyalashtirilgan omborlarda saqlanadi. Shrotni saqlashda qo'llaniladigan silosli elevator 78-rasm keng tarqalgan o'nbol turlaridan bo'lib, u vagonga bo'shatish trubasi, transportyorlar nortiya va silosdan tashkil topgan.



78-rasm. Shrot saqlanadigan silosli elevatorli ombor:
 1-ishchi minora; 2-siloslar ustidagi galereya; 3-zanjirli yuklash transpartyori;
 4-siloslar; 5-siloslar ostidagi galereya; 6-zanjirli tushirish transpartyori;
 7, 8-transpartyor; 9-temr yo'l vagor; 10-truba.

Tayanch iboralar

Shrot tarkibidagi erituvchi, erituvchini ajratish usullari, ajratish qurilmalari, shnekli bug'latgich, qasqonli bug'latgich, shrotni kondensatsiyalash, saqlash omborlari.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Shrot tarkibidan erituvchi nima uchun ajratiladi.
2. Shrot tarkibidagi erituvchini ajratish usullari.
3. Shrot tarkibidan erituvchini ajratishdan ishlatiladigan qurilmalar.
4. O'n chanli toster qurilmasini tuzilishi va ishlashini izohlang.
5. Saqlanadigan shrotga qo'yiladigan talablar.
6. Shrotni saqlash omborlari va ularning turlari.

TO'RTINCHI QISM

MOYLARNI QAYTA ISHLASH QURILMALARI

12-bob. MOYLARNI QAYTA ISHLASHDA QO'LLANILADIGAN QURILMALAR VA ULARNI BO'LINISHI

Yog'-moy sanoati ishlab-chiqaruvchi korxonalari ishlab chiqarishni xarakteriga ko'ra shartli ravishda ikkiga:

1. Moy yetishtiruvchi korxonalar moyli xomashyolardan presslash, press-ekstraksiya usulida rnoy oluvchi korxonalar.

2. Moylarni qayta ishlovchi korxonalar - moylarni qayta ishlab pafinatsiyalangan va hidsizlantirilgan moy, margarine, mayonez, oshxona yog'i, qandolat yog'i, gidrogenizatsiyalangan yog', xo'jalik va atir sovun, glitserin, yog' kislotalari va shunga o'xshashlarni ishlab chiqarish korxonalariga bo'linadi.

Ishlab chiqarishning bunday xilma-xiligi, ishlab chiqarishda turli texnologik va yordamchi qurilmalardan foydalanishni taqozo etadi.

Moylarni qayta ishlashda qo'llaniladicidan maxsus texnologik qurilmalarni quyidagich guruhlarga bo'lib o'rGANISH mumkin:

- moylarni qabul qilish, saqlash va ozalash qurilmalari;
- gidratatsiyalash, rafinatsiyalash va rangsizlashtirish qurilmalari;
- hidsizlantirish qurilmalari;
- moylarni va yog' kislotalarini gidrogenizatsiyalash qurilmalari;
- margarine, mayonez va oshxona yog'lari ishlab chiqarish qurilmalari;
- yog'larni parchalash, glitserin va yog' kislotalari qurilmalari;
- sovun ishlab chiqarish qurilmalari;
- sintetik yuvuvchi vositalar ishlab chiqarish qurilmalari.

Bulardan tashqari, boshqa saroatlarda ham ishlatiladigan umumiy tipdag'i qurilmalar:

- turli hajmlardagi sig'imli qurilmalar;
- issitish va sovitish qurilmalari;
- tashish va uzatish qurilmalari;
- qadoqlash qurilmalari;

- oqova suvlarni tozalash qurilmalari;

- texnologik jarayonlarni nazorat qilish va boshqarish qurilmalari.

Yuqoridagi ikki guruhgaga kiruvchi qurilmalar ichida uzlukli, yarim uzlukli va uzlusiz ishlaydigan qurilmalar uchraydi. Hozirgi vaqtida sanoatda belgilangan progirammaga asosan ishlaydigan avtomatlashtirilgan qurilmalar ko'p ishlatilmoqda.

Yog'larni qayta ishlashda ishlatiladigan qurilmalar, texnologik jarayonlarni o'ziga xos xususuyatlarini hisobga olganda o'ziga xoslikga ega. Bu o'ziga xoslik:

- ishlab chiqarishni yong'inga va portlashga xafiligi (vodorod ishlab chiqarish, gidrogenizatsiya, yog' kislotalarini distillatsiyalash va bosh.);

- yuqori (8 MPa) va past (0,133 MPa) bosimni qo'llanilishi;

- fizik-kimyoiy jarayonlar vaqtida yuqori haroratni (350° C) qo'llanilishi;

- yuqori yemrilish muhitlarida texnologik jarayonlarni amalga oshirilishi (tabiiy va suniy yog' kislotalari, sulfat va xlorid kislotasi, osh tuzi, ishqor eritmasi va boshq.) sababli kislotaga chidamli materiallardan qurilmalarni yasash talab etiladi;

- tezda qotuvchi muhitlarni bo'lishi (salomas, margarine, yog' kislotalari, soapstok, sovun va boshq.), maxsus qizdirish uskunalarini qo'llashni talab etadi.

Moylarni qayta ishlashda ishlatiladigan texnologik qurilmalarni tayyorlashda ishlatiladigan materiallarga quyidagi talablar qo'yiladi:

- qurilmalarni materiali sog'liqni saqlash nazorati bilan kelishilgan bo'lishi;

- material yemrilishga chidamli bo'lishi;

- mexanik mustahkam bo'lib yuqori bosimga bardoshli bo'lishi.


Metallar ikki asosiy guruhgaga: qora va rangli guruhlarga bo'linadi. Temir, uning qotishmali bo'lgan cho'yan va po'lat, shuningdek marganes va xrom qora metallarga kiradi. Negizi temirdan iborat bo'limgan qolgan hamma metallar va qotishmalar rangli metallarga kiradi.

Cho'yan va po'lat qurilmalarni yasashda ishlatiladigan asosiy konstruksion material hisoblanadi. Cho'yan va po'lat temir qotishmasi bo'lib, cho'yanda 2,14–6,67 %gacha uglerod bor, po'latda esa 2,14 %dan kam uglerod bo'ladi.

Tabiiy va sintetik polimerlər əsasda olinadigan materiallar plastmassalar deyilədi. Hozirgi vaxtda yog' moy məhsulotları istə molchılara əsasən plastik massalardan təyyorlangan idishlərə qədəqlənilərmişdir.

13-bob. MOYLARNI RAFINATSIYALASH QURILMALARI

Presslash və ekstraksiyalash usul idarəələndirən moylar tərkibidə möyli xomashyolar tərkibidə turşı məddələr (erkin moy kislətləri, hid beruvchi, rang beruvchi məddələr, fosfatidlər və bəşq.) ham möyga ə'tadi. Bu məddələrlə möyga yoldosh məddələr deyilədi. Mana şu yoldosh məddələrdən möyni təzələşməsi rafinatsiya deb adıllaşıdır. Rəfinatsiyalash bir neçə böyük qrupdan təşkil olunur. 79-rasmda kəsilmiş şəkildə möyli təzələşməsi rafinatsiyalash prosesinin tətbiq şəxsiyyəti göstərilmişdir.



79-rasm. Rafinatsiyalash jərəyonunun ketmə-keşligi:

I-birləməchili mexanik uralashmalarla təzələşmə; II-mexanik uralashmalarla və namlıqla ajratış; III-gidratatsiyalash; IV-ışqor bilən neytralizatsiyalash; V-möyni yuvish; VI-quritish; VII-cəvərtilish; VIII-hidsizləntirish.


A-oqsillar, fosfatidlər və shlinishiç məddələrini ajratış; B-erkin yog'i kislətlərini ajratış; V-sovun qoldığını ajratış; G-namlıknı ajratış; D-rang beruvchi mədələrini ajratış; E-hid beruvchi məddələrini ajratış.

Moylarnı uzluklı usulda rafinatsiyalash və hidratatsiyalash jərəyonu neytralizator deb nomlangan qurilmalarda amalgə oshırılıdı. Neytralizator 80-rasm silindrşəmon konus tubli yaxlıt po'latdan payvandlı təyyorlangan qurılma. U 1 korpus, 16 korpus simon tubi, qızdırış üçün bug' yuborılıdığın 3 g'ilof, 18 qopqoq, 8 elektrosvigateli, 7 uzatma, 15 ramalı aralashtırgıch 11 valga

o'rnatilgan. Vertikal o'q ikki qismidan tashkil topgan bo'lib, bu qismlar 12 musta yordamida birlashtiriladi. Mustani pastki o'qqa ulash va ajratish 9 richag yordamida amalga oshiriladi. Qo'zg'almas kollektorli truba 19 va unga o'rnatilgan 13 sachratgichdan iborat bo'lib, qurilma moy bilan to'ldirilgandan keyin unga sachratgichlar orqali kerakli miqdordagi gidratatsiyalovchi reaktiv yoki neytrallovchi reaktiv yuboriladi. Shundan keyin aralashtirgich ishga tushiriladi va 25–20 minut vaqt davomida moy bilan gidratatsiyalovchi suyuqlik aralashtiriladi va fosfolipidlar birlashib zarrachalar hosil qilgandan keyin aralashtirgich to'xtatilib 2–3 soat davomida tindiriladi va shundan keyin fosfotid konsentrati qurilmaning tubidan ajratib olinadi va qurilmadagi moy ishqor eritmasi bilan neytralizatsiya qilinadi. Moyni neytralizatsiyalash ishqor (NaOH) eritmasi bilan amalga oshiriladi. Ishqor eritmasi valga o'rnatilgan aylanuvchi 14 sachratgich orqali yuboriladi. Ishqor eritmasi qurilma aralashtirgichi aylanib turgan vaqtida yuboriladi va bunda moyni isitish uchun bug' qavatga bug' ham yuboriladi. Aralashtirish soapstok shakllanguncha davom ettiriladi. Moyning harorati 45–60°C gacha yetkaziladi. Soapstok shakllanganidan keyin aralashtirish va bug' yuborish to'xtatiladi. 8–10 soat tindirish uchun qo'yiladi. Soapstok moydan og'ir bo'lganligi uchun qurilmaning konussimon qismiga cho'kadi. Tindirish uchun belgilangan vaqt o'tganidan keyin rafinatsiyalangan moy 3 sharnirli trubadan nasos yordamida tortib olinadi. Sharnirli truba qo'l yordamida aylantiriladigan lebedok yordamida moyning sathini pasayishiga qarab 17 tros yordamida vertikal holatidan tushirib boriladi. Bu moyni soapstok bilan aralashishini oldini oladi. Soapstok konussimon qismidagi krandan bo'shatiladi.

Qurilma ichidagi moy sathi 6 o'lchagichdan va harorati 5 termometr orqali nazorat qilinadi.

Hozirgi vaqtida sanoatda sig'imi 5 dan 40 tonnagacha bo'lgan neytralizator qurilmalar ishlataladi.



80-rasm. Neytralizator:

1-korpus; 2-bug' qıvıat; 3-sharnırılı truba; 4-saqlovchi klapan; 5-termometr;
 6-o'lichov lineykasi; 7-uzatma; 8-elektrödvigatel; 9-richag; 10-ko'targich;
 11-val; 12-mufsta; 13-voronkali sachragich; 14-kuchsiz išhqor eritması
 uzatılıdigan truba; 15-ramali aralashtırgich; 16-komüssimon tub; 17-tros;
 18-qopqoq; 19-kollektör.


Neytralizatorning bir sutkalik ish unumdorligi quyidagi formula orqali hisoblanadi:

$$Q = \frac{GT\zeta 60}{T},$$

bunda, G – hisoblangan moy miqdori, ton, T – bir sutkada ish soati, T – qurilmani ish siklini davom etish vaqtini, min.


Uzluksiz ishlaydigan rafinatsiyalash liniyalaridagi asosiy qurilmalar bilan tanishib chiqamiz. Bu qurilmalarga reaktor turbulizator, koagulator, fosfatid konsentratini quritadigan rotatsion quritgich, uzluksiz tindirgich, separatorlar va boshqalar kiradi.

Reaktor turbulizator 81-rasm, harakatlanayotgan moyni turli reagentlar (suv, ishqor eritmasi)ni aralashtirish uchun xizmat qiladi. U korpus 3 va unga biriktirilgan moy kiradigan patrubka 1 va suv, ishqor eritmasi kiradigan 2 patrubkadan, membranalni klapan 4 va 10 diffuzordan tashkil topgan. Aralashtirgichni ichiga 8 nipel va 9 soplo joylashtirilgan. Trubadan kelayotgan moy soplidan o'tish vaqtida so'riliishi hosil bo'lishi natijasida 2 patrubkadan reagent so'riliadi va moyga mayda tomchilar holida qo'shilgan reagent 10 diffuzor orqali 11 nasadkaga keladi. Moyga qo'shiladigan reagent miqdori ignasimon 7 klapan orqali rostlab turiladi. Ignasimon klapan 5 shturval yordamida boshqarib turiladi, bunda havo so'rilmasi uchun harakat 6 rezina membrana orqali uzatiladi.



81-rasm. Reaktor turbulizator:


1-moy kiradigan patrubka; 2-kondensat kiradigan patrubka; 3-korpus;
4-membranalni klapan; 5-shturval; 6-membrana; 7-ninasimon klapan; 8-nipel;
9-soplo; 10-diffuzor; 11-teshik-teshikli truba.



82-rasm. Koagulator:
 1-korpus; 2-moy va ishqor aralashmasi kiramidan patrubka; 3-qopqoq;
 4-uzatma; 5-inert gaz yuboriladigan patrubka;
 6-patrubka; 7-aratashirgich;
 8-konussimon tub;
 9-mahsulot chiqadigan patrubka; 10-mufsta.

Koagulator 82-rasm, hidravatsiya jarayoni vaqtida turbulizatorдан kelayotgan moy suv aralashmasida hidravatsiya cho'kmasini shakllanishi uchun xizmat qiladi. U po'latdan tayyorlanib silindrsimon 1 korpus, konussimon 3 ostki qismi, ochiladigan 3 qopqoq va uning ustiga 4 motor reduktor o'snatilgan bo'lib, u 7 ramali aralashirgichni o'qini 10 mufta orqali harakatga keltiradi. Moy suv yoki moy ishqor aralashmasi qurilmaga 2 jo'mrak orqali yuborilib ostki 9 jo'mrakda uzluksiz chiqarib turiladi. Qurilma ortiqcha moyni chiqarish 6 jo'mrak va qurilma ichini kuzatish oynasi bilan

jihozlangan. Qurilmaning sig‘imi unda aralashmani 20–40 minut bo‘lishiga asoslanib hisoblanadi va u 2 m tashkil etadi.



83-rasm. Uzluksiz ishlaydigan tarelkali ajratgich:

1-korpus; 2-konusimon qopqoq; 3-tozalangan moy chiqadigan kollektor; 4-har bir kameradagi tozalangan moy chiqadigan truba; 5-ajratiladigan moy kiradigan patrubka; 6-ajratish kamerasi; 7-mahkamlovchi bolilar; 8-tayanch; 9-luk; 10-cho‘kma chiqadigan patrubka; 11-bug‘ bilan yuvish patrubkasi; 12-namuna olish jo‘mraklari; 13-markaziy tarqatish trubasi; 14-tashqi truba; 15-yuqorigi flanes; 16-pastki flanes; 17-cho‘kish zonasasi; 18-tozalangan moy zonasasi; 19-cho‘kish zonasiga kirish patrubkasi; 20-kameradan tozalangan moy chiqish patrubkasi; 21-yuqorigi konusimon tarelka; 22-pastki konusimon tarelka; 23, 24-truba; 25-to‘siq.

Uzluksiz ishlaydigan tarelkali cho‘ktirish qurilmasi gidratsiya-lashda fosfatid konsentratini, neytralizatsiyalashda soapstokni moydan ajratish uchun qo‘llaniladi. Bu qurilmada aralashmani berish va ajratilgan mahsulotlarni chiqarib olish uzluksiz ravishda olib boriladi.

Bu qurilma 83-rasm vertikal silindrsimon ko'tinishida bo'lib uglerodli St.3 po'latdan tayyorlangan, u ajratiluvchi 2 konussimon qopqoqdan, 1 silindrsimon korpu: va konussimon tubdan tashkil topgan. Qurilmaning ustki qopqog'iiga xoltar yordamida just-just 21 va 22 konussimon tarelkalar mahkanlangan. Ularning har biri alohida cho'ktirish kameralarni hosil qiladi va ular niustaql ishlaydi. Ular ikki seksiyadan: ostkigidratisiyalangan yoki neytralizatsiyalangan moyni chiqarish uchun xizmat qiladi. Tarelkalar paketi yig'ilganda o'rtaida vertikal tarqatish trubasini hosi qiladi. Bu trubaga 5 jo'mrak yordamida aralashma yuboriladi va u 13 patrubkalar orqali har bir konussimon tarelkaza tarqatiladi.

Bunda aralashmaning harakat tezligi kainayishi sababidan moy tarkibidan, o'lchami moydan katta cho'kmalar tarelka sirtiga cho'kadi va sirg'alib urilmaning ostki konussimon qismiga tushadi, cho'kma 10 jo'mrak orqali qulmadan chiqariladi. Chc'kmadan ajralgan moy yengil bo'lganligi uchun cho'kmaning ustida to'planadi va 22 tarelka ustidan harakatlanib 20 patrubka orqali 23-24 kameraga va undan 4 truba, kuzatish oynasi orqali 3 kollektor orqali qurilmadan chiqariladi.

Moylarni uzluksiz usulda rafinatsiyalash jarayonlarining ba'zi biri texnologik sxemalarida separatorlar qo'llaniladi. Texnologik vazifasiga ko'ra separatorlar uch tur:

1. Bir-biriga erimaydigan suyuqlik arini ajratadigan separatorlar.
2. Suyuqlik turkibidagi erimaydig'un qattiq zarrachalarni ajratib suyuqliklarni tiniqlashtiradigan separatorlar.
3. Ikki va undan ortiq operatsiya ni bajaradigan kombinatsiyalangan separatorlar.

Yog'-moy sanotida separatorlar gidratisiya, neytralizatsiya cho'kmalarini ajratishda; neytralizatsiyadan keyin moy tarkibidagi qodiq sovun zarrachalarini moydan ajratishda qo'llaniladi.


Quyidagi: 84-rasm moylarni separatorlarni qo'llab uzluksiz usulida rafinatsiyalash jarayonining texnologiyasini strukturaviy sxemasi ko'rsatilgan. Bundan haorutti 80-90°C bo'lgan rafinatsiyalanadigan moy gardishli araleshtirgichga kelib tushadi, bu yerda bir vaqtning o'zida ishqor eritmasi harn beriladi va aralashtirilib aralashma 2 separatorga uzatiladi. Separatorlarda moy soapstokdan ajratiladi va moy 3 lopatkali aralashtirgichga uzatiladi. Lopatkali aralashtirgichda moy tarkibidagi sovun qoldiqlarni yuvish uchun yumshoq suv bilan yuviladi va moy sovun qoldig'i va suvni ajratish

uchun 4 separatorga yuboriladi. Tozalangan moy ikkinchi marotaba suv bilan yuvish uchun 5 pichoqli aralashitrigichiga va unda tarkibidagi suv vasovun qoldig'idan ajratish uchun 6 separatorga, separatordan quritish uchun 7 quritish qurilmasiga yuboriladi. Texnologik sxemadan ko'riniq turibdiki, bu yerda separator bir necha marotaba ishlatalmoqda.

A1 – MSL tipidagi separator 85-rasmda ko'rsatilgan, u germetik bo'lib bosim ostida ishlaydi. Qurilmaning korpusi 1 cho'yandan tayyorlangan bo'lib, unga hamma qismlari biriktiriladi, uning ostki qismi fundamentga mahkamlanadigan tayanchdan va ustki qismi 2 kosasimon bo'lib unga baraban o'matiladi, baraban 107–109 dona 5 tarelkalardan iborat bo'lib, ularni 3 tarelka tutkich ushlab turadi. Separatormi asosiy ishchi qismi 4 baraban bo'lib, u 6 qopqoq bilan yopiladi.


Separatorga ishqor eritmasi, yuvish uchun suv va moy 14, 15, 16 jo'mraklar orqali yuboriladi, bu jo'mraklar separatorning pastki qismiga joylashgan. Ajratish uchun yuboriladigan moy jo'mrak orqali valga va undan tarqatish tarelkasi orqali barabanga uzatiladi. Ajratish vaqtida og'ir fraksiya (soapstok, fosfid konsentrati va suv) devor tomon harakatlanadi va 8 jo'mrak orqali chiqariladi. Yengil fraksiya moy tarelkalar orasidan o'tib 9 jo'mrak orqali chiqadi. Separatormi ishslash sxemasi 85 b-rasmida ko'rsatilgan.

Moylarni gidatsiyalash vaqtida hosil bo'lган fosfatid konsentratini quritish uchun rotatsion plyonkali qurilma ishlataladi, bu qurilmada konsentrat 5,3–8 kPa qoldiq bosimda tarkibida 1–4 % namlik qolguncha quritiladi. Qurilma 86-rasm 8 korpus, 10 rotor, 16 separatsiya kamerasidan tashkil topgan. Qurilmaning korpusi silindrsimon bo'lib u tashqi tomonidan bo'g' qavat bilan qoplangan bo'lib bu qavatga bug' 9 jo'mrakdan yuboriladi, kondensat 18 va 20 jo'mraklardan chiqadi. Bug' qavatidagi bug'ning bosimini o'lchash uchun 7 jo'mrakga manometr o'matiladi. Qurilma korpusining ustki qismiga 6 jo'mrak o'matilgan bo'lib bu jo'mrakdan quritiladigan mahsulot yuboriladi.



84-rasm. Separatorlarni qo'llab uzluksiz usulda ruzinatsiyalash jarayonini strukturaviy sxemasi:


1-gardishli aralashtirgich; 2, 4, 6-separator; 3-kuraklii aralashtirgich; 5-pichoq aralashtirgich; 7-vakuum quritish qurilmasi.



85-rasm. A1-MSL tipidigi separator:

a-umumiyo ko'rinishi; b- separator baraban da ajralish jarayonini sxemasi.

1-korpus; 2-ustki kosasimon qismi; 3-tarelka tutqich; 4-baraban; 5-tarelka; 6-kopqoq; 8, 9-patrubka; 10-val; 11, 13-zodstipniklar; 12-cher-yak; 14, 15, 16-patrubka; 17-mufsta; 18-tishli g'ildirak; 19-gorizontal val; 20-taksometr.



86-rasm. Gidrotatsiya cho'kmasini quritishda ishlataladigan gorizontall rotatsion plyonkali qurilma:

1-elektrosvigatel; 2-uzatma; 3-mufta; 4, 13-podshipniklar; 5, 12-suv chiqadigan patrubka; 6-mahsulot kiramidan patrubka; 7-manometr o'rnatiladigan jo'mruk; 8-korpus; 9-bug' kiramidan patrubka; 10-rotor; 11-vakuum sistemasiga ulanadigan patrubka; 14, 23-mahkamlagich; 15, 22-savitiladigan suv kiramidan patrubka; 16-separatsiya kamerasi; 17-qaytargich; 18, 20-kondensat chiqadigan patrubka; 19-mahsulot chiqadigan patrubka; 21-bo'shatish patrubkasi; 24-rama.

Separatsiya qismining ustki qismiga 11 patrubka o'matilgan bo'lib, bu patrubka orqali qurilma vakuum sistemasiga ulanadi. Quritilgan konsentrat 19 patrubka orqali chiqariladi. Qurilmaning rotori 10 yarim yulduz shaklida baraban shaklida bo'lib unga olti dona kurak o'matilgan, ko'kraklar bilan qurilma korpusi orasidagi tirqish 1 mm ga teng. Qurilma 24 ramaga o'matilgan bo'lib rotor 1 elektrosvigatel 2 uzatma va 3 mufta orqali harakatlanadi.

Tayanch iboralar

Neytralizator, ishqorli rafinatsiya jarayonining ketma-ketligi, koagulator, reaktor turbulizator, uzuluksiz ishlaydigan tindirgich, tindirgichning ish unumdoorligi, separatorlar, rotatsion plynokali qurilma.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Uzlukli gidratatsiyalash va neytralizatsiyalashda ishlataladigan neytralizator qurilmalari.
2. Reaktor turbulizator.
3. Koagulator.
4. Uzluksiz ishlaydigan tindirgichlar.
5. Separatorlar.
6. Rotatsion plynokali quritish qurilmasi.
7. Neytralizator qurilmasini tuzilishini va ishlashini izohlang.

8. Uzluksiz usulda separatorlarda rafinatsiyalash jarayonini texnologik strukturaviy sxemasini izohlang.

14-bob. MOYLARNI QURITISH VA RANGSIZLANTIRISH QURILMALARI

14.1. Moylarni quritish qurilmalari

Moylarni ishqoriy rafinatsiyalashidan keyin moy tarkibida qolgan soapstok qoldig'i (sovun)ni moydan ajra ish uchun moy 2–3 marotaba iliq suv (kondensat yoki yumshoq suv) bilan yuviladi, yuvilgan moy vakuumda quritiladi va agar moyning rangi belgilangan miqdordan katta bo'lса, bunday moy rangni pasaytiruvchi reagentlar (rangsizlantiruvchi nuproq) yordamida rangsizlantiriladi. Bu yuqorida aytilgan uchala jarayon bitta qurilma yuvish va vakuumda quritish qurilmasida amalga oshiriladi. Bu qurilma 87-rasm, vertikal silindrsimon 1 korpus, konussimon 2 ostki qism va sferasimon 4 qopqoq va 8 bug' qavatidan tashkil topgan. Qurilma ichida 8 o'qqa 7 kurakli aralashtirgich o'rnatilagn, bu aralashtirgich qurilma qopqog'iga o'rnatilgan 5 elektrodvigatel va 6 uzatma orqali harakatga keltiriladi. Aralashtirgich 43 ayl/min tezlik bilan aylanadi. Moyni yuvish uchun suv qopqog'iga o'rnatilgan 10 aylanma trubadagi 9 sachratgichlar orqali yuboriladi.


Qurilma qopqog'iga 11 luk, 12 kuzatish oynasi, vakuum sistemasiga ulash uchun 13 jo'mral, 15 vakuummetr, 16 termometr o'rnatilgan. Qurilma ichidagi moy sathi 1" sath ko'rsatgich orqali nazorat qilinadi, moy yon tomonidagi 18 jo'mrakdan quyiladi. Rafinatsiyalangan moy yuvishdan oldin aralashtirib, trub 90–95°C gacha qizdiriladi. Va shundan keyin qayr ash haroratigacha qizdiriladi, kondensat yoki yumshoq suv sachragich orqali yuborilib aralashtirgich to'xtatilib, 0,7–1 soat tindiriladi va shundan keyin qurilmaning ostki qismidan suv sovun aralashmasi ajratiladi. Yuvish suvi ajratilganidan so'ng qurilma gernetiklashtiriladi va qurilma vakuum sistemasiga ulanib aralashtirgich ishga tushirilib moyni quritish jarayoni amalga oshiriladi, bunda moyning harorati 95°C ga ushlanadi. Qurilma ichidagi moy sathida pufakchalar hosil bo'lmasa moy qurigan bo'ladi. Quritish vaqtida ajralayotgan suv bug'i va yengil uchuvchi moddalar vakuum sistemasiga so'rildi. Quritish jarayoni

tugashi bilan shu qurilmani o'zida rangsizlantirish jarayoni amalgamoshiriladi, bunda vakuum va harorat quritishdagidek bo'ladi. 88-rasmida qurilmaga adsorbsiyalovchi reagentni solish jarayonini sxemasi ko'rsatilgan. Rangsizlantirish jarayoni tugaganidan keyin moy aralashtirilib turilib filtr presslash qurilmasisiga uzatiladi. Hozirgi vaqitda sanoatda sig'imi 5 va 10 m bo'lgan GPS, GP10 tipidagi uzlukli ishlaydigan vakuum quritish qurilmalari ishlatilmoqda.


Rafinatsiyalangan va gidratatsiyalangan moylarni uzlusiz usulda quritishda quritish deaeretsiya qurilmasi ishlatiladi. Bu qurilma vakuumda ishlaydigan bo'lib, u silindrsimon vertikal ko'rinishida bo'lib, 89-rasm ikki qism, 5 ustki korpus, 1 ostki korpuslardan iborat, bu korpuslar bir-biri bilan 2 flanesli birikma bilan biriktirilgan.

Ustki korpusning yon tomoniga 3 flanesli patrubka bo'lib, unga 4 sachratgichlar bloki o'matilgan, bu blok uchta 24 sachratgichdan tashkil topgan, sachratgichlar moy keladigan truba provodga 28 vtulka bilan birlashtirilgan. Sachratgichlar blokining tepasiga novasimon 7 tomchi qaytargich o'matilgan. Sachratgichlarni qarama-qarshi tomoniga korpusga 8 kuzatish oynasi o'rnatilgan. Pastki korpusning ustki qismiga 9 kontakt sirt o'matilgan bo'lib, u tarelka va to'siqlardan tuzilgan. Pastki korpusning yon tomonidagi patrubkaga 10 flanesga 11 qalquvchi sathi boshqargich o'matilgan. Korpusning ostki tomoniga 18 flanesga 20 bug' yuboradigan zmeyevik o'matilgan. Qurilmaga 21 moy sathini ko'rsatuvchi shishali o'lchagich o'matilgan.

Qurilmaga nam moy 22 jo'mrakdan yuboriladi, bug'langan suv bug'i 6 jo'mrakdan chiqariladi va qritilgan moy 19 jo'mrakdan tortib olinadi. Qurilmani sirti izolatsiya qavati bilan qoplangan.




87-rasm. Yuviş vakuüm-quritish va rüngs ziantirish qurılması:
 1-korpus; 2-komissimon tub; 3-bug' qavatı; 4-gopgoq; 5-elektrodvigatel;
 6-uzatma; 7-kurakli aralashtrigich; 8-vai'; 9-səchrətgichlar; 10-truba; 11-luk;
 12-kuzatish oynası; 13-jo'mrak, 14-manometri; 15-vakuumet; 16-termometr;
 17-satı ko'rsatgich; 18-moy qayış patrubkasi.



88-rasm. Yuvishti vakuum-quritish va rangsizlantirish qurilmasiga adsorbent yuborish jarayonining texnologik sxemasi;

1-rangsizlantirish qurilmasi; 2-sig 'im; 3-voronka; 4-havo yuborish kamerasi; 5-patrubka; 6-yuklash moslamasi; 7-qaytargich; 8-filtr; 9-adsorbent harakatlanadigan truba; 10-magistral truba.



89-rasm. Uzluksiz ishlaydigan quritish dearatsiyalash qurilmasi:

1-ostki korpus; 2-flanesli birikma; 3, 10, 18-flanes; 4-sachratgichlar bloki; 5-ustki korpus; 6-bug' chiqadigan patrubka; 7-novcimon tomchi qaytargich; 8, 21-kuzatish oynasi; 9-kontakti yuzzsi; 11-qalqavchi sat boshqargich; 12-mushtsimon mexanizmi; 13-qo'zg'uluvchi shtok; 14-klapan; 15-jo'mrak; 16-qo'zg'aluvchan rinchai; 17-tayanch; 19-quritilgan moy chiqadigan jo'mrak; 20-zmeyevikli qizdirgichi; 22-quritiladigan moy yuboriladigan kollektor; 23-biriktirish vtukasi; 24-sachratgich.

Qurilma quyidagi tartibda ishlaydi. Rafinatsiyalangan moy sachratgichlar blokiga 3,0 kgs/sm² dan kam bo'lмаган bosim bilan yuboriladi va sachratgichlar moyni yuqoriga tomchi shaklida purkaydi. Qurilmada bug' ajralib vakuum nasos yordamida har doim 20–40 mm.sim.ust. Qoldiq bosim hosil qilinadi. Tarkibida namlik saqlagan moy past bosimli muhitga tushishi bilan uning tarkibidagi suv tezlik bilan bug'lanib vakuum nasos yordamida so'rib olinadi. Tomchi ushlagich 7 suv bug'lari bilan vakuum nasosga so'rيلayotgan moy tomchilarini saqlab qoladi. Qurigan moy tomchilar qizib turgan kontaktli sirtga kelib tushadi va bu yerda yupqa qavatda harakatlanib qo'shimcha quritiladi va dearatsiyalananadi, quritilgan moy ostki qismga to'planib 19 jo'mrakdan nasos yordamida uzlaksiz chiqarilib turiladi. Moy qurilmada 80–90°C haroratda to'liq quritiladi.

14.2. Moylarni rangsizlantirish qurilmalari


Hozirgi vaqtida yog'-moy sanoatida moylarni uzlaksiz usulda rangsizlantirish uchun uch turdag'i qurilmalar: «De Smet» (Belgiya), «Speyshim» (Fransiya) va «Okrim» (Italiya) liniyalari ishlatilmoqda.

«De Smet» qurilmasi bir sutkada 120 tonna moyni rangsizlantirish quvvatiga ega bo'lib, bunda 1,2 % adsorbent qo'shiladi. Bu liniyani texnologik sxemasi 90-rasmda ko'rsatilgan bo'lib, bu liniyada asosiy texnologik qurilmalar dastlabki va oxirgi bosqichda rangsizlantiruvchi qurilmalar va filtrlardir.

Rangsizlantiriladigan moy rafinatsiyadan so'ng 2 nasos yordamida 1 sig' imidan bir qism 8 aralashtirgichga rangsizlantiruvchi tuproq bilan aralashtiriladi. Tuproq 6 sig' imidan 7 me'yorlovchi shnek yordamida aralashtirgichga beriladi.

Aralashtirgich rangsizlantrish qurilmasini yuqoridagi diskasiga yuboriladi, diska 274 ayl/min aylanib turadi. Shu vaqtning o'zida moyning asosiy qismi 5 qizdirgichda 90°C gacha qizdirilgan holda dastlabki rangsizlantirish qurilmasining ikkinchi va uchinchi diskasiga kelib tushadi. 9 qurilmada vakuumda moyning tomchi holda sachrab tushishi natijasida moy quritiladi va quritilgan moy 11 nasos yordamida 10 qizdirish qurilmasiga ya undan moy tuproq aralashmasi oxirgi rangsizlantirish qurilmasi 12 ga uzatiladi. Bu qurilmada vakuum 13 bug' ajralib nasoslar yordamida hosil qilinadi, moy sachratgichlar yordamida tomchi holda sachratib beriladi. Shundan

keyin moy 15 filtriash qurilmasiga va filirlangan moy 17 sig'imga yig'iladi.




90-rasm. Moylarni uzlusiz rangsizlantiradigan «DE-SMET» qurilmasining texnologik skeenasi:

1-sig'im; 2, 11, 14-nasas; 3, 4-retametr; 5 10-qizdirgich; 6-adsorbenili sig'im; 7-me'yurlovchi shnek; 8-araclashirgich; 9-dastlabki bosqich rangsizlantirish qurilmasi; 12-oxirgi boswich rangsizlantirish qurilmasi; 13-bug' ejektori; 15-filtr; 16-loyqa moyni toplash sig'imi; 17-filrlangan moyni yig'ish siy'im?


Dastlabki bosqichda rangsizlantirish qurilmasi 91-rasm, silindrsimon bo'lib, u 1 korpus va ikk ta ustki 3, pastki 2 yoysimon qopqoqlarda va 4 bug' qavatidan tashkil topgan. Silindr o'rtasidan 5 o'q o'tgan bo'lib, unga uchta 6 diska va ikkita 7 aralashirgich o'matilgan. Ustki yoysimon qopqoqla 9 luk va vakuum sistemasiga ulash uchun 10 jo'mrak o'matilgan. Qurilmaga moy tuproq aralashmasi diskalarga beriladi. Qurilma moy sathi 13 qalquvchi sathi boshqargich orqali bir sathida saqlanib turiladi. Moy qurilmadan 14 jo'mrak orqali uzlusiz chiqarib turiladi.

Ikkinchisi bosqich oxirigacha rangsizlantirish qurilmasi diametri 750 mm va balandligi 5000 mm bo'lgan kolonna tipidagi 92-rasm qurilma bo'lib, 1 korpus, 2 bug' qavat va korpusga flanes bilan biriktirilgan 3 ostki qismi va o'ng tirkishilgan 4 qalquvchi sath boshqargichdan tuzilgan. Ustki qismining konusimon kengaygan qismiga 5 separator biriktirilgan bo'lit, u moy tomchilarini ajratish

uchun xizmat qiladi. Qurılma 6 jo'mrak orqali vakuum sistemasiga ulangan. qurilmadagi qoldiq bosim 4kPa ga teng. Qurilmaga suspenziya nasos yordamida uzlusiz 7 jo'mrak orqali uzatiladi va 8 sachratgich orqali konussimon 9 zontga sepiladi va zontdan qurılma devoriga oqib ostki qismidagi 10 jo'mrakdan filtr qurilmasiga uzatiladi. Loyqa moy filtlardan qaytgan loyqa moy 11 jo'mrak orqali qurilmaga qaytib kiradi.



91-rasm. Dastlabki bosqich rangsizlantirish qurilmasi:
1-korpus; 2-tubi; 3-qopqoq; 4-bug' qavat; 5-val; 6-gardish; 7-aratashirgich; 8,
15-podshipniklar; 9-luk; 10-jo'mrak; 11, 12-patrubka; 13-qalquvchi klapan;
14-moy chiqadigan jo'mrak.



92-rasm. Oxirgi bosqich rangsizlantirish qurilmasi:
1-korpus; 2-bug' qavat; 3-tubi; 4-qalquvchi klapan; 5-separator;
6, 7-patrubka; 8-sachratgich; 9-zont; 10, 11-jo'mrak.

Tayanch ihortalar

Moyni uzlukli usulda quritish va rangsizlantirish qurilmasi,
uzluksiz usulda ishlaydigan quritish dearatsiyalash qurilmasi, «De

Smet» rangsizlantirish texnologik liniyasi, birinchi bosqich rangsizlantirish qurilmasi, ikkinchi bosqich rangsizlantirish qurilmasi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ishqoriy rafinatsiyadan keyin moyni yuvish va quritish qurilmasini tuzilishi va ishlashini tushuntiring.
2. Uzlukli usulda moyni vakuumda quritish va rangsizlantirish qurilmasining sxemasini chizing.
3. Uzluksiz usulda moyni quritish qurilmasini tuzilishini chizing va ishlashini izohlang.
4. Moylarni uzlusiz usulda rangsizlashtirishda ishlatiladigan «De-smet» qurilmasini tuzilishini chizing va ishlashini izohiang.

15-bob. MOYLARNI HIDSIZLANTIRISH QURILMALARI

Moylarni hidsizlantirish jarayoni to'liq rafinatsiyalash jarayonining eng oxirgi bosqichi bo'lib, bunda maqsad hidsiz va mazasiz moy olish va moyni tarkibidan pestitsid va 3,4-benzapirin moddalaridan to'liq tozalash. Bu jarayon margarin va konserva mahsulotlari ishlab chiqarishda ishlatiladigan moylar uchun muhim ahamiyatga ega.

Hidsizlantirish jarayoni bug'latish jarayoni bo'lib, bunda jarayon yuqori haroratda va past bosimda bug' yordamida amalga oshiriladi. Bu jarayon uch bosqichdan iborat bo'lib, moy tarkibidagi hid hosil qiluvchi moddalarни moy qatlamidan bug'lanish qatlamiga chiqarishi, ularни bug'latish va hid beruvchi moddalar molekulasini bug'lanish zonasidan olib chiqish.

Hozirgi vaqtida moylarni hidsizlantirshda turli tipdagи qurilmalar ishlatilmoqda. Bu qurilmalar ishlash usuligi ko'ra uzlukli, yarim uzluksiz ishlaydigan tiplarga bo'linadi. DS tipdagи hidsizlantirish qurilmasi kam hajmdagi moylarni uzlukli usulda hidsizlantirish uchun ishlatiladi. Qurilmaning sig'imi 5 tonna. U 93-rasm yaxlit zanglamaydigan 12x18N9T tipdagи po'latdan payvandlash yo'li bilan tayyorlangan. Qurilma silindrsimon 1 korpus va unga payvandlangan ellipssimon qopqoq 2 va osti 3 dan tuzilgan. Korpusning ostki qismning ichiga olti dona zmeyevik 4 o'matilgan, ularning uchtasi moyni qizdirish uchun va uchtasi hidsizlantirilgan moyni sovitish

uchun xizmat qiladi. Qurilmaning ustki tomoniga o'qi bo'yicha 5 kamera payvandlangan bo'lib, bu kamerasining yon tomoniga 6 jo'mrak o'matilgan, bu jo'mrak vakuum sistemasiga ulangan bo'lib, unda havo, uchuvchan moddalar va suv bug'i so'riladi. Qurilmada ta'mirlash va tozalash ishlarini bajarish uchun 7 qopqoq qo'yilgan. Ta'mirlash ishlarini bajarish vaqtidu torichi qaytaruvchi 8 to'siq olib qo'yiladi.

Qurilmaning ustki qopqog'inining tashqi qismiga zmeyeviklar o'matilgan bo'lib, u qopqoqni qizdiradi va bunda uchuvchan moddalarini qurilma devorlariga kondensatsiyalanishining oldi olinadi.


Qurilmaning ostki qismiga o'tkir bug' tarqatish kamerasi 11 bo'lib, bu kamerasaga joylashtirilgan barbatyoriarga bug' 10 patrubka orqali beriladi. O'tkir bug' tarqatish barbatyori olti dona bo'lib, uning tuzilishi 94-rasmda ko'rsatilgan.

Bug' yuborish kamerasini ostiga 18 dan gorizontal forsunkali aralashirgich 12 o'matilgan bo'lib, u moyni qurilma ichida bir tekis aylanib aralashishini ta'minlaydi.


Hidsizlantirilgan moy 13 jo'mrak orcali bo'shatiladi. Qurilma ichidagi jarayoni kuzatish uchun ustki qopqog'iga va yon tomoniga 14 kuzatish oynasi o'matilgan.

Qurilmada bitta siklini davom etish vaqt 4,5 soat bo'lib, u quyidagi operatsiyalardan a) moy bilan to'ladirish, b) 30–40 minut vaqt davomida 170–180°C gacha vakuuniida o'tkir bug' yuborib qizdirish, d) belgilangan vakuumda hidsizlantirish 210°C haroratda, e) 100–110°C gacha sovitish zmeyeviklariga sovuq suv yuborib 16–18 kPa qoldiq bosimda o'tkir bug' bilan sek'in aralashirib sovitish, f) hidsizlantirilgan moyni bo'shatish.


Hozirgi vaqtida yog' – moy sanoati korxonalarida uzlukli usulda ishlaydigan 95-rasmda ko'rsatilgan hidsizlantirish qurilmalari ham ishlatalib kelinmoqda.



93-rasm. Uzlaksiz ishlaydigan D-5 tipidagi hidsizlantirish qurilmasi:
1-korpus; 2-ustki qopqoq;
3-ostki qopqoq;
4-zmeyevik; 5-kamera;
6, 10-patrubka; 7-qopqoq;
8-tonchit qaytarqach;
9-zmeyevik; 10-patrubka;
11-o'tkir bug' tarqatish kamerasi;
12-forsunka;
13-jo'mrak.



94-rasm. D-5 tipidagi hidsizlaniresh qurilmasini o'tkir bug' tarqatish barbatyori:
1-korpus; 2-tarqatish trubasi;
3-patrubka;
4-forsunka;
5-teshik-teshikli sektor.




95-rasm. Hidsizlantirish qurilmasi:

1-zmeyevik; 2-barbotyor; 3-barbotyorga bug' yuborish trubasi; 4-gazlift;
5-trubalar panjarasi; 6, 7-trubalar birikir iladigan panjara; 8-qalpoq; 9-g'ilof;
10, 18-qaytargich, 11, 12-qaytargich, 13-ajratish bo'shilig'i; 14-ustki kamera;
15-qopqoq; 16-gazliftini ko'tarish trubasi; 17-gazliftiga bug' yuborish trubasi.

Qurilmada o'rtacha 1 tonna moy ni hidsizlantirishda 100 kg o'trik bug' va 200 kg isitish bug'i sarfi bo'laci.

Yog'-moy sanoati korxonalarida moyni uzlusiz usulda hidsizlantirish uchun A1-MND tipidagi, «De Smet» va «Alfa-Laval» firmalarida ishlab chiqarilgan qurilmalar ishlatilmogda. Bunday qurilmalarning ish unumдорligi 80 ton/sut dan 150 ton/sut ga teng. A1-MND uzlusiz usulda hidsizlantirish liniyasini texnologik sxemasi 96-rasmda ko'rsatilgan.



96-rasm. Moylarni uzuksiz usulda hidsizlantiradigan Al-MND liniyasini texnologik sxemasi:


1, 5, 8, 15-nasos; 2-sarf o'lchagich; 3, 6-qizdirgich; 4-deaerator;
7-hidsizlantirish qurilmasi; 9-soviygich; 10-tomchi ushlagich; 11-bug'-ejektorli
vakuum nasos; 12-barometrik kondensator; 13-sirtiy soviygich; 14-oraliq sig'im.

Bunda rafinsiyalangan moy sig'imdan 1 nasos va 2 sarf o'lchagich orqali o'tib ikki yo'lli g'ilofli 3 qizdirgichga beriladi, bu qizdirgichda dastlabki qizdirilgan moy 4 dearator-qizdirgichga beriladi va bu yerda tepadan pastkka tomon yupqa pylonka qavatida oqib tushib, zmeyevikdan o'tayotgan hidsizlantirilgan moy yordamida 130–180°C gacha qizdiriladi. Bu qurilmada vakuumda moy dearatsiyalanadi va moy 5 nasos yordamida 6 qizdirgichga yuboriladi va bu yerda bug' yordamida hidsizlantirish haroratigacha qizriladi. Qizdirgichda 180–220°C gacha qizdirilgan moy 7 hidsizlantirish qurilmasining ustki qismidagi sachratgich orqali qurilma ichiga sepilidi. Hidsizlantirilgan moy qurilmaning ostki qismidagi jo'mrakdan 8 nasos orqali uzuksiz chiqarib turiladi. Qurilmaning vakuum sistemasiga 10 tomchi ushlagich o'matilgan bo'lib, u moy tomchilarining bug'dan ajratish uchun xizmat qiladi. Qurilma vakuum besh bosqichli bug' ejektorli vakuum nasos yordamida hosil qilinadi. Bu liniyada o'matilgan hidsizlantirish qurilmasi 97-rasmda

ko'rsatilgan bo'lib, u vertikal silinç shäklidagi qurilma bo'lib, u uch qismdan: I bosh qismi maxsus sachratish uskunasi bilan, II o'tna qismi va III kengaygan qismdan tashkil topgar.


Qurilmaga qizzdirilgan moy 0,1 mPa bc sim bilan 1 jo'mrak orqali 2 sachratgichga uzatiladi. Sachratgichdar moy 3 yarim trubaga biriktirilgan 38 dona 4 plastinkalarga sevildi. Bu plastinkalarda moy yupqa plynoka holida harakatlanib pastdan yuqoriga ko'tarilayotgan o'tkir bug' yordamida qizzdiriladi va moy 7 markaziy trubaga oqib tushadi va undan oltitaga ajratilgan 11 kameralarga o'tadi. Ostki qismdagi har bir kamerasiga 8 bug' injektori bo'lib, ularga o'tkir bug' 10 kollektor orqali uzatiladi. Ostki kameralarning uchtasiga 12 zmeyevikli qizdirgich o'rnatilgan. Qurilmadan moy 9 jo'mrak orqali chiqariladi. Qurilmaning butun korpusi tasliqarisidan zmeyevik bilan o'ralgan bo'lib, uridan bug' o'tib turadi. Ostki qismiga 6 kuzatish oynasi va 14 trubka bo'lib unga nazorat o'chov uskunalar o'rnatiladi. Qurilmaga 15 sig'indan uzlksiz usulda 20 %li limon kislotosini oksidlanish jarayonlarini borishiga yo'l qo'ymaslik uchun berib turiladi.

Qurilmaning bir sutkalik ishlumdozligi 80 tonnaga teng. Keyingi yillarda yog'-moy sanoatida holo ina tipidagi hidsizlatirish qurilmasi bo'lgan texnologik liniyalar ishlatilmoqda, bunday texnologik liniyalarga «Alfa-Laval» va «Spomaash» (PXR) 98,99-rasm liniyalarini ko'rsatish munikin. Bu liniyalarda o'rnatilgan hidsizlatirish qurilmalarining konstruksiyasi 100–101-rasmlarda ko'rsatilgan.




97-rasm. Uzluksiz ishlaydigan hidsizlantirish qurilmasi:

I-bosh qismi; II-o'rtal qismi; III-ostki qismi; IV-plastinkalar paketi.
 1-jo'mrak; 2-sachratgich; 3-markaziy truba; 4-plastinkalar; 5, 13-tayanch;
 6-kuzatish oynasi; 7-markaziy bo'lim; 8-bug' ijektori; 9-chiqarish trubasi;
 10-bug' yuboriladigan sig'im.




98-rasm. «Alfa-Laval» firmasining hidsizlantirish qurilmasini texnologik sxemasi:

1, 5, 17, 18, 21-nasos; 2-filtr; 3-deaerator; 4-sig 'i.n; 6-qahrabot kislotali sig 'im; 7-me yorlovchi nasos; 8-plastinkali sovitg'ich; 9-bug' ejektori; 10-hidsizlantirish qurilmasi; 11-skruber; 12-bug' ejektorli vakuum nasos; 13, 14, 19, 20-qizdirgich; 15-filtr; 16-suv havzusi.




99-rasm. Polsha xalq Respublikasida ishlab chiqarilgan hidsizlantirish qurilmasining texnologik sxemasi:

1, 13, 14, 17, 18, 20-nasos; 2, 9-qizdirgich; 3-deaerator; 4-vakuum nasos; 5-hidsizlantirish qurilmasi; 6-bug' ejektorli vakuum nasos; 7-tomchi ushlagich; 8, 10-sovitgich; 11-filtr; 12-suv havzasi; 15, 16-sig 'im; 19-limon kislotali sig 'im; 20-bug' qizdirg.ch.



100-rasm. Hidsizlantirish qurilmasi (Alfa Laval):

1-korpus; 2-tarelka; 3-vakuum patrubkasi; 4-to'siq; 5-quyish trubasi;
6-barbatyor; 7-bo'shatish trubasi; 8-kuzatish oynasi; 9-hidsizlantirilgan moy
chigish patrubkasi; 10, 14-jo'mrak; 11-tubi; 13-bo'shatish trubasi; 15-moyni
qurilmaga berish patrubkasi; 16-skruberdag'i moyni bo'shatish trubasi;
17-skruber; 18-luk; 19-Rashiga nasadkasi; 20-sachratiladigan moy qo'yish
trubasi; 21-skruberni vakuum patrubkasi; 22-demistrol qatlami;
23-tarqatish trubasi; 24-qaytargich; 25-patrubka.



101-rasm. Hidsizlantirish qurilnasi (PXR):

1-qopqoq; 2-vakuum patrubkasi; 3-moy kiradigan patrubka; 4-vakuum shaxtasi;
 5-korpus; 6-moyni qiyish trubasi; 7-vakuum trubasi; 8-vakuum shaxtadagi
 moyni bo'shatish trubasi; 9-sath ko'rsatilich o'rnatiladigan patrubka;
 10-zmeyevik; 11-moy kiradigan truba; 12-hidsizlantirilgan moy chiqadigan
 patrubka; 13-o'tkir bug' kiradigan pairabki; 14-tubi; 15-zmeyevikdan moy
 chiqadigan patrubka; 16-qahrabo kislotszi yuboriladigan patrubka; 17-luk;
 18-o'tkazish trubasi; 19-barbatyoz; 20-tarelka, 21-to'siq; 22-qaytargich;
 23-qizigan bug' kiradigan patrubka; 24-qizdirish zmeyeviki; 25-termometr
 o'rnatiladigan patrubka; 26-o'tkir bug' kiradigan patrubka.

Tayanch iboralar

Hidsizlantirish, hid va ma'za hosil qiluvchi moddalar, D-5 tipidagi hidsizlantirish qurilmasi, ish sikli, uzlusiz ishlaydigan hidsizlantirish qurilmasi, A1-MND liniyasini texnologik sxemasi.

NAZORAT SAVOLLARI


1. Moylarni hidsizlantirish va uni amalga oshirish usullari.
2. Uzlusiz ishlaydigan hidsizlantirish qurilmasi.
3. Hidsizlantirish jarayonining vazifalari.
4. Moy tarkibidagi hid va maza hosil qiluvchi moddalar.
5. D-5 tipidagi qurilmani kontruksiyasi va ishlashini izohlang.
6. A1-MND tipidagi uzlusiz usulda ishlaydigan hidsizlantirish jarayonining texnologik sxemasini tushuntirib bering.
7. Hidsizlantirish qurilmalarida vakuumni hosil qilishni izohlang.
8. «Alfa-Laval» tipidagi texnologik liniyada o'matilgan hidsizlantirish qurilmasini konstruksiyasini chizing.
9. «Spomash» tipidagi texnologik liniyada o'matilgan hidsizlantirish qurilmasining konstruksiyasini chizing.

16-bob. MOYLARNI GIDROGENIZATSİYALASH QURILMALARI

O'simlik moylari odatdagagi normal sharoitda suyuq holatida bo'ladi, bunga sabab moyining asosiy qismini tashkil etuvchi triglitseridlар tarkibiga kiruvchi yog' kislotalarining 70–80 %ni to'yinmagan yog' kislotalari tashkil etadi. Sanoatda va turmushda suyuq moylar bilan bir qator qattiq yog'lar ham ishlatiladi. Yog'larga bo'lgan ehtiyojni hayvonlardan olinadigan yog'lar qondira olmaydi, shu sababdan ham suyuq moylarni qattiq yog' larga aylantirish ehtiyoji mavjud. Buning uchun sanoatda suyuq moylarni gidrogenizatsiyalash jarayoni qo'llaniladi. Bundan maqsad yuqori haroratda suyuqlanadigan yog'lar olish. Bunda gidrogenizatsiyalash jarayoni natijasida suyuq moylar tarkibidagi triglitseridlarni tashkil etuvchi to'yinmagan yog' kislotalari vodorod bilan to'yintiriladi va natijada faqatgina yuqori harorat va bosimda katalizatorlar ishtirokida ro'y beradi. Katalizator bu kimyoviy reaksiyalarni tezlashtirib, o'zi kimyoviy reaksiyaga kirishmaydigan va olinadigan mahsulot tarkibiga

kirmaydigan moddalar hisoblanadi. Gidrogenizatsiya asosida olingan qattiq yog'lar margarin, oshpezlik yog'lari, qandolatchilik ishlatalidigan yog'lar ishlab chiqarish uchun asosiy xomashyo hisoblanadi.

Moylarni gidrogenizatsiyalash jarayonlari avtoklav va kolonna tipidagi reaktorlarda amalgा oshiriladi. Avtoklavlarda moylarni gidrogenizatsiyalash uzlukli va uzluksiz usulda amalgа oshiriladi. Kam miqdordagi moylarni gidrogenizatsiyalash bitta yoki ikkita avtoklavda uzlukli usulda amalgа oshiriladi. Ko'p miqdordagi moylar uchta avtoklavda iborat avtoklavlar batareyasida uzluksiz usulda amalgа oshiriladi. Uzlusiz usulda avtoklavlarda moylarni gidrogenizatsiyalash jarayonini tekhnologik sxemasi 102-rasmda ko'rsatilgan. Bunda gidrogenizatsiyalashidan moy 1 sig'imdan me'yorlovchi nasos 2 orqali 3a birinchi avtoklavga, 4 issiqlik almashinish qurilmasida isitilib uzatiladi. Bu issiqlik almashinish qurilmasida moy 3v avtoklavdan chiqayotgan salomas orqali isitiladi. Bir qism moy katalizator suspenziyasiri tayyorlash uchun 12 retora qurilmasiga uzatiladi. Retortida qayta tiklangan katalizator 6 aralashtirgichga uzatiladi. Bu aralashtirgichga 10 nasos orqali 7 salomas yig'gichdan yoki filtrpressdan 9 aralashtirgichdan ishlataligan katalizatorlar ham 6 aralashtirgichga uzatiladi. Me'yorlovchi 5 nasos orqali katalizator birinchi avtoklavga yuboriladi va bir vaqtning o'zida sachratgichdan vodorod ham yuborilaci. Birinchi avtoklavda gidrogenzatsiyalashning birinchi bosqichi tugaganidan so'ng reaksiyon massa o'z-o'zidan keyingi avtoklavlarga o'tadi. Oxirgi avtoklavdan tayyor mahsulot aralashmasi salomas va katalizator 4 issiqlik almashinish qurilmasida sovitilib 11 nasos orqali 7 salomas qabul qilish sig'imiriga yig'iladi va u yerdan 3 nasos orqali tarkibidagi katalizatorni ajratish uchun filtrpress qu'ilmasiga uzatiladi. Ajratilgan katalizator regeneratsiyalash uchun katalizator bo'limiga va bir qismi qayta tiklash uchun 6 aralashtirgichga yuboriladi.



102-rasm. Moylarni avtoklavlarda uzlusiz gidrogenizatsiyalash jarayonining texnologik sxemasi:

1-sig'im; 2-me yorlovchi nasos; 3a, 3b, 3v-avtoklav; 4-qizdirgich;
 5, 8, 10, 11-nasos; 6-araslashtirgich; 7-salomas yig'gich; 9-katalizator yig'gich;
 12-retorta; 13-tomchi ushlagich; 14-yig'gich; 15, 16-skruber;
 17-tomchi ushlagich; 18- resiver.




Ortiqcha vodorod avtoklavdan 13 tomchi ushlagichga, bu yerda vodoroddan yog' tomchilar va yog' kislotalari ajratiladi va ajratilgan tomchilar 14 yig'gichga yig'iladi. Ajratilgan vodorod 15 va 16 skrubberlarda suv sepib sovitiladi, 17 tomchi ushlagichdan o'tib 18 past bosimli resiverga uzatiladi. Avtoklavdan chiqan, ya'ni ishlangan vodorod va toza vodorod qo'shib kompressorga va undan yuqori bosim resiverga, moy ajratgichga va undan sovitish uchun sovitgichga yuboriladi. Sovitilgan vodorod nam ajratgichda nami ajratilib avtoklavga yuboriladi, avtoklavda yuborishda quyidagi nisbatda: birinchisiga 50 %, ikkinchisiga 30 % va uchinchisiga 20 % yuboriladi. Yuborilayotgan vodorodning miqdori hajmiy rotatsion gaz o'lchagichlar orqali belgilanadi. Moy sarsini miqdori sarf o'lchagich orqali o'chanadi.

Moylarni hidrogenizatsiyalashda ishlatiladigan avtoklav 103-rasm silindrsimon vertikal 1 korpusdan va korpusga payvandlangan

ellipssimon ostki va ustki qopqoqlardan tashkil topgan bo'lib, o'rtaidan 2 turbinali aralashtirgichni vali o'tgan. Aralashtirgichni 3 motor reduktor harakatga keltiradi.

Qopqog'iga o'lchov jihozlari ornatish uchun 5 luk vodorod va katalizator yuboriladigan jo'mraklar o'matilgan. Qurilmaning ostki qismiga olti dona 6 zmeyeviklar c'matilgen bo'lib, ulardan uchtaси (kattasi) moyni qizdirish uchun, uchtaси (kichigi) moyni sovitish uchun xizmat qiladi. Ostki qopqog'iga 7 barbatyor va moyni bo'shatadigan 8 jo'mrak o'matilgan

Uzluksiz gidrogenizatsiyalashda avtoklavlar batareyasi bir-biri bilan korpusga o'matilgan 9 va 10 trubalar orqali tutashtiladi, bunda L-shaklidagi o'tkazish trubasi avtoklavdagi moy sathining balandligini belgilaydi va moyning sathini bir me'yorda ushlab turishini ta'minlaydi. Xuddi shuningdek, avtoklavdagi moy massasini birdan ikkinchisiga o'tkazish uchun, avtoklavning qopqog'idagi jo'mrakka gazlift o'matilgan. Gazlift bir-biriga kiritilgan 11 va 12 trubalardan iborat bo'lib, ular vertikal ravishda avtoklavning ichiga kiritilgan. Ichki trubaga diametri 2 mm li 24 ta testik bor. Diamenti 80 mm bo'lgan tashqi truba qurilma ostki qisimidан 30–40 sm balandlikda o'matilgan. Gazliftning ichki 12 trubasi orqali, barbatyor orqali yuborilayotgan vodorod gazining bosiridan 0,05 MPa ko'p bo'lgan gaz yuboriladi va buning natijasida truba ichida gaz suyuqlik aralashmasi hosil bo'ladi, bu hosil bc'lgan aralashinaning zichligi qurilma ichidagi aralashmaning zichligidan kichik, shu sababdan ham aralashma trubalar orasidagi oraliq kanal orqali ko'tarilib 14 truba orqali ikkinchi avtoklavga o'tadi. Avtoklavga o'matilgan trubinali aralashtirgich birinchi navbatda katalizator zarrachalarini cho'kishini oldini oladi va gidrogenizatsiyalayotgan moy bilan vodorodning o'zaro birikishini kuchaytiradi. Avtoklavning umumiyligi sig'imi 12 m³, uning ishchi sig'imi 6 tonna. Qurilmaga moy quyishda, moy sathidan 1,5 m bo'shliq qoldiriladi, bundan rivaqsad chiqib ketayotgan vodorod tarkibidagi moy tomchilarini ajralishini ta'minlash.




103-rasm. Moylarni hidrogenizatsiyalashda ishlataladigan avtoklav:
a-umumiyo ko'rinishi; b-gazlift. 1-korpus; 2-turbinali aralashshirgich; 3-motor
uzatma; 4-podshipnik; 5-luk; 6-zmeyevik; 7-barbatyor; 8, 9, 10-patrubka; 11,
12-ichki va tashqi truba; 13-flanes; 14-moy ikkinchi avtoklavga o'tadigan truba.

| | |
|------------------------------------------------|----------------------|
| Avtoklavning texnik tavsifi | |
| Geometrik sig'imi, m ³ | 12,5 |
| Moy quyiladigan sig'imi, ton | 6 |
| Vodorod bilan to'ldirilishi, m | 1-1,5 (moy sathidan) |
| Ichki diametri, mm | 2200 |
| Balandligi, mm | 5550 |
| Ishchi bosim, MPa qurilmada | 0,5 |
| Zmeyevikda | 6,0 gacha |
| Muhitdagi harorat, °C | 230 gacha |
| Trubinali aralashtirgichni aylanish | |
| chastotasi, ayl/min | 59 |
| Qizdirish zmeyevikining yuzasi, m ² | 22 |
| Sovitish zmeyevikini yuzasi, m ² | 18 |
| Og'irligi, kg | 5240 |

Retorta katalizatorlarni tilash uchun ishlataladi. Unda kukunsimon nikelli katalizator moy muhitida, 240–250°C haroratda 1,5–2 soat vaqt davomida nikel va mis tuzlari ishtirokida vodorod yordamida tiklanadi. Qurilma 104-rasm vertikal silindrsimon 1 korpus va ellipssimon 3 qopqoqdan iborat bo'lib, qopqoq korpusga flaneslar yordamida biriktirilgan. Qurilmani korpusi 12X18N10T markali kislotaga chidamli po'latdan tayyorlangan. Qopqog'ining ustiga 4 ustun qo'yilgan bo'lib, unga 15 ikki trubinali aralashtirgich harakatlantiradigan uzatma o'matilgan. Aralashtirgichni 7 valli 6 mufta yordamida uzatmaga ulangan. Qurilmani ichini ta'mirlash va nazorat qilish uchun 2 luk o'matilgan. Qurilma ichidagi aralashmani ta'mirlashni 4 MPa bosimli bug' yordamida qizdirish uchun 14 zmeyevik va sovitish uchun 12 zmeyevik o'matilgan. Qurilma ostki qismiga 1MPa bosimdag'i vodorodni uzatish uchun 16 aylanasimon tarqatgich o'matilgan. Qurilraga moy suspenziyasi va katalizator tuzlari 19 patrubkadan zmeyeviklar botguncha solinadi. Mahsulot qurilmadan 18 patrubkadan bo'shatiladi. 11 patrubkadan namuna olinadi. Ishlangan vodorod qopqog'iga o'matilgan jo'mrakdan chiqariladi. Qurilma istini nazorat qilish uchun qopqoqqa nazorat o'lchov astoblari o'matilgan.


Kolonna tipidagi gidrogenizatsiyalash qurilmalari uzlusiz gidrogenizatsiyalashda ishlatalib, unda yuqori titrli texnik salomaslar olishda ishlataladi. Kolonna tipidagi qurilmalarda yuqori bosimdag'i vodorodni ishlatalishi orqali jarayon tezlashadi.



104-rasm. Katalizator tayyorlanadigan retorta:
 1-korpus; 2-luk;
 3-ustki qopqoq;
 4-tayanch; 5-uzatma; 6-mufsta;
 7-val; 8,
 17-podshipnik; 9-moy tutgich;
 10-kurak;
 11-namuna olinadigan trubka;
 12, 14-zmeyevik;
 13-tutgich; 15-trubinali aralashtirgich;
 16-barbatyor; 18-jo'mrak;
 19-katalizator suspenziyasi solinadigan patrubka.

Moylarni gidrogenizatsiyalash bir-biri bilan bog'langan to'rtta kolonnada amalga oshiriladi. Bunda kolonnalar bir-biri bilan qo'yish trubalari orqali tutashtiriladi. Birinchi reaksiyon kolonnaning ostki tomonidan 2,5 3,0 MPa bosindagi moy, 5 %li mis-nikell katalizator suspenziyasi va vodorod yuboriladi. Reaksiyon kolonna 105-rasm, kislotaga chidamli 12x18N10T tipdagi po'latdan tayyorlanadi, uning

devorining qalinligi 6 mm bo'lib, l korpus balandligi 10000 mm, diametri 400 mm truba shaklida bo'lib, uning ustki va ostki qismi ajraladigan 2 va 6 qopqoqlar bilan berkitiladi. Kolonnaning ostki qismida isitish uchun 7 tashqi zmeyevik o'matilgan bo'lib, undan 3 MPa bug' harakatlansadi.



105-rasm
Moylarni uzluksiz
usulda gidrogeniza-
tsiyalashda
ishlatiladigan kolonna
1-korpus;
2, 6-qopqoq;
3, 5-patrubka;
4-bug' qavat;
7-zmeyevik.

Kolonnaning yuqoriga qismida 4 g'ilof bo'lib, undan qurilmadagi haroratni rostlashda foydalani adi. Moy, katalizator va vodorod aralashmasi aralashtirgichda tayyorlanib 5 truba orqali

kolonnaning ostki qismiga yuboriladi. Kolonna bo'ylab ko'tarilayotgan moy vodorod bilan to'yinadi va 3 patrubkadan keyingi kolonnaga o'tkaziladi. Harorat kolonkalar bo'ylab 205 dan 250°C gacha yetkaziladi. Kolonka tipidagi qurilmalarda faqatgina texnik salomas olinadi.

Tayanch iborular

Gidrogenizatsiya, avtoklav, uzuksiz gidrogenizatsiya, retorta, aralashtirgich, kolonna tipidagi reaktor.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Gidrogenizatsiya jarayon to'g'risida.
2. Avtoklavda uzuksiz usulda gidrogenizatsiyalash jarayonini mashina aparatura sxemasi.
3. Avtoklavni tuzilishi va ishlashi.
4. Retorta tuzilishi va ishlashi.
5. Katalizator suspenziyasi tayyorlash uchun aralashtirgich.
6. Kolonka tipidagi gidrogenizatsiyalash qurilmasi.

17-bob. VODOROD ISHLAB CHIQARISH VA ISHLATILGAN VODORODNI TOZALASH QURILMALARI

Gidrogenizatsiya korxonalari vodorodning asosiy iste'molchisi bo'lib, bir sutkalik quvvati 300 tonna salomas ishlab chiqarish korxonasiga 18–20 ming.m³ zarur bo'ladi. Eng asosiysi bu ishlatilayotgan vodorodning sisati bo'lib, vodorodni tozalik darajasi qancha yuqori bo'lsa, gidrogenizatsiyalash jarayoni ham shuncha tekis ketadi va olinadigar salomasning sisati ham yuqori bo'ladi.

Sanoatda vodorod quyidagi:

1. Elektrolitik
2. Konversiya
3. Jelezoparovoy usullarida olinadi.

17.1. Elektrolitik usulda vodorod olish qurilmalari

Vodorodni sanoat miqyosida ishlab chiqarishning eng ko'p qo'llanilayotgan usuli, bu elektrolitik usul bo'lib, uning afzalligi shundaki, gazning tozalik darajasini yuqoriligi (99,9 %gacha), qurilmalarining tuzilishining oddiyligi, xizmat ko'rsatishni osonligi,

ishlab chiqarish quvvatini oson boshqarilishi, tashqi muhitga va suvga zararli chiqindilarni chiqmasligi. Vodorod ishlab chiqarishning elektrolitik usuli ko'p elektr energiyasi sarf qiladi, bunda 1m³ vodorod olishda 5,6 kVt soat doimiy elektr toki surf bo'ladi. Bu usulda vodorod olish quyidagi prinsipga asoslangan. Elektrolizerdagi elektrolitdan doimiy elektr toki o'tqanda, H₂ va OH ionlarni razryadlanishi ro'y beradi va buning natijasida vodorod va kislorod gazlari hosil bo'ladi, hosil bo'lgan gazlar alohida-alohida elektrolizerdan ajratib olinadi.


Hozirgi vaqtida sanoatda vodorodni elektrolitik usulda olishda filtr-press tipidagi FV-250 va FV-500 elektrolizerlar qo'llanilmoqda. Bu qurilmalar bir-biridan elektrolizer yacheykalarining (84 va 160) soni bilan farq qiladi.

Elektrolizer 106-rasm yacheykalurdan iborat bo'lib, har bir yacheyka ikkita elektroddan: anod 3 va katod 2, va birta 4 diafragmadan iborat bo'lib, diafragma hosil bo'lgan gazlarni ajratadi. FV-500 tipidagi elektrolizeming ish unumdonligi 500 m³/soat vodorod va 250 m³/soat kislorod bo'lib, gazlarning bosimi 4,9—9,8 kPa ga teng.

Elektrolizerni yacheykasi diafragma to'rtburchak kesimli 1 po'lat ramadan va ajralayotgan gaz ar chiqadigan 5 kanallardan iborat bo'lib, 3 anod, 2 katod, 6 gazlar harakatlanadigan kanal va elektrolit eritmasi yacheykaga kiradigan 7 patrubkadan tashkil topgan. Qarshiligini va korroziyalanishini kamaytirish maqsadida 3 anodning yuzasi yupqa nikel qatlami bilan qoplangan. Katodning yuzasiga temir panjara o'rnatilgan.

Elektrolizer yig'ilgan holda 107-rasm 20 dona qoplamli 1 tayanchlarga o'matilgan. Bunda hamma 160 dona 3 yacheykalar 4 litalar orasiga 5 boltlar orqali qistiriladi.


Yacheykalarni o'tasiga 6 kamers bo'lib u elektrolitni filtrlangandan keyin sovitish uchun xizmat qiladi. Bu yerdan vodorod va kislorod alohida-alohida 7 tomchi ejratgichga va undan keyin 8 kondensatorga, kondensatorдан keyin 9 gaz yig'gich kamerasiga yig'iladi. Gaz yig'gichdan gazlar gazgolderga yuboriladi.



106-rasm. Elektrolizer yacheykasi:
1-po'lai rama; 2-katod; 3-anod; 4-diafragma; 5, 6-gaz o'tadigan trubka.


Elektrolit eritmasi tayyorlash V distillatorda, distirlangan suv olish bilan amalga oshirildi. Distillangan suv IV sig'imga yig'iladi, elektrolit eritmasi distirlangan suvgaga kaliy ishqori qo'shib tayyorlash VI sig'imida amalga oshiriladi. Elektrolit eritmasi elektrolizerga VII nasos yordamida uzatiladi.

Gazgolder 108-rasm elektrolitik yoki boshqa usulda olingan vodorodni yig'ish va saqlash uchun ishlataladi. Gidrogenizatsiyalash korxonalarida asosan ho'l gazgolderlar ishlataladi, ularda hajmning o'zgarishi silindrsimon 1 sig'imni vertikal yo'nالishda 6 suv sig'imida harakatlanishi natijasida amalga oshadi. Suv havzasini silindrsimon shaklida metalldan yoki temir betondan tayyorlanadi. Qish vaqtida hovuzdagi suv havzasini ostiga o'rnatilgan 5 truba orqali keladi va sig'im gaz bilan to'lishi natijasida u ko'tarilib boradi. Bunda sig'im ichidagi gazning bosimi ortib boradi. Gazgolderni to'g'ri vertikal ko'tarilishi 4 ustun bo'ylab harakatlanadigan roliklar yordamida amalga oshadi.



107-rasm. FV-500 elektrolzeri:

I-elektrolzer; II-vipryamitel uskuraşı; III-mapor sig'imi; IV-sig'imi;
V-distillator; VI-elektrolit tayyorlananıǵıan sig'ımı; VII-nasos; VIII-elektrolit
to qıladıǵıan sig'ımı. 1-tayanch; 2-filir; 3-elektrolzer yacheýkasi; 4-plita;
5-mahka nlowıhi.



108-rasm. Gazylder:


1-kolokol; 2, 5-truba; 3-jo'mrak; 4-yo'nahiru'chi zels; 6-suv hovuzı; 7-zadvijka.

Gazgolderdan gaz 2 turba orqali chiqadi va 7 zadvijka orqali avtoklav bo'limiga yuboriladi. Gazgolderni shamollatish 3 kran orqali amalga oshiriladi.

Gazgolderni sig'imi 100, 300, 600, 1000 va 2400 m^3 , diametri 6000 dan 18000 mm va balandligi 4000 dan 10 000 mm gacha bo'ladi.

Avtoklavdan chiqayotgan vodorod tarkibida uglerod oksidlari metan, azot, kislород, томчи holdagi moy, namlik, kichik molekulalı yog' kislotalari va boshqalar bo'ladi. Uzlusiz usulda avtoklavlar batareyasida gidrogenizatsiya qilinganda vodorodni tozalash sistemasiga bir soatda 1500 m^3 vodorod keladi. Vodorod tarkibidagi aralashmalar turli-tuman bo'lganligi uchun ularni tozalashda turli tipdagi qurilmalar ishlataladi.

Birinchi navbatda vodorod tarkibidagi mexanik bog'langan yog'lar markazdan qochma tomchi ushlagichda 109-rasm ajratiladi. Bu qurilma diametri 1000–1200 mm bo'lgan silindrik shaklidagi 1 korpusdan va ajratiladigan 2 qopqoqdan iborat bo'lib, unga avtoklavdan chiqqan vodorod 4 trubka orqali kiradi. Qurilma ichidagi spiralsimon 6 o'ramda harakat qilayotgan vodorod tarkibidagi yog' tomchilari markazdan qochma kuch ta'sirida 5 silindrik devorlariga borib uriladi va ostiga tushib 7 patrubkadan chiqariladi. Bir qism tozalangan vodorod 3 trubkadan keyingi bosqich tozalash qurilmasiga o'tadi.




109-rasm. Markazdan qochma torchi tutqich:
1-korpus; 2-qopqoq; 3, 4-patrubka; 5-s'ind'; 6-o'ram; 7-jo'mrak.

Vodorodning tozalashni keyinzi bosqichi uni sovitish va yuvish bo'lib, bu jarayon suv skrubberida 110-rasm amalga oshiriladi. Skrubberning korpusi 1 uglerodli po'latda tayyorlangan bo'lib, sovuq suv 0,2 MPa bosimda 3 kollektor orqali chti dona 5 sachratgichiga uzatiladi va mayda torchi holida pastidan yuqoriga ko'tarilayotgan vodorod oqimiga sepiladi. Vodorod qurilmaga 6 patrubka orqali kirib

2 yuqorigi patrubkadan chiqadi. Ortiqcha suv aralashmalar bilan birga 8 patrubkadan chiqarilib turadi.

Yog' aralashmalar sovuqda 8 patrubkani bekitib qo'yishi mumkin, buni oldini olish uchun skrubber vaqtiga vaqtiga bilan 7 patrubkadan bug' yuborilib proparka qilib turiladi. Qurilmadagi bug' 4 patrubkadan chiqariladi. Qurilmaning hajmi $3,5 \text{ m}^3$, og'irligi 860 kg. Qurilma ichini kuzatish va ta'mirlash uchun 9 luk o'rnatilgan.



110-rasm. Vodorod gazini yuvadigan va sovitadigan sukrubber:
1-korpus; 2, 4, 6, 7, 8-patrubka; 3-kollektor; 5-purkagich; 9-luk.

Vodorod tarkibidagi suvgaga erimaydigan aralashmalarni ajratish uchun ishqorli skrubber qurilmasi qo'llaniladi, bu skrubberning konstruksiyasi xuddi suv skrubberiga o'xshash bo'lib, uning ichiga sopol xalqachalari joylashtirilgan. Bu halqachalar metall panjara ustiga 1 metr qalinlikda joylashtirilgan. Vodorod halqalar ostidan yuqoriga tomon ishqor eritmasiga qarsini harakatlanadi. Ishqor eritmasini konsentratsiyasi 80–100 g/l bo'lib, uning miqdori 8–10 m/soatni tashkil etadi.

Tozalangan vodorod quritiladi, chunki vodorod tarkibidagi namlik bo'lsa gidrogenizatsiyalash vaqtida yuqori haroratda yog'ning kislota sonini oshishiga va qo'shimcha moddalarning hosil bo'lishiga olib keladi. Vodorodni quritish kompressorda sicish yordamida amalga oshiriladi.

Tayanch iboralar

Elektrolitik, elektrolizer, gazgolder, markazdan qochma tomchi ushlagich, suvli skrubber, ishqorli skrubber.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Sanoatda vodorod olish usullari.
2. Elektrolitik usulda vodorod olish.
3. FV-500 tipidagi elektrolizer.
4. Gazgolderda vodorodni saqlash.
5. Markazdan qochma tomchi ushlagich.
6. Skrubber.

18-bob. KATALIZATOR TAYYORLASH QURILMALARI

Sanoatda moylarni gidrogenizatsiyalashda asosini nikel va nikel-mis tashkil etgan katalizatorlar qo'llaniladi.

Bu katalizatorlarga qo'shimcha qilib aluminiy, xrom, titan va boshqa metallar va ularning oksidlari qo'llaniladi.

Katalizatorlar strukturasiga ko'ra;

- kukunsimon;
- granulatsiya langan tiplarga bo'lir adi.

Kukunsimon katalizatorlar gidrogenizatsiyalashda suspensiya holida ishlatiladi, ularning o'lchamini 15 mlmdan oshmaydi. Ularga dispers yoki suspensiyalangan katalizatorlar deyiladi. Granulatsiya langan katalizatorlar tabletka holatida bo'lib, ularning yuzasiga

vodorod va moylar yaxshi singadi. Ular qo'zg'almas qatlam holatida bo'ladi. Ularni muqim katalizatorlar deyiladi.

Kukunsimon katalizatorlar uzlukli va uzlusiz gidrogenizatsiyalashda, muqim katalizatorlar faqat uzlusiz gidrogenizatsiyalashda ishlataladi. Katalizatorning yuzasini kattalashtirish va salomas tarkibidan ajratishni osonlashtirish maqsadida metall katalizatorlar ko'pchilik hollarda g'ovaksimon sirti katta bo'lgan moddalarga cho'ktiriladi. Bunday katalizatorlarga tashuvchiga cho'ktirilgan katalizatorlar deyiladi.

Avtoklav bo'limida gidrogenizatsiya jarayoni uchun zarur bo'lgan katalizatorlarning miqdori unchalik ko'p emas. Quvvati 200 ton/sutka salomas ishlab chiqarishda bir sutkada 150 dan 300 kg gacha, ya'nı 0,75–1,5 kg 1 ton salomasga katalizator sarf bo'ladi.


Toza yangi katalizatorni tayyorlash asosan ikki yo'nalishda:

- mis-nikel katalizatorini tayyorlash;
- formiat nikel katalizatorni tayyorlash olib borilmoqda.

Mis-nikel tipidagi katalizator, tayyorlash uchun asosiy xomashyo: nikelsulfid, mis kuporosi, natriy korbonat va kizelgur hisoblanadi.

Formiat nikel tipidagi katalizator tayyorlash uchun xomashyo: nikel sulfid va formiat natriy hisoblanadi.


Ikkala holatda ham katalizator olish usuli, xon'i-ashyolarning sulfidli tuzlarining suvli eritmalaridan suvda erimaydigan cho'kma olish, va keyin bu cho'kmani parchalab birinchi holatda nikel va mis olish va ikkinchi holatda nikel olishga asoslangan. Bu usullar zavodlarda davriy va uzlusiz usullarda amalga oshiriladi. Bunda asosan chanli reaktor, vakuum filtr, quritgich, melnitsa ishlataladi. Chanli reaktor – nikel va misning karbonatli tuzlarini cho'ktirish uchun ishlataladi. Bu qurilma 111-rasm uglerodli po'latdan tayyorlangan bo'lib, vertikal silindr shaklidagi sig'im bo'lib hajmi 3–4 m ga teng. Qurilma 1 korpus, 3 konussimon tubi, 6 qopqoq, 7 patrubka, 8 uzatma va 4 aralashtirgichdan tashkil topgan. Qurilmaning konussimon tubiga 4 barbatyor o'matilgan bo'lib, undan o'tkir bug' va siqilgan havo yuboriladi. Aralashtirgichning valini yuqori qismiga ko'pikni – pasaytirgich 5 o'matilgan.



111-rasm. Nikel va misni karbonatlari uzla'ini cho'ktiruvchi chan-reaktor:
 1-korpus; 2-barbatyor; 3-komussimon tib; 4-aralashirgich; 5-ko'pik
 pasaytirgich; 6-qopqoq; 7-patrul'ka; 8-uzatma; 9-elektrovdvigatel;
 10-patrubek.

Chanli reaktorning ichki sirti kislotaga chidamli plitkalar bilan qoplangan bo'lib, u qurilma devorlarini sulfat va xlorid kislotasi'siridan yemirilishidan himoya qiladi.

Tebranuvchi tegirmon – qurilgan toza katalizatorni o'chami 5–10 mkm bo'lgan holatgacha maydalash uchun ishlataladi. Tebranuvchi tegirmon 112-rasm, u gorizontal silindrsimon 5 korpus, 8 stanina, 7 prujinali tayanch, balanslovchi val 2, elektrodvigatel 1, mahsulot solinadigan 3 patrubka, mahsulot bo'shtiladigan 6 patrubka va 4 lukdan tashkil topgan.




112-rasm. Tebranuvchi tegirmon:
1-elektrodvigatel; 2-balanslovchi val; 3, 6-patrubka; 4-luk; 5-korpus; 7-purjina;
8-stanina; 9-himoya qovat.

Tebranuvchi tegirmon korpusining ichiga metall shariklar bo'lib, mana shu metall shariklar yordamida qurilma ichiga solingan katalizator tuzi yanchiladi. Metall shariklar qurilma tebranma harakat qilganda harakatga keladi. Ular bir minutiga 1500 marotabagacha tebranma harakat qiladi.


Ishlatilgan katalizatorni qayta regeneratsiyalash uchun, birinchi navbatda filtr pressdan ajratib olingan katalizatorдан yog' qoldig'i (60 %gacha yog' bo'ladi) ajraladi. Katalizatorni yog'sizlantirish, flotatsiya

usulida 105–107°C haroratda 0,13–0,15 MPa bosimda avtoklav qurilmasida amalga oshiriladi. Jarayon harorat va bosimda 5 %li natriy karbonat (100 kg 1 tonna katalizatorga) va 20 %li osh tuzi (0,32 kg 1 tonna katalizatorga) aralashtirilib aynalga oshiriladi. Katalizatorni yog'sizlantirishda ishlataladigan avtoklav 113-rasm, qurılma silindrsimon 1 korpus, ellipssimon 5 qop-qoq va 2 tubdan tashkil topgan. Qurılma ichidagi ramali aralashtirgich 3 elektrodvigatel 7 va 6 uzatma yordamida harakatlantiriladi. Ajratilgan yog' 4 truba orqali chiqariladi.



113-rasm. Qayta ishlataladigan katalizatorni moysizlantirish avtoklavı:
1-korpus; 2-tub; 3-aratashirgich; 4-truba; 5-qop-qoq; 6-uzatma;
7-elektrodvigatel.

Yog'sizlantirilgan katalizator avtoklavdan qaynatish chaniga 114-rasm o'tkaziladi. Bu yerda katalizator sulfat kislota bilan qaynatilib nikel va mis eriydigan holatga o'tkaziladi.



114-rasm. Ishlatilgan katalizatorni qaynatish qurilmasi:
1-korpus; 2-himoya qatlari; 3-komissimon tub; 4-barbatyor;
5-sharnirli truba; 6-qopqoq; 7-luk; 8-so'rish trubasi.

Tayanch iboralar

Katalizator, kukunsimon, granulatsilangan, chan-reaktor, tebranma tegirmon, flotatsiya.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Katalizatorning turlari.
2. Chanli reaktor.
3. Tebranuvchi tegirmon.
4. Katalizatorni regeneratsiyalash qurilmasi.

19-bob. MARGARIN ISHLAB CHIQARISH UCHUN ISHLATILADIGAN QURILMALAR

Margarin mahsulotlari ishlab chiqarish yog'-moy sanoatining muhim tarmoqlaridan bo'lib, bu mahsulotlarini ishlab chiqarish yildan-yilga ko'payib bormoqda. Margarin mahsulotlari ishlab chiqarishning ko'payishiga sabab bu mahsulotlarni o'simlik moylari asosida tayyorlanishi va buning natijasida fiziologik xususiyatlarini yaxshiligidandir.

Margarin yuqori konsentratsiyali emulsiya bo'lib, uning tarkibi gidrogenizatsiyalangan yog', sut, shakar, tuz, vitaminlar, emulgatorlar va boshqa foydali moddalardan tashkil topgan. Margarin tayyorlash texnologiyasi asosan quyidagi texnologik jarayonlardan tashkil topgan:


- yog' va sut – suv fazasini tayyorlash;
- retsepturadagi moddalarni me'yorlash;
- retsepturadagi moddalarni aralashtirish;
- emulsiyalash;
- sovitish;
- kristallizatsiyalash;
- qadoqlash.

Margarin mahsulotlar tayyorlashda ishlataladigan qurilmalar vazifasiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- sutni saqlash va unga ishlov berish qurilmalari;
- emulsiyalash va gomogenizatsiyalash qurilmalari;
- sovitish va kristallizatsiyalash qurilma ari;
- qadoqlash qurilmalari.

Hozirgi vaqtida margarin mahsulotlari ishlab chiqarishda asosan ikkita texnologik sxema qo'llari lati, bu sxemalar bir-biridan emulsiyalash, sovitish va plastiklik hosil qilish jarayonlari bilan farq qiladi. Quyidagi texnologik sxemada 115-rasm, margarin tayyorlashning birinchi texnologik sxemasi ko'rsatilgan bo'lib, bunda emulsiyalashda, sovitish va plastiklik hosil qilish emulsator, sovituvchi baraban va vakuum komplektor qo'llanilgan.

Sig'im 1 dan yog', 2 va 3 sig imlardan me'yorlagich 4 orqali emulgator va bo'ycoq moddasi 5 bakka tushadi va unda 6 avtomatik tarozida o'chanadi. 7 sig'imdan sut, tuz va shakar eritmalari 8 va 9 sig' imlardan 10 bakka quyiladi va 11 avtomatik tarozida o'chanadi.



115-rasm. Barabanli sovitgich va vakuum-komplektorda margarin ishlab chiqish jarayonini texnologik sxemasi:

1, 2, 3, 7, 8, 9-sig 'im; 4-me yorlagich; 5, 10-bak; 6, 11-avtomatik tarozi; 12-alarashtirgich; 13-rotatsion emulsator; 14-barabanli sovitgich; 15-vakuum komplektor; 16-sovitish kamerasi; 17-qadoqlash moslamasi.

Bak 5 dan yog' asosi va bak 10 dan suv – sut asosi 12 aralashtirgichga quyilib aralashtiriladi va aralashma 13 rotatsion emulgatorga uzatiladi. Emulgatordan aralashma barabanli sovitgich 14 ga uzatiladi. Sovituvchi baraban sirtidagi yupqa margarin qavati ajratilib 15 vakuum-komplektor qurilmasida plastik massa hosil qilishga yuboriladi. Vakuum-komplektor qurilmasida mexanik ishlov berilib margarin massasi hosil qilinadi va tayyor margarin kattta idishlariga qadoqlanib 16-sovitish kamerasiga yuboriladi va u yerda bir necha soat saqlanganidan so'ng 17 qadoqlash qurilmasida qadoqlanib iste'molga chiqariladi.

Bu texnologik sxemada tayyor margarin massasi qadoqlanmasdan oldin sovitish kamerasiga yetiltiriladi va shundan keyin qadoqlanadi. Margarin massasini sovitish kamerasida saqlab yetiltirish ko'p vaqt ni oladi va jarayonni uzlusiz amalga oshirish imkoniyatini bermaydi.


Margarin ishlab chiqarishning ikkirchi texnologik sxemasi uzuksiz amalga oshirilib bunda emulsiyalash, sovitish va plastik ishlov berish uchun sovitgichli kristallizi tor qurilmasi qo'llaniladi.

Bu texnologik sxema 116-rasnda ko'rsatilgan bo'lib, bu sxema hozirgi vaqtida keng ishlatilib kelinib qoldi.


Nasos-dozator 1 yordamida oldindan tayyorlangan yog', sut va retsepturaga kirgan boshqa komponentlar dastlabki aralashtirish uchun 2 sig'imga va undan 3 aralashtirgichiga solinadi. Aralashtirgichda komponent aralashishi bilan bir qator harorat bo'yicha normallashtiriladi. Dag'al emulsiya aralashtirgichdan sahn tenglashtirish sig'imi 4 ga o'tkaziladi va undan yuqori bosimli nasosga yuboriladi, nasosda emulsiya 1,5-2,5 MPa atmosfera bosimida uch silindrli 6 sovitgichda o'tkaziladi. Sovitgichda aralashtirilishi va yuqori bosim ta'srida ara ashma emulsiyalanadi va sovitiladi. Sovitgichni uchta silindridan o'tishi natijasida 10-16°C gacha sovigan margarin massasi 7 tarqatish qurilmasiga beriladi va u yerda ikki qismga ajralib filtr-gomogenizator 8, kompensiyalovchi qurilma 11 dan o'tib kristallizator 9 ga uzatiladi. Kristalizatorda mexanik ishlov berilib plastik margarin massasi hosil bo'ladi. Kristallizatordan chiqargan margarin 10 qadoqlash qurilmasida qadoqlanib undan yashiklarga joylashtirish avtomati 12 ga va undan yashiklarni yarliqlaydigan 13 avtomatga uzatiladi. Margarin 200 yoki 250 gramm holida qadoqlanadi.

Bu texnologik sxema oldingisiga nisbatan quyidagi afzalliliklarga ega; ko'pchilik jarayonlar mahsulot bilan havoni o'zarboq bog'liqligisiz amalga oshadi, buning natijasida jarayonni boshqarish yaxshilanadi va mahsulotni sifati yuqori bo'ladi; issiqlik, elektroenergiya va sovuqlik sarfi kamayadi; ish unumдорligi ortadi.

Aralashtirgich - margarin tarkibiga kirgan komponentlarni aralashtirib dag'al emulsiya hosil qilish va bir xil haroratga ushlab turish uchun ishlatiladigan qurilma. Aralashtirgich 117-rasm, asosan bug' - qavatli korpus, qopqoq, aralashtirgich va uzatmadan tashkil topgan.



116-rasm. Sovitib turib margarin ishlab chiqarish jarayonini texnologik sxemasi:
 1-me 'yorlovchi nasos; 2-sig 'im; 3-aratashirgich; 4-bir xil sathni saqlovchi
 sig 'im; 5-yuqori bosimli nasos; 6-uch silindrli aralashirish sovitish agregati;
 7-tarqatgich; 8-filtr-gomogenizator; 9-kristallizator; 10-qadoqlash uskunasi;
 11-kompensator; 12-yashiklarga qadoqlash uskunasi;
 13-yashiklarni yariqlash uskunasi.



117-rasm. Aralashtirgich:
 1-elektrodvigatel; 2-uzatma; 3-
 mufta; 4-ic'alma ramasi;
 5-qopqoq; 6-mahsulotlar
 solinadigan ustki patrubka;
 7-termometr;
 8-aralashtirgich; 9-korpus; 10-
 bug' qavat; 11-emulsiya
 chiqariladigan patrubka;
 12-tubi; 13-tostanch ustunlar; 14-
 bo'shaish kran; 15-jo'mruk; 16-gaytargich.

Qurilmaning korpusi 9 silindr shaklida bo'lib, isitish uchun 10 bug' – qavati bor. Qurilma korpusi zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan. Qurilmaning ostki qismi 12 aralashma bo'shatiladigan shtutser tomoniga qiya shaklida o'matilgan. Qurilmaning ichiga lenta simon aralashtirgich 8 o'matilgan bo'lib, u 3 mufta orqali 2

uzatmaga va 1 elektrodvigateunga ulangan. Aralashtirgichni 5 qopqog'i bo'lib, bu qopqoq ikki qarama-qarshi tomon ga ochiladi. Qopqoqning ustki tomoniga 4 rama o'matilgan bo'lib, unga uzatma o'matilgan. Qurilma ichida 16 qaytargichlar o'matilgar bo'lib ular aralashmani aralashtirgich bilan birga aylanishini oldini oladi. Aralashtirgich to'rt dona 13 tayanchlarga o'matiladi. Qurilmaga mahsulot ustki tomonidagi 6 patrubkadan solinadi va aralashtirilgan mahsulot pastki tomonidagi 11 patrubkadan chiqariladi.

Qurilmaga 7 qarshilik terrnometrii o'matilgan bo'lib, u emulsiyani haroratini nazorat qilib turadi. Qurilma ichidagi mahsulot sathi 17 sath o'lchagichlar yordamida nazorat qilinadi.


Aralashtirgichning ish sikli quyidagi operatsiyalardan: mahsulot bilan to'ldirish – 15 min, aralashtirish – 15 min, mahsulotni bo'shatish – 20 min, hammasi – 50 min tashkil topgan.

Bir xil sathni saqlovchi bak – yuqori bosimli nasosga margarin emulsiyasini bir xilda yetkazib berish uchun ishlataladi. Bak 118-rasm, bu – qavatli 2 korpus, 4 qopqoq va 5 propellerli aralashtirgichdan tuzilgan bo'lib u zar glamataydigan po'latdan tayyorlangan.


Bakdan margarin emulsiyasining bir xil sathi 3 qalquvchi klapan yordamida saqlab turiladi. Bak ichidagi margarin emulsiyasi ajralmasligi uchun 5 aralashtirgich yordamida aralashtirilib turiladi. Bakdan margarini nasosga uzatish 7 patrubka orqali amalga oshiriladi. Bak to'rtta 10 tayanchlarga o'matilgan.

Uch silindrli yuqori bosimli nasos 119-rasm, margarin emulsiyasini bir xil sathli bakdan olib votatorga 2,2–2,5 MPa bosimda uzatish, filtrlash, gomogenizatsiyalash va tashish uchun ishlataladi.


Margarin emulsiyasiga sovitib ishlov berish qurilmasiga votator eng asosiy qurilmalardan bo'lib u margarin emulsiyasiga yupqa qatlamda sovitilib mexanik ishlov berish uchun ishlataladi. Ishlov berish jarayoni uchta ketma-ket joylashti ilgan gorizontal turli harorat rejimida ishlovchi silindrlerda amalga oshiriladi. Qurilmaning umumiy ko'rinishi 120-rasmida ko'rsatilgan bo'lib, u asosan ishchi silindrler 6, sovuqlik uzatish sistemasi 5, elektrodvigatel I va remenli uzatma 2, g'ilof 3 dan tashkil topgan. Ishchi silindr ammiakni bug'lanish kamerani ichiga joylashtirilgan bo'lib, u uglerodli po'latdan tayyorlangan bo'lib ichki surʼi xromlangan.




118-rasm. Bir xil sathni saqlovich sig'im:
1-mahsulot kiradigan patrubka; 2-korpus; 3-qalquvchi klapan;
4-qopqoq; 5-aralashitrigich; 6-uzatma; 7-patrubka; 8-jo'mrak;
9-mahsulot solinadigan patrubka; 10-tayanch.



119-rasm. Yuqori bosimli uch silindrli nasos:
1-manjet; 2-porshen; 3-klapanlar qutisi.



120-rasm. Sovitib ishliv bensh curilishasi (valutor):
 1-elektrodvigatel; 2-remenli uzatma; 3-g'ilof; 4-umn iakru sathini ko'rsatgich; 5-ammuniyat
 boshqargich; 6-shc u barab'nlar.



121-rasm. Sovitib ishlov berish qurilmasining silindr bloki:
1-pichqoq; 2-val; 3-ichki g'iloq; 4-tashqi g'iloq.

Votatorming silindri 121-rasm «truba ichida truba» issiqlik almashinish qurilmasiga o'xshash bo'lib, ichki silindr ikkita kontsentrik g'iloq bilan o'rالgan. Birinchi (ichki) g'iloq 3 ammiakni bug'lanish kamerasi, uning ustki qismida tirqish bo'lib, unda suyuq ammiak harakatlanadi. Tashqi g'iloq 4 ning ostki qismidan ammiak berish trubasi ulangan. Har bir silindr 2 valga ulangan bo'lib, podshipniklarga joylashtirilgan. Har bir valga 12 dona 1 pichoqlar o'rnatilgan bo'lib, ularning konstruksiyasi ularni oson tozalash va almashtirishga qulay qilib o'rnatilgan. Val ichiga uni sirtini qizdirish uchun issiq suv yuboriladigan patrubkalar o'rnatilgan. Pichoqlar silindr sirtidagi emulsiyani ajratish uchun xizmat qiladi.

Qurilma ishlayotganda silindrlar oralig'i margarin bilan birin ketinlik bilan to'ldiriladi. Silindrlarning ichki sirtlari sovitish sirti vazifasini bajaradi. Silindrlar tashqi tomonidan issiqlik o'tkazmaydigan qoplama bilan qoplangan bo'lib, bu qoplama tashqi tomonidan po'lat list bilan o'rالgan. Qurilmaga kirayotgan va qurilmadan chiqayotgan mahsulotning harorati misli qarshilik termometrlari bilan nazorat qilinadi.

| | |
|--------------------------------------------|-----------|
| Votatorning teknik tavsisi | 2500-2800 |
| Ish unumdorligi, kg/soat | ammiak |
| Sovituvchi agent | |
| Margarin harorati, °C | 38-42 |
| Qurilmaga kirishda | 12-14 |
| Qurilmada chiqishda | |
| Pichoqlarning aylanish chastotasi, ayl/min | 500 |
| Elektrovdvigateli quvvati, kVt | 22 |
| Gabarit o'chanlari, mm | |
| uzunligi | 2138 |
| kengligi | 2100 |
| balandligi | 1946 |
| og'irligi, kg | 2000 |

Kristallizator 122-rasm margarin strukturasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Kristallizatorda margarini kristallizatsiyalanish jarayoni tugab margarin bir xil strukturani oladi.

Kristallizator: filtr-gomogenizator 5, uchta kristallizatsiyalanish seksiyasi 1, 2, 3 va tayanch 9 dan tashkil topgan.

Filtr sovitilgan emulsiyaga ishlov berish va emulsiya ichiga tasodifan tushib qolgan mexanik aralashmalarni tozalash uchun xizmat qiladi.


Kristallizator ikki devorli po'lat truba shaklida bo'lib uchta seksiyadan 1, 2, 3 tashkil topgan bo'lib, bu seksiyalar flanesli birikmalar yordamida o'zaro tutashtirilgan, uning uzunligi 2118 mm ni tashkil etadi. Birinchi seksiya bir qism konussimon shaklga ega. Har bir seksiya ikki devorli bo'lib 4, su devorlar orasidan harorati 25°C bo'lgan iliq suv harakatlanadi.

Qurilmaning margarin chiqadigan qismiga flaneslar yordamida kompensatsiyalovchi mexanizm 10 o'rnatilgan bo'lib, uning uchiga rasfasovka qurilmasiga ulash uchun 11 o'tkazgich o'matilgan. Kompensator votatorning silindrlarini va yuqori bosimli nasosni, kristallizatorni rasfasovka qurilmasida biriktirilgan qismida hosil bo'ladigan keskin bosimlardan himoya qiladi. Qurilma harakatlanuvchi 13 porshen harakatlanadigan 12 patrubka va porshenni harakatlantiradigan 14 shokdan tushkil topgan bo'lib, shtok manjetga mahkamlangan, bu manjet klapan qopqog'iga mahkamlangan. Shtckning uchi 15 siqilgan havo reduktoriga ulangan

bo'lib, bu reduktorda 0,2–0,3 MPa siqilgan havo bosimi ushlanib turiladi.



Qachonki kristallizatordagi bosim reduktordagi bosimdan oshsa harakatlanuvchi porshen ko'tarilib 16 tuynuk ochiladi va u yerdan bir qism margarin chiqib qurilma ichidagi bosim normallashadi.

Margarin shakl berish va qadoqlash uchun turli avtomat qurilmalar ishlatalmoqda. 123-rasm margarinni 200–250 grammlig pachkalarga qadoqlaydigan, 124-rasm margarinni korobkalarda qadoqlaydigan avtomatlar ko'rsatilgan.




122-rasm. Kristallizator:

1, 2, 3-seksiyalar; 4-tashqi devor; 5-filtr-gomogenizator; 6-seksiyadan suv o'tadigan yo'l; 7-vtulka; 8-prokladka; 9-tayanch; 10-kompensator;
11-o'tkazgich; 12-patrubka; 13-porshen; 14-shtok; 15-siqilgan havo yuboriladigan reduktor;
16-tuynuk.



123-razm. Margarinni kichik pachı alarga qadoqlaydigan avtomat.



124- rasm. Margarinni katta koroblarga qadoqlaydigan avtomat:
 1-elektron blok; 2-tarobi; 3-elektromagnitli klapan; 4-tarqatuvchi panel;
 5-plastinkali konveyer; 6-pnevmatik tutgich; 7-maxovik; 8-quyish mexanizmi.

Tayanch iboralar

Yog' va suv-sut fazasini tayyorlash, retsepturadagi moddalarni dozirovkalash, retsepturadagi moddalarni aralashtirish, emulsiyalash, sovitish, kristallizatsiyalash, qadoqlash, sutni saqlash va unga ishlov berish qurilmalari, emulsiyalash va gomogenizatsiyalash qurilmalari, votator, sathni saqlovchi bak.


NAZORAT SAVOLLARI

1. Margarin ishlab chiqarishda qo'llaniladigan jarayonlar va qurilmalar guruhanlishi.
2. Aralashtirgich.
3. Sathni tenglashtiruvchi bak.
4. Votator.
5. Kristallizator.
6. Tayyor margarinni qadoqlash avtomatlari.

20-bob. MAYONEZ ISHLAB CHIQARISHDA ISHLATILADIGAN QURILMALAR

Mayonez hozirgi vaqtida va kelgusida ko'p ishlab chiqarilayotgan oziq-ovqat mahsuloti bo'lib, uning asosini dezodoratsiyalangan o'simlik moy tas'kil etadi. Mayonez tarkibida yog'lar, oqsillar, uglevodlar, mineral moddalar, vitaminlar va turli maza beruvchi moddalar dispers holatica bo'ladi. Mayonezning retsepturasi turli-tuman bo'lib, bulardan keng tarqalgani «Provansal» bo'lib, u quyidagi komponer tlardan tashkil topgan: dezodoratsiyalangan moy – 65,9 %, tuxum kukuni – 5 %, quruq sut – 1,6 %, shakar – 1,5 %, osh tuzi – 1,3 %, xantal – 0,75 %, sirkə kislotasi – 0,75 %, ichimlik sodasi – 0,05 % va suv – 23,15 %ni tashkil etadi. Bu komponentlardan kerakli tayyor mahsulot olish uchun me'yorlovchi, aralashtiruvchi emulsiya hosil qiluvchi, gomogenizatsiyalovchi va qadoqlovchi qurilmalar ishlataladi. Hozirgi vaqtda sanoatda mayonez uzlukli va uzluksiz usullarda ishlab chiqarilmoqda. 125-rasmda uzlukli usulda mayonez ishlab chiqarish jarayonini texnologik sxemasi ko'rsatilgan. Bunda elangan kukunsimon komponentlar: tuxum kukuni 1-bunkerga, xantal kukuni 2-bunkerga, quruq sut 3-bunkerga va shakar kukuni 4-bunkerga uzatiladi. Ichimlik sodasi bevosita 9 aralashtirgichga beriladi. 9 aralashtirgichga 17 suv sig'imidan issiq suv yuboriladi va shunday keyin 2 bunkerdan 7 tarozi orqali xantal kukuni aralashtirgichga solinadi.

Xantal suvgaga damlanganidir so'ng 9 aralashtirgichga, ya'ni 17 suv sig'imidan issiq suv va uning ustiga 3 bunkerdan quruq sut, 4 bunkerdan shakar kukuni tarozi orqali aralashtirgichga solinadi. Aralashtirgichga solingan hamma komponentlar yaxshilab aralashtiriladi va 90–95°C gacha isitilib shu haroratda quruq sut to'liq eriguncha saqlab turiladi. Aralashtirgich 8 ga 1 bunkerdan taroziga o'shab quruq tuxum kukuni solinadi va uning ustiga 17 bunkerdan harorat 40–45°C bo'lgan suv solib aralashtiriladi.



123-rasm. Uzlukli usulda mayonez ishlab chiqarish jarayonining texnologik sxemasi:

1-tuxum kukuni solingan sig'um; 2, 3, 4-sochiluvchan materiallar solingan sig'um; 5-nasos-emulsator; 6, 7-tarozi; 8, 9-kichik aralashtirgich; 10-katta aralashtirgich; 11-gomogenizator; 12-tayyor mayonez solingan sig'um; 13-moyni o'chaydigan tarozi; 14-moy solingan sig'um; 15-tuz eritgich; 16-tomchi ushlagich; 17-suvli sig'um; 18-sirka kislota va tuz eritmali sig'um;

19-tarozi; 20-suv isitadigan istigich; 21-quyish avtomati; 22-idishni og'zini berkitish avtomati; 23-yarliqlash avtomati; 24-jaylashirish avtomati; 25-banka yuvvush mashinasi; 26-konsentrangan sirka kislotali idish; 27-telfer; 28-tarozidagi moy o'chanadigan sig'um; 29-sirka kislota tuz eritmasini o'chaydigan tarozi; 30-yuvvuchi eritma tayyorlanadigan sig'um; 31-singan idishlar solinadigan sig'um.

Shundan keyin 9 aralashtirgichdagi massa $40-45^{\circ}\text{C}$ gacha sovitiladi va uning ustiga 8 aralashtirgichdagi tuxum kukuni eritmasi 5 emulsiyalash nasos orqali solinib bir xil mayonez pastasi hosil bo'lguncha aralashtiriladi. Tayorlangan pasta $30-40^{\circ}\text{C}$ gacha sovitiladi va 5 nasos emulgator orqali 10 katta aralashtirgichga solinadi va uning ustiga 14 sig'imdan 13 taroziga qo'yilgan 28 bakdan o'simlik moyi solib bo'llinganidan keyin uning ustiga osh tuzi sirka kislotsasi eritmasi solinadi va aralashtiriladi.

Osh tuzi eritgichi 15 dan 18 bakga osh tuzining to'yingan eritmasi solinadi va u kerakli konsentratsiyagacha suv bilan aralashtiriladi va uning ustiga retsepturaga asosan 80 %li sirka kislotsasi eritmasi solinadi va aralashtiriladi. Katta aralashtirgich 10 ga o'simlik moyi solib bo'llinganidan keyin uning ustiga osh tuzi sirka kislotsasi eritmasi solinadi va aralashtiriladi.

Katta aralashtirgichdagi mayonez pastasi yaxshi dispersiyalanish uchun uni 11 gomogenizator qurilmasidan o'tkazib, 12 tayyor mayonez sig'imiga solinadi va bu bakdan tayyor mayonez shisha idishlarga 21 quyish avtomati orqali quyiladi va 22 avtomatda bankalarning og'zi berkitib 23 avtomatda yarliqlanadi. Tayyor mayonez darhol idishlarga quyilishi kerak, aks holda u havo ta'sirida o'zining mazasini va saqlanishini yomonlashtiradi. Idishlarga solingan

mayonez qorong'i omborlarda 3 dan 18°C harorat oralig'ida saqlanadi.


Kichik aralashtirgich 126-rasm mayonez pastasi tayyorlash uchun ishlataladi, u silindrik shaklida bo'lib, aluminiy yoki zanglamaydigan po'latdan tayyorlanadi. U bug' qavatga ega bo'lib, bu qavatga issiq suv yoki bug' yuboriladi. Qurilma ichki silindr 1, tashkil silindr 2, aralashtirgich 3, tubi 4, elektrosvigatel 5, birlashtiruvchi mufta 6, uzatma 7 va qaytaruvchi to'siq 8 dan tashkil topgan. Qurilma qopqog'i bo'lib luk o'matilgan.

Nasos emulsator 127-rasm mayda aralashtirgichda tayyorlangan mayonez pastasini dispersiyalash va mehsu otni katta aralashtirgichga o'tkazish uchun xizmat qiladi. Emulgator elektrosvigatel bilan birgalikda birta o'qqa o'matiladi. Uning ikkita aylanuvchi va ikkita aylanmaydigan qo'zg'almas diskalar va ajraladigan qopqog'i bo'lib, aylanadigan diskalar emulsiya kiradigan va chiqadigan qismiga joylashgan bo'lib, u valga o'matilgan. Qo'zg'almas diskalar aylanadigan diskalar oralig'iga joylashtirilgan.


Gomogenizator 128-rasm, disperslangan mayonez emulsiyasini hosil qilish uchun ishlataladi. Ishlash prinsipi asosan gomogenizator plunjерli nasos o'xshaydi. Mahsulotga jadal mexanik kuch ta'siri natijasida yog' shariklari juda ham mayda yog' zarrachalariga parchalanish gomogenzatsiyalash deb atyiladi. Gomogenizatsiyalash natijasida mahsulotning to'yimlilik ortadi, chunki yog' zarrachalarini maydalanishi natijasida yog' fazasining sirti kattalashadi va bu sut kislotalarini organizimga haz n bo'lishini yengillashtiradi. Gomogenizatsiyalangan mahsulot mazasini yaxshilanishiga mahsulotning qovushqoqligini orish va konsistensiyasini yaxshilanishi sabab bo'ladi. Gomogenizatorning ishlash prinsipi mahsulotni qurilmaning gornogenizatsiyalovchi qopqog'ini klapani va sedlosi orasidagi tor tirqishdan bosim ta'sirida o'tishiga asoslangan. Mahsulotga ta'sir etayotgan bosim miqdori klapandan oldin 15 MPa ga teng bo'ladi.

OGB-5 gomogenizatori 129-rasm, 1 cho'yan tayanchga uchta blok: silindrler bloki 2, ekstsentrifiklar bloki 3 va shatunlar bloki 4 o'matilgan. Tayanchning ustki plitasiga 5 elektrosvigatel o'matilgan. Ponasimon tasmali uzatma orqali harakat ekssentriklar blokini vali 6 ga uzatiladi. Qurilmaning uchta plunjeri 7 bo'lib, bu plunjeler ilgarlanma qaytarilma harakat qilib, 8 klapandan suyuqlik suriladi va

bu vaqtida 9 suruvchi klapan yopiq bo'ladi va 10 itaruvchi klapa o'tib 11 gomogenizatsiyalovchi golovkadan 15–18 MPa bosim bilan itariladi va 12 shutser orqali chiqadi. Bosimi bilan kelavotgan suyuqli gomogenizatsiyalovchi klapanni 100–150 mkm gacha ko'taradi va hosil bo'lgan tirkishda siqilib chiqadi, mana shu vaqtida yog sharikllari mayda-mayda zarrachalarga aylanadi.




126-rasm. Kichik nolashtirgich:
1-ichki silindr; 2-tashqi silindr; 3-aralashtrigich; 4-tubi; 5-elektrovdvigatel;
6-pumpa; 7-uzatma.



127-rasm. Nasos-emulsator.

1-birinchi aylanuvchi gardish; 2-ikkinchi aylanuvchi gardish; 3-birinchi qo'zg'almas gardish; 4-ikkinchi qo'zg'almas gardish; 5-qopqoq; 6-val; 7-birlashiruvchi n usta; 8-grayka.




128-rasm. Go'nogenizator:

1-silindr; 2-so'rnich klapa; 3-chiqaruvchi klapa; 4-sedlo;
5-gomogenizatsiyulovchi klapa nasalkasi; 6-prujinz; 7-manometr; 8-vint;
9-saglovchi klapa.

Maxovik 13 orqali prujina orqali bosim boshqarilib optimal rejim tanlanadi.

Hozirgi vaqtida sanoat uzluksi usulda mayonez ishlab chiqaradigan liniyalar o'rnatilgan bo'lib, bularidan tayyor mayonezni polimer idishlarga qadoqlab ishlab chiqaradigan «Shreden» firmasining liniyasini ko'rsatish mumkiri.



129-rasm, OGB-5 gomogenizatori:
 1-stanina; 2-silindrlar bloki; 3-ektsentriklar bloki; 4-shatunlar bloki;
 5-elektrodvigatel; 6-val; 7-plunjer; 8-so'ruvchi kanal; 9-so'ruvchi klap'an;
 10-chiqaruvchi klap'an; 11-gomogenizatsiyalovchi mexanizm; 12-ja'mrak;
 13-maxovik; 14-prujina.

Tayanch iboralar

Dispers holati, kichik aralashtirgich, nasos emulsator, gomogenizator.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Mayonez to'g'risida.
2. Uzlukli usulda mayonez ishlab chiqarish liniyasini texnologik sxemasi.
3. Emulsiyalash nasosini vazifasi va tuzilishi.

4. Gomogenizatorni tuzilishi va ishlashi.


21-bo'b. YOG'LARNI PARCHALASH QURILMALARI

Sovun, stearin, olein, yuqori raolekulali yog' spirtlari sintetik yuvish vositalari uchun, bo'yoq moddalari ishlab chiqarish uchun yog' kislotalari kerak bo'ladi. Sovun ishlab chiqarish radikalida 10 dan 18 gacha uglerod atom bo'lgan yog' kislotalari ishlatiladi. Bu yog' kislotalar turli yog'lardan (triglitseridlardan) ularni parchalash (gidrolizlash) usulida olinadi va bunda oraliq mahsulot glitserin hosil bo'ladi.

Yog'larni gidrolizlash katalizator, sulfat kislota va Petrov kontakti ishtirokida amalga oshirilgan. Lekin hozirgi kunda bu usul qo'llanilmaydi. Hozirgi kunda yog'larni gidrolizlashda reaktivsiz usuli qo'llanilmoqda. Bunda 20–25 atm bosimda 210–225°C haroratda amalga oshiriladi. Bunda avtoklav qurilmalari qo'llaniladi. Bundan tashqari, hozir sanoatda 40 atm. bosimda 250°C haroratda kolonna tipidagi qurilmalarda yog'larni parchalash amalga oshirilmoqda.

Avtoklavda reaktivsiz yog'larni parchalash jarayonini texnologik sxema 130-rasmida ko'rsatilgan. Parchalanadigan moy 1 tarozida o'lchanib, quyish voronkasi 2 dan c'tib 3 sig'imga to'planadi va u yerdan 4 nasos orqali 14 yog' me'yorlagichlarga uzatiladi. 15 me'yorlash sig'imi kondensat va ikkilamchi suvli glitserinni avtoklavga solishdan oldin to'plash uchun xiznat qiladi. Avtoklav 13 ga yog'ni yuklash 14 va 15 me'yorlagichlardan 5 yuqori bosimli nasos orqali amalga oshiriladi. Yog'ni parchalash 13 avtoklavda o'tkir bug' yordamida isitib va aralashtirib amalga oshiriladi. Hosil bo'lgan ortiqcha bug' qurilmadan chiqarib turiladi.

Avtoklavdan mahsulotni chiqarish, 12 zmeyevikli issiqlik almashtirish qurilmasidan yoki bosimni pasaytiruvchi qurilmadan o'tkazish orqali amalga oshiriladi. 12 issiqlik almashinish qurilmasidagi zmeyevik bittasidan suvli glitserin ikkinchisidan yog' kislotosi o'tadi.



130-rasm. Avtoklavda yog'larini reaktivsiz parchalash jarayonini texnologik xesmasi:

1-tarozi; 2-quyish voronkasi; 3-sig'im; 4-nasos; 5-yuqori bosimli nasos; 6-kondensat yig'gich; 7-yig'gich; 8-tindirgich yuvgich; 9-suvli glitserinini yig'ish sig'im; 10, 11-tutgich; 12-zmeyevikli issiqlik almashinish qurilmasi; 13-avtoklav; 14-yog' me'yorlagich; 15-kondensatli sig'im.

Suvli glitserin zmeyevikdan 12 issiqlik almashinish qurilmasiga tushadi. Va bu yerda zmeyevikdan o'tayotgan suvli glitserin, yog' kilotasi va bug' orqali bug'lanadi.

Yog' kislotasi zmeyevikdan o'tib 8 tindirgich yuvgichga keladi va u yerda yuvilganidan so'ng ishe'molga uzatiladi. Suvli glitserin quyish trubasi orqali zmeyevikli issiqlik almashinish qurilmasidan 10 tutkichidan o'tib 9 suvli glitserini yig'ish sig'imiga yig'iladi va undan bug'latishiga yoki ohak bilan neytrallashga uzatiladi. 9 yig'gitchga qolgan yog' va yog' kislotasi 7 sig'imga yig'iladi va undan yana ishlab chiqarish qaytariladi.


Avtokladan chiqayotgan bug' 12 issiqlik almashinish qurilmasining ostki konussimon qismidagi zmeyevikdan o'tib kondensiyalanib 11 yog' ushlagichga quyiladi va undan o'tib 6 kondensat yig'gichga to'planadi.

Kondensat yog'larni parchalashdan va yog' kislotalarini yuvishda ishlatiladi. Parchalanmagan yog' 10 va 11 tutgichlardan o'tib 7 yig'gichga yig'iladi 14 me'yorlagich orqali qayta parchalashga uzatiladi.

Yog'larni reaktivsiz parchalash usulida asosiy qurilmalar avtoklav bosimni pasaytirgich, issiq ik almashtirgich, separator, nasoslar, sig'imlar va nazorat o'lchev qurilmlari hisoblanadi.

Yog'larni reaktivsiz parchalashda ishlataladigan avtoklav 131-rasm, yaxlit payvandlangan vertikal silindrsimon qurilma bo'lib, I korpus ellipssimon qopqoq va tubxon tuzilgan, u kislotaga chidamli 12X18N10T po'latdan tayyorlangan. Ustki qopqoq'iga 4 luk, yog' va kondensat, o'tkir bug' kiradigan patrubkalar, suvli glitserin, yog' kislotasi, bug' va havo chiqadigan patrubkalar o'matilgan. Qurilmaning tubiga qurilmani bo'shatish uchun 6 patrubka o'matilgan. Jarayonning uzluki yok, uzluksizligiga qarab patrubkalarning vazifasi turlichcha bo'ladi.

Avtoklav uzlukli ishlanganda ycg' va kondensat avtoklavga yuqoridagi 2 trubadan beriladi va shu truba avtoklavdan birinchi suvli glitserin chiqarishda ham ishlataladi. Yog' kislotasi va suvli glitserin ikkilamchi parchalanganidan so'ng 5 truba orqali chiqariladi. Bosimi 2,5 MPa bo'lgan o'tkir bug' 3 truba orqali uzatiladi, bu trubaning oxiri qurilmaning trubagacha borib undan e'tkir bug' chiqib mahsulotni aralashtiradi. Ortiqcha bug' ustki qopqoqdagi patrubkadan chiqib, bu patrubkaga maxsus shayba o'matilgan bo'lib, u qurilmaga trubadan kelayotgan bug' bilan qurilma ichidagi bug'ning bosimini farqi bo'lishini ta'minlaydi, bu bosimlar farqi 0,05 MPa bo'lib, shu farq tufayli qurilma ichidagi mahsulot aralashadi.



131-rasm. Yog'larni reaktivsiz parchalaydigan avtoklav:
 1-korpus; 2-yog' va kondensat solinadigan truba; 3-o'ikir bug' yuborish trubasi; 4-luk; 5-yog' kislotosi va glitserin chiqadigan truba; 6-tayanch; 7-patrubka; 8-izolatsiya qavati.

Avtoklav 7 ustunlar yordamida polga o'matiladi, qurilmaning tashqi tomoni 8 izolatsiya qatlami balau qoplangan. Qurilma bosimda ishlaganligi sababli har doim nazoratdan o'tkazilib turiladi.

Avtoklavda yog'larning gidrolizlanishi ikki bosqichda boradi, ikkinchi bosqichda hosil bo'lgan suvli glitserin birinchi bosqichda gidrolizlanishiga ishlataladi. Ikkinchi bosqichda kondensat ishlataladi. Birinchi bosqich gidrolizlashni amalga oshirish uchun sig'imi 10 m bo'lgan avtoklavga oldingi partiyadagi suvli glitserin (1700–1800 kg) solinadi va uning ustkiga 4000 kg yog' solinadi va mahsulot o'tkir bug' yordamida 220–225°C haroratgacha qizdiriladi. Harorat belgilangan darajaga yetganidan so'ng 2,5 MPa bosimni ushlab turib aralashma 3 soat davomida qaynatiladi, bu vaqtida ortiqcha bug' chiqarib turiladi.

Birinchi bosqichdan keyin yog'larning gidrolizlanishi 85 %dan kam bo'lmasligi kerak.


Qisqa vaqt (0,25 soat) li to'xtatishdan so'ng avtoklav ichidagi mahsulot ikki fazaga ajraladi. Birinchi suvli glitserin, tarkibida 10–14 % glitserin bo'ladi, 2 truba orqali chiqariladi va bir qism parchalangan yog' qurilmaga qoldiriladi.

Gidrolizlanishining ikkinchi bosqichini davom ettirish uchun avtoklavga 1200–1400 kg kordenasat solinadi va aralashma 220–225°C haroratda 2 soat qaynatiladi va shundan so'ng to'xtatiladi va mahsulot ikki fazaga ajraladi. Birinchi faza bu ikkinchi suvli glitserin, tarkibida 4–5 % glitserini bor, ikkinchi faza yog' kislotalar. Yog' kislotalar qurilmadan 3 truba orqali chiqariladi. Ikkinchi bosqichdan so'ng yog'larning gidrolizlanishi 95–96 %ga yetadi. Bir siklning davom etish vaqt 8 soat. Birta avtoklavning bir sutkalik ish unumdorligi 10 tonna yog' kislatosi tashkil etadi.

Avtoklavdan chiqayotgan mahsulotning bosimi 2,5 MPa, harorati 225°C bo'lib, bu mahsulotni b'evosita atmosfera bosimidagi sig'imga olib bo'lmaydi, chunki bunda portlash, effekti hosil bo'lib suvning kuchli bug'laniши va suyuqlikning katta tezlikda sachrashi ro'y beradi. Mana shu holatni oldin olish uchun bosimni pasaytirish qurilmasi qo'llaniladi va bunda suyuqlikning bosimi va harorati pasaytiriladi.

Bosimni pasaytirishda turli konstruksiyadagi qurilmalar ishlataladi, shulardan keng tarqalgan bu issiqqlik almashinuvli bosim

pasaytirish qurilmasi 132-rasm bo'lib, bunda suvli glitserin va yog' kislotalarining issiqligidan unumli foydalaniladi.




132-rasm. Bosimni pasaytirish qurilmasi:

1-glitserinli suv harakatlanadigan zmeyevik; 2-yog' kislotusi zmeyevik;
3-bug' harakatlanadigan zmeyevik; 4-bo'shatish krani; 5-glitserinli suv to kiladigan truba; 6-so'rish trubasi.

Qurilma hajmi 20–25 m³ l korpusdan iborat bo'lib, uning qopqog'i va ostki qismi konussimon qilib yasalgan. Suvli glitserin

avtoklavdan chiqib qurılma ichidagi 3 zmeyevikdan, yog' kislotasi 2 zmeyevikdan harakatlanadi va ukur o'z issiqligini qurılma ichidagi suvli glitseringa beradi. $100-105^{\circ}$ Cgacha sovungan yog' kislotalari yog' yig'ish sig'imiriliga yig'iladi. Suvli glitserin tarkibidagi bug'langan suv bug'lari 4 truba orqa chiqib ketadi. Qurilmaning ostki konussimon qismidagi 5 zmeyevikdan avtoklavdan chiqayotgan bug' harakatlanib kondensatsiyalanadi.

Yog'larni uzuksiz reaktivsiz kolonna tipidagi qurilmada parchalash, qarama-qarshi oqim prir sripida ishlaydigan 133-rasm qurilmada amalga oshiriladi.



133-rasm.
Yog'larni
uzluksiz
reaktivsiz
parchalaydigan
kolonna:
1-korpus;
2-sachratgich;
3, 4-nasos.

Bunda yog' va suv qaraña-qarshi tomonidan: suv ustki tomonidan, yog' pastki tomonidan yuboriladi. Suyuqliklarning

zichliklari har xil bo'lganligi uchun yog' va yog' kislotasi yuqoriga ko'tariladi. Bunda ajralgan glitserin har doim suv bilari yuvishib turiladi va uning yog' kislotalari bilan reaksiyaga kirishishni oldi olinadi. Kolonnaning balandligi 20–28 metrnini tashkil etadi. Kolonnaning korpusi I qalin kislotaga chidamli yaxlit po'latdan tayyorlangan bo'lib u 40–55 MPa ichki bosimga chidamli qilib yasalgan. Kolonnaning diametri 1500 m dan oshmaydi.

Parchalanadigan yog' mayda tomchilar shaklida 100° C haroratda kolonnaning ostki qismidan yuqori bosimli 3 nasos orqali beriladi. Nasos 6,3 MPa gacha bosim hosil qiladi. Suv kondensati kolonnaning ustki tomonidan 120° C haroratda 4 nasa orqali 2 sachratgichga o'tadi.

Tayanch iboralar

Yog' kislotalar, suvli glitserin, reaktivli gidroliz, reaktivsiz gidroliz, avtoklav, bosim pasaytirgich, kolonna tipidagi qurilma.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Yog'larni gidrolizlash usullari.
2. Avtoklavda yog'larni reaktivsiz parchalash jarayonining texnologik sxemasi.
3. Reaktivsiz yog'larni parchalash avtoklavi.
4. Bosimni pasaytirish qurilmasi.
5. Kolonna tipidagi yog'larni reaktivsiz parchalash qurilmasi.

22-bob. SOVUN ISHLAB CHIQARISHDA ISHLATILADIGAN QURILMALAR VA ULARNI HISOBBLASH

Sovun – bu yuqori molekulaligi yog' kislotalarini ishqoriy metallar (natriy, kaliy va bosh) bilan hosil qilgan tuzlari. Buning uchun uglerod atomining soni 10 dan 20 gacha bo'lgan yog' kislotalari ishlataladi. Shu yog' kislotalarini metalli tuzlarini suvli eritmalar yaxshi yuvuvchi xususuyatiga ega bo'ladi. Bu uglerod sonidan kam yoki ko'p bo'lgan yog' kislotalarini metalli tuzlari yuvuvchi xususiyatiga ega emas.

Sovun – bu kundalik turmushda, maishiy xizmatda va sanoatda eng ko'p ishlataladigan yuvuvchi vosita bo'lib hisoblanadi.

Sovun ishlab chiqarish uchun asosiy va yordamchi xomashyolar ishlataladi.

Asosiy xomashyolarga: oziq-ovqat va texnik moylar, hayvon yog'lar; salomas; kokis; palma moyi; sun'iy yog' kislotalari; parchalangan sapstok; kanifol.

Yordamchi xomashyolar: kaustik soda (natriy ishqori); kalsiniriviniy soda (natriy karbonat); kaliy ishqori; kaliy karbonat, natriy slikat, natriy xlorid, rang beruvchi moddalar, aramizatorlar, antiotsidanlар, stablizatorlar, dezinfeksiyalovchi moddalar, dovlovchi-profilikatsiyalovchi qo'shimchalar va boshqalar.

Sovunlar vazifasiga ko'ra xo'jalik va atirsovunlarga bo'linadi.

Qattiq xo'jaligi sovuni turli matolardan tayyorlangan materiallarni yuvishda, sanitariy-gigienik va ishlab chiqarish maqsadlarida ishlataladi. Tarkibidagi yog' kislotasini miqdoriga va respturasiga ko'ra xo'jalik sovuni uchta gruppaga bo'linadi:

I-gpuppa, tarkibida 72 % yog' kislotasi bo'lgan xo'jalik sovuni;

II-gpuppa, tarkibida 70 % yog' kislotasi bo'lgan xo'jalik sovuni;

III-gpuppa, tarkibida 65 % yog' kislotasi bo'lgan xo'jalik sovuni.

Xo'jalik sovuni og'irligi 500 g dona xolida ishlab chiqariladi.

Suyuq xo'jalik sovuni tarkibida 40 % va 60 % yog' kislotasi bo'lgan holda xo'jalik va ishlab-chiqurishi da ishlatalish uchun ishlab chiqariladi.

Atir sovun – inson qo'lni, yuzni va badanini yuvish uchun, tarkibida 73–80 %gacha yog' kislctasi bo'lgan, ogirligi 10 dan 300 g bo'lgan dona xolida ishlab chiqariladi.

Atir sovun qattiq, mazsimon va suyuq holda ishlab chiqariladi. Ular oq va turli ranglarda bo'lishi mumkin.

Sovun ishlab chiqarish jarayoni ikkita asosiy etapdan:

– kimyoiy, sovun pishirish;

– mexanik, qattiq sovun olish.

Birinchi etapda – yog' kislotalarini turli konsentratsiyali suvli, ishqorli eritmalarini tayyorlash va sovunni qishirish.

Ikkinchi etapda – issiq suyuq sovundan, sovitib qattiq sovun olish, turli qo'shimchalarini aralshtirish, mexanik ishlov berish, kesish, shampalash, shakl berish.

Sovun tayyorlash uchun ishlati adigan qurilmalar vazifasiga ko'ra quyidagicha guruhlanadi:

